

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**G'.X. Xojaxmedov, I.K. Yax'yaeva**

**MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH**

**O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi oliy  
o'quv yurtlararo ilmiy-uslubiy birlashmalar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi  
kengashi tomonidan oliy o'quv yurtlarining iqtisodiy ta'lif yo'nalishlari  
talabalari uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan**

**Toshkent 2010**

## **MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH**

**(o'quv qo'llanma) TDIU 2010. 186 bet**

**Xojaxmedov G'.X, I.K. Yax'yaeva**

O'quv qo'llanmada mahsulot sifatini boshqarish muammolarini o'rghanish asosiy maqsad qilib olingan. Sifat tushunchasi, mahsulotning sifat darajasini aniqlash, mahsulotlarni sertifikatlash, standartlashtirish, metrologiya va iste'molchilar huquqlarini ximoya qilish masalalariga ilmiy asosda yondoshilgan. Mahsulot sifatini boshqarishda uning nazariy asoslari hamda amaliy amaliy natijalar birgalikda taxlil qilinadi.

YUqorida keltirilgan masalalarni xalqaro tajribalarga asoslangan xolda yoritilishi xozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida ustivor yo'nalishlardan bo'lib xisoblanadi.

Qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Oliy O'quv Yurtlarining iqtisodiyot soxasi bo'yicha menejment yo'nalishida taxsil olayotgan talabalar va magistrantlar uchun mo'ljallangan.

Taqrizchilar:                   i.f.d. prof. Yo'ldoshev N.Q

“O'zstandart” agentligi

etakchi mutaxassis:   t.f.n. A.I. Usmanxadjaeva

Toshkent. TDIU 2010

# Управление качеством продукции

(учебное пособие) ТГЭУ 2010, 186 стр.

Хожиахмедов Г., Яхъяева И.К.

Целью учебного пособия является изучение проблем по управлению качеством продукции. Рассматриваются ключевые проблемы по управлению качеством продукции так как понятие качество, определение степени качества продукции, сертификация продукции, стандартизация, метрология и защита прав потребителей. Проведен анализ теоретических и практических основ по управлению качеством продукции и при этом ссылается на зарубежный опыт и приоритетные направления в условиях рыночной экономики.

Учебное пособие предусмотрено для студентов и магистров направления менеджмент и экономических специальностей ВУЗов Республики Узбекистан.

Рецензенты: д.э.н., проф. Юлдашев Н.К.

Ведущий специалист

Агентство «Узстандарт» - к.э.н. А.И.Усманходжаева

Ташкент. ТГЭУ - 2010

## Production quality management

(Training appliance) TSUE 2010.186 pages

Khodjiahmedov G., Yahyaeva I.K

This training appliance is intended for learning the problems of production quality management. This book aims to provide an effective course to study the key problems on production quality management, as well as the conception of quality, determination the degree of production quality, certification, standardization metrology and the protection of consumer rights. Theoretical and practical foundations on quality production management are designed and these bases are referring to foreign experiences and also to priority directions on market economy conditions. This manual is designed for students and master students of management and economic specialties of High Schools in Uzbekistan.

Reviewers:

d.e.s. prof: Yuldashev N.K

Leading specialist of

“Uzstandart” agency –

c.e.s. A.I Usmonhodjaeva

*"Sifatni boshqarish kadrlar tayyorlash bilan boshlanib, kadrlar tayyorlash bilan tugaydi"* Kaoru Isikava

## Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida harqanday tashkilot va korxonaning asosiy e'tibori sifatni boshqarishga qaratilgan bo'lmog'i kerak, chunki aynan shu yo'l bilan ular barcha raqobatchilarga qarshi kurasha oladilar va iste'molchilarining harqanday talablariga to'la javob beradilar. YUqori sifatlari mahsulot va xizmatlar raqobatbardoshlikda eng asosiy ko'rsatkich xisoblanadi.

Halqaro tajribalardan ma'lumki, muayyan darajada sifatni ta'minlamay, iste'molchilar talablarini qondirmay - iqtisodiyotda xechqanday Yutuqqa erishib bo'lmaydi. Halqaro hamjamiyat taraqqiyotida integratsion jarayonlar shuni taqazo etadiki, mahsulot va xizmatlar sifatini boshqarish, korxonaning barcha maqsadlariga erishishida va obro'-e'tibor topishida eng asosiy yo'naliш bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 29 avgustdagi 183-sonli qaroriga muvofiq ravishda, barcha oliy o'quv va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga "Sifat menejmenti" va "Sifatni boshqarish" fanlari tadbiq etilishi munosabati bilan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining "O'zbekiston Respublikasida Xalqaro standartlarga mos ravishda sifat menejmentini joriy qilish" rejasи ishlab chiqildi. "Sifatni boshqarish" – muammolarini echish bilan dunyoga tanilgan iqtisodchi olim Kaoru Isikava shunday deydi: "Sifatni boshqarish kadrlar tayyorlash bilan boshlanib, kadrlar tayyorlash bilan tugaydi".

Ta'lim tizimiga "Sifatni boshqarish" fanining joriy qilinishi, o'z navbatida: sifatni boshqarishning mazmun moxiyati; sifatni boshqarish usullarini standartlashtirish; sertifikatlash; metrologiya va iste'molchilar xuquqlarini ximoya qilish kabi yo'naliшlarini kengroq yoritish bilan birga iqtisodiy - boshqaruв

usullariga ham e'tibor qaratilgan.

Ushbu o'quv qo'llanma ta'lim standartlari asosida "Mahsulot sifatini boshqarish" yo'nalishi bo'yicha ikki asosiy bo'limdan tashkil topgan:

- Mahsulot sifatini boshqarish fanining mazmuni va moxiyati;
- Standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish;


O'quv qullanmani yaratilishida xorijda chop etilgan darslik va o'quv qo'llanmalardan, prezidentimiz asarlaridan, Respublikamiz qonun-xujjatlari, Vazirlar Maxkamasi Qarorlari, xalqaro standartlar, Respublika standartlari, meyoriy xujjatlari va soxaga oid ilmiy jurnallarda chop etilgan ma'lumotlardan foydalanildi.

# I – BOB. MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH FANINING

## MAZMUNI VA MOXIYATI

### 1.1. Sifat tushunchasi

Sifat - keng sig’imli, murakkab va universal kategoriya bo’lib, u ko’plab xususiyat va jixatlarga egadir. Qaysi maqsadda foydalanishiga qarab sifat tushunchasini quyidagi jixatlari namoyon bo’ladi: falsafiy, ijtimoiy, texnikaviy, iqtisodiy va xuquqiy.



#### 1.1.1 chizma. Sifat tushunchasini namoyon etuvchi asosiy jixatlari

Falsafiy nuqtai nazardan qaraganda sifat aniq mazmun va moxiyatga ega bo’lib, boshqalardan farq qiladi. Avvalam bor uning ayrim xususiyatlari va boshqalardan farqi namoyon bo’lishiga qaramay ular o’zaro uzviy bog’liqlikda ekani namoyon bo’ladi. Qolaversa, sifat ko’plab xususiyatlar majmuasidan tarkib topadi, ular cheksiz bo’lishlari ham mumkin. Bu esa moddiy manba’larga va turlicha dunyoqarashlarga asos bo’la oladi.

Sifatning sotsiologik jixatlari muayyan sub’ekt bilan yoki jamiyat bilan bog’liq bo’lib u iste’molchilar va mahsulot (xizmatlar) orasidagi munosabatdir. Bu erda sifat kategoriya ko’rinishida namoyon bo’lib talab va taklif qonuniyatlariga javob beradi, hamda iste’molchilarning madaniyati va daromadlariga bevosita bog’liq bo’ladi.

Sifatning texnik jixatlari o’rganilayotgan ob’ektning miqdor va sifat o’zgarishlari bilan bog’liqidir. Bu erda fizikaviy, elektrokimyoviy va mexanik o’zgarishlar bir turdagи vazifani bajaruvchi mahsulot (moddalar) xususiyati xaqida so’z yuritiladi.

Muxandislik nuqtaiy-nazardan olinganda o'rganilayotgan mahsulot sifati va xususiyatlari etalonlar bilan taqqoslab o'rganilishi nazarda tutiladi.

Iqtisodiy nuqtaiy-nazardan olganda - sifat - o'rganilayotgan manba'ni iste'mol xususiyatlarini va qiymatini namoyon etadi.

Iste'molchilarining bu boradagi fikirlari turlicha bo'lishi - sifat darajasini aniqlashda texnik-iqtisodiy jixatlari birqalikda taxlil qilishni taqazo etadi va bu tajribani aniqlik darajasini ko'paytiradi.

Sifatning xuquqiy aspektlari NTX, ularning ishlab chiqish tartibi, tasdiqlash, joriy etish va amalga oshirish, uni ro'yxatga olishdir. Sifat xuquqiy nuqtaiy nazardan olinganda manba'ni barcha xususiyatlari eg'indisi talablarga to'la javob berishi NTXlarda o'z aksini topishidir.

Xalqaro ISO 9000 - 1994 sistemasiga muvofiq Sifat - shartlangan yoki taxmin qilingan extiyojlarni qondirish qobiliyatini beradigan mahsulot yoki xizmatlarning xususiyati va tavsiflari majmuasidir.

D. Djuran - sifat sistemasi bo'yicha etakchi mutaxassis, Amerikalik olimning fikricha, Sifat - "foydalanish (iste'mol) uchun yaroqlik". Bu tushuncha to'rtta o'ziga xos elementga egadir:

- Mahsulotni shakli, tuzilishini (dizayni) iste'molchilar o'zlarida idrok qilishlari;
- Mahsulotning proektiga va vazifasiga mosligi;
- Mahsulotni iste'molchilarga ma'qulligi, chidamligi va ta'mirlash mumkinligi;
- Maishiy xizmat korxonalarining mavjudligi.

Nems tadqiqotchilar sifatga quydagicha ta'rif beradiar: Sifat - mahsulot yoki xizmatlarning barcha xususiyatlarining eg'indisi bo'lib ular o'z vazifalarini bajara olishlarini kafolatlaydi.

Fan-texnika taraqqiyoti bilan birga barcha taraqqiyotlarning sifat xaqidagi fikirlari turli-tuman bo'lshiga qaramay ular doimo bir-birlarin to'ldirib kelmoqda va xech qachon qarama-qarshi bo'lmasan.

Bozor raqobatchiligi davrida tavar va xizmatlar turlari qanchalik ko'payib

borar ekan sifat to'g'risidagi tasavvurimiz ham o'zgarib boraveradi.

Sifat o'zining xaqiqiy mazmunini va moxiyatini "sifat xalqasi" deb nomlangan, tavar va xizmatlarning hayotiy jarayonida to'la ifodalanadi.



### 1.1.2. Sifat xalqasi

Chizmadan shuni ko'ramizki, sifat "Marketing"dan boshlanadi. Demak talabni o'rganish sifat xalqasini boshlanishi bo'ladigan bo'lsa, o'n uchinchi pog'ona bu, tavarning yo'qotilishi (utilizatsiya) bilan tugaydi. CHizmani kashfiyotchilari o'z fikirlarini to'la ishonchlik ekanini isbotlash uchun, birgina boshlang'ich pog'onadagi, marketingda, yo'l qo'yilgan xatolik bu mahsulotni umuman xaridori bo'lmasligi ham mumkinligini ko'rsatadi.

Sifat xalqasini har bir pog'onasida yo'l qo'yilgan xatolik navbatdagi pog'onaga o'tganda uning zarari o'n marotaba ortib boravradi. Loyixadagi arzimagan xatolik o'z vaqtida bartaraf etilmay ishlab chiqarishga tadbiq etilsa uning zarari Yuz marotabaga, undan ham ko'proq yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

## 1.2. Mahsulot sifati va uni boshqarish

Mahsulot sifati iste'molchilar uchun eng asosiy ko'rsatkichlardir, chunki, sifat mahsulotning iste'mol xususiyatini belgilaydi. Bu erda mahsulot sifatini

oshishi uning xajmini oshishiga olib keladi, shuningdek mahsulot mahsulot sifatini oshishi uchun nisbatan kam mablag' talab qilinadi. Iste'molchilar talabini qondirish degani bu tavarlar ishlab chiqarish uchun extiyoj bor degani bu o'z navbatida korxona bir meyorda ishlashini ta'minlaydi va uni kelajagini belgilaydi.

Ko'plab xorijiy firmalar Yuksak natijalarga erishishida asosan sifatga jiddiy e'tibor qaratdilar.

Sifatni boshqarish degan tushuncha deyarli yangi yo'naliш bo'lismiga qaramay uning jadal rivojlanish davri bozor iqtisodiyoti davriga to'g'ri keladi. Ayni shu davrda ko'plab adabiyotlarda mahsulot sifatini boshqarish borasida yangicha talqin va targ'ibotar ko'payib ularni taqqoslash va taxlil qilish lozim bo'ladi.

### **Mahsulot sifatini boshqarish bo'yicha asosiy tushunchalar.**

Mahsulot sifatini boshqarish — mahsulot sifati darajasini joriy qilish, ta'minlash va zaruriy darajada ushlab turish maqsadida loyihalash, tayyorlash va foydalanish (yoki iste'mol qilish) paytida amalga oshiriladigan harakatlar majmuasidir.

Sifatning zaruriy darajasini joriy etish tadqiqot qilish va loyihalash bosqichida mamlakat hamda xorijdagi eng ilg'or ilmiy-texnikaviy Yutuqlar tahlili asosida amalga oshiriladi. Mazkur bosqichda sifatni boshqarish muhim ahamiyatga ega, chunki shu erda bo'lajak mahsulotning asosiy texnikaviy-iqtisodiy va foydalanish ko'rsatkichlari xisoblanadi va ularga asos qo'yiladi. Bu ko'rsatkichlar iste'molchilarning zamonaviy talablaridan Yuqoriroq bo'lishi kerak chunki yangi mahsulot savdo sohasiga chiqquncha uning sifat ko'rsatkichlari ma'naviy eskirib qolishi mumkin.


**Mahsulot sifatini ta'minlash** ishlab chiqarish bosqichida amalga oshiriladi. Bu erda mahsulot sifati mahsulotni tayyorlash me'yoriy-texnikaviy hujjatlar, jihozlar, uskuna va asboblar, olinadigan xom ashyo, material va jamlovchi buyumlar sifati bilan aniqlanadi. Ishlab chiqarilgan mahsulot sifatini baholash mezoni sifatida amaldagi texnikaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlar loyiha hujjatlarda, ya'ni birinchi bosqichda ko'zda tutilgan mos ko'rsatkichlarga muvofiqlik darajasi

xizmat qiladi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotning sifatini saqlab turish aylanish va sotish, foydalanish yoki iste'mol hilish boshichlarida amalga oshiriladi. Mahsulot aylanishi va sotilishi sifati saqlash va transportlash sifatlaridan yig'iladi. Foydalanishdagi mahsulot sifatiga kelganda, u foydalanish va ta'mirlash hujjatlari, foydalanish va ta'mirlash jihozlari, ehtiyoq qismlar va sarflanadigan materiallar sifatlariga hamda foydalanuvchi va ta'mirlovchi xodimlar malakasiga bog'liq. Foydalanishda mahsulot sifatini baholash mezoni uning ko'rsatkichlari ilova qilingan texnikaviy hujjatlarda qayd qilingan mos ko'rsatkichlarga, ya'ni qondirishi zarur bo'lgan amaliy ehtiyojlarga muvofiqligi darajasidir.

Aytib o'tilgan bosqichlar mahsulotning hayotiy tsiklini tashkil qiladi. Uning foydalanish bosqichidagi muddati har bir bosqichda erishilgan sifat darajasiga bog'liq.

Mahsulotning hayotiy sikli.



Mahsulot sifatiga ilmiy tadqiqotlar, konstrukturlik texnologik ishlanmalarda asos solinadi, foydalanishda esa ular ro'yobga chiqadi.

Mahsulot sifatini joriy qilish, ta'minlash va saqlab turishning asosiy bosqichlarini tavsiflovchi "sifat sirtmog'i" mavjud. Bu bosqichlarga:

- mahsulotga bo'lgan talablar, mahsulotning texnikaviy darajasi va sifatini oldindan ko'rish (marketing tadqiqotlari);
- ilmiy-texnikaviy taraqqiyot Yuuqlarini hisobga oliv sifat darajasi shakllantirish, me'yoriy-texnikaviy hujjatlarni tayyorlash;
- ishlab chiqaruvchi korxona imkoniyatlarini tahlil qilish;

- sifatli xom ashyo, material, jamlovchi buYumlar bilan moddiy-texnikaviy ta'minlash;
- ishlab chiqarishni texnikaviy tayyorlash, texnologik jarayonlarni ishlab chiqish, jihoz, uskuna va asboblar bilan ta'minlash;
- tegishli me'yoriy-texnikaviy hujjatlar va standartlarga muvofiq mahsulotni ishlab chiqarish;
- texnikaviy nazorat va sinash, tayyorlash sifatni baholash;
- tayyor mahsulotni sotish, mahsulotni saqlash, transportlash va sotish jarayonlarida uning sifatini saqlab qolish;
- tayyor mahsulotni montaj qilish va undan foydalanish, xizmat qilish va ta'mirlash, sifatini ta'minlash, iste'molchi mahsulot sifati bilan qoniqqanligi darajasimini baholash.

Mahsulot haetiy tsiklining oxirgi bosqichi uni foydalanishga tiklash (utilizatsiya) va qayta tiklangan moddalardan to'liq foydalanishdir.

**Sifat — boshqarish ob'ekti.** Sifatni boshqarish nazariyasini ishlab chiqishga atoqli olimlar P.L. CHebishev, A.M. Lyapunov, I.G. Venetskiy, A.M. Dlin, U.A. SHuxart, E. Deming, A.Feygenbaumlar katta hissa qo'shganlar.

Sifatni boshqarish zamonaviy nazariyasi shundan kelib chiqadiki, sifatni boshqarish bo'yicha faoliyat mahsulot ishlab chiqarilgandan keyin samarali bo'lishi mumkin emas, bu faoliyat mahsulot ishlab chiqarish jaoayonida amalga oshirilishi lozim.

Ishlab chiqarish jarayonidan odingi mahsulot sifatini ta'minlovchi faoliyat ham muhimdir.

Sifat ko'pgina tasodifiy, mahalliy va sub'ektiv omillarning ta'siriga bog'liq. Bu omillar sifat darajasiga ko'rsatadigan ta'sirining oldini olish uchun **sifatni boshqarish tizimi** zarur. Bunda ayrim uYushmagan va tasodifiy xarakatlar emas, balki sifatning tegishli darajasini saqlab turish maqsadida mahsulotni yaratish jarayoniga muntazam ta'sir qilish choralari majmuasi zarur.

Sifatni boshqarishda tizim, muhit, maqsad, dastur va boshqa

tushunchalardan foydalanishi muqarrar.

Boshqaruvchi va boshqariluvchi tizimlar ajratiladi. *Boshqariluvchi* tizim tashkilot (firma va boshqa tuzilmalar) ni boshqarishning turli darajalaridan iborat. *Boshqaruvchi* tizim sifat menedjmentini yaratadi. Zamonaviy adabiyot va amaliyotda sifat menedjmentining quyidagi kontseptsiyalari qo'llanadi:

- sifat tizimi (Quality system);
- sifatni boshqarishga asoslangan, menedjment tizimi (Quality Driven Management System);
- umumiy sifatni boshqarish (Total Quality Management);
- sifatni ta'minlash (Quality Assurance);
- sifatni boshqarish (Quality Control);
- sifatni statistik nazorati (Statistical Quality Control);
- sifatni ta'minlash tizimi (Quality Assurance System);
- mahsulotni kafolatlash (Product Assurance);
- umumiy ishlab chiqarish menedjmenti (Total Manufacturing Management);
- ilg'or ishlab chiqarish tajribasi (Good Manufacturing Practices);
- ishlab chiqarish resurslarini boshqarish tizimi (Environmental Management System);
- "biz bezovtamiz" tizimi (We Sage);
- "ma'sul shaxslar bezovtaligi" tizimi (Responsible Sage);
- atrof-muhitni muhofaza qilish doirasidagi umumiy sifat menedjmenti (Environmental TQM);
- ishlab chiqarishni umumiylashtirish (Total Manufacturing Assurance);
- jarayonlar integrallashgan menedjmenti (Integrated Process Management);
- sifatni yaxshilash maqsadidagi menedjment (Management for Quality Improvement);
- sifat va unumdarlikni to'la (umumiylashtirish) boshqarish (Total Quality and Productivity Management);

- integrallashgan sifat menedjmenti (Integrated Management);
- uzlusiz yaxshilashlarni tatbiq etish tizimi (Continues Improvement Implementation System);
- sifatni to'la islohot qilish (Total Quality Transformation);
- sifat tizimi menedjmenti (Quality System Management).

Sifat menedjmentining boshqa kontseptsiyalari ham mavjud. Biz sifatni boshqarish ob'ektidek tushunish uchun zarur bo'lgan kichkina qismini keltirdik xolos. Keltirilgan kontseptsiyalar TQM uslubiyatida sifatning turli muammolarini echishda qo'llanadigan turli usullar aslini aks ettiradi. Zamonaviy firmalarni boshqarishda TQM muhim ahamiyatga ega.

Boshqarish tizimi oliv bo'g'in rahbarlaridan boshlanadi. Aynan oliv bo'g'in rahbarlari firma oldingidan ko'proqqa qodir degan strategiyadan kelib chiqishi kerak. Firmanning tashkiliy tuzilmasida sifatni boshqarish bo'yicha ishlarni muvofiqlashtiruvchi maxsus bo'linmalar nazarda tutilishi mumkin. Sifatni boshqarish funktsiyalari bo'linmalar o'rtasida taqsimlanishi firma faoliyatini hajmi va xususiyatlarga bog'liq.

Menedjment ob'ekti bo'lmissifatga menedjmentning barcha tarkibiy qismlari xos: *rejalashtirish, tahlil, nazorat*.

Zamonaviy sifat menedjmenti sifatni boshqarish hamda konsul'tantlar dasturlari bo'yicha xorijiy korporatsiyalar bajargan tadqiqotlar natijalariga asoslangan. Bu "X'Yulett-Pakkard" kabi mashhur korporatsiyalar tajribasidir. 1980 yillarda bu va qator boshqa firmalar siyosatiga F.B. Krosbi U.E. Deming, A.V. Feygenbaum, K. Isikava, Dj. M. Djuran ishlanmalari ta'sir qilgan.

Etakchi firmalar faoliyatining asoslari quyidagilar bo'lib qoldi:

- oliv bo'g'in rahbarlari manfaatdorligi;
- ish sifatini yaxshilash bo'yicha kengash tashkil qilish;
- barcha rahbarlar tarkibini ishni yaxshilash jarayoniga jalb qilish;
- jamoa ishtirokini ta'minlash;
- individual ishtirokni ta'minlash;

- tizimlarni takomillashtiruvchi guruhlarni yaratish (jarayonlarni boshqaruvchi guruhlar);
- ta'minlovchilarni to'laroq jalb qilish;
- boshqarish tizimlari ishlash sifatini ta'minlash;
- ishni yaxshilashning qisqa muddatli rejalari va uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- xizmatlarni tan olish tizimini yaratish.

Ayniqsa, boshqarish tizimlari ishlash sifatini ta'minlash yo'nalishida to'xtalib o'tish kerak. Sifatni boshqarish bo'yicha konsul'tantlar sifat va ishonchlikni boshqaruvchi xizmatlar harakat va resurslarini muammolarni aniqlash va xatolarni to'g'rilashga yo'naltirganlariga e'tibor berishgan. Natijada og'ishlar bo'yicha boshqarish tizimi shakllangan. Bu tizim xatolarga javob qaytargan, lekin profilaktik chora-tadbirlarga hamda ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lмаган bo'linmalarga munosib baho bermagan. Sifatni ta'minlash firmanın ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini boshqaruvchi tizimlarga bog'liq degan xulosa chiqarilgan.

Sifat bo'yicha etakchi konsul'tantlardan biri F. Krosbi rag'batlantirish tizimi muhimligiga e'tiborni jalb qildi. Xodimlar xizmatlarini tan olish va Yuksak natijalarga erishishga qiziqtirish zamonaviy sifat menedjmentining tarkibiy qismidir.

1951 yilda Deming mukofoti haqida nizom ishlab chiqildi va u umumiyligida boshqarish (TQM) modeli asosini yaratdi. U model ekspertlarning keng doirasidan tushadigan ma'lumotni muntazam taxlilini va sifatga yangicha qarashni nazarda tutadi. Deming mukofoti Yaponiya sifatiga erishishda katta rol o'ynadi. Keyinroq, 1987 yilda AQSH da Malcolm Baldridj nomidagi mukofot ta'sis etildi. M. Baldridj mukofoti modelining rivoji biznes natijalari va jamiyatga qilgan ta'sirni baholovchi Evropa sifat mukofoti bo'ldi.

Bozor iqtisodiyotida faoliyat ko'rsatayotgan firmalar sifat sohasidagi siyosatni shunday ifoda qilishadiki, u faqat taklif etilayotgan buYumlar yoki

xizmatlar sifatlarigagina emas, balki har bir ishchi faoliyatiga dahldor bo'lishi kerak. Siyosatda aniq firma uchun ish sifati standartlari darajasi va sifatni ta'minlash tizimlarining jihatlari aniq belgilanadi. Bunda berilgan sifatli mahsulot iste'molchiga ma'lum muddatlarda, ma'lum hajmda va maqbul narxda etkazib berilishi kerak.

Bugungi kunda sifatni boshqarishda mahsulot sifati Yuqori barqarorligi va turg'unligi kafolati bo'lgan sifat menedjmentining sertifikatlashtirilgan tizimi muhim ahamiyatga ega. Sifat tizimining sertifikati firmaga bozorda raqobat ustunligini saqlab qolish imkonini beradi.

**Sifatni boshqarish** har qanday boshqarish tizimida ob'ekt va boshqarish dasturi hamda boshqaruvchi ta'sirlar mavjud. Ob'ekt sifatini boshqarish tizimiga uning sifati bilan bog'liq bo'lgan hayotiy tsikli har bir bosqichning jarayonlari kiradi. Boshqaruvchi ta'sirlar boshqarilayotgan jarayonning haqiqiy holati boshqarish dasturi joriy qilgan holat bilan qiyoslash asosida ishlab chiqiladi. Boshqarish dasturi sifatida mahsulot sifati ko'rsatkichlari qiymatlarini belgilovchi me'yoriy hujjatlar va mahsulotni ishlab chiqish hamda ishlab chiqarish, foydalanish yoki iste'mol qilishga bo'lgan talablarni belgilaydigan texnikaviy hujjatlar xizmat qiladi.

**Boshqaruvchi ta'sirlar** sifatni boshqarish tizimida ikkita masalani *echishi mumkin*:

— *boshqarilayotgan jarayonni boshqarish dasturi joriy qilgan holatda saqlab turish, ya'ni ishlab chiqarish tizimini rejalashtirilgan sifat darajasida mahsulot chiqarishni ta'minlaydigan barqaror holatda saqlab turish;*

— *boshqarilayotgan jarayon holatini to'g'rilib turish, ya'ni ishlab chiqarish tizimini zamonaviylashtirilgan yoki Yuqoriroq texnikaviy darajali va sifatli yangi mahsulot chiqarishni ta'minlaydigan Yuqoriroq darajaga ko'tarish.*

**Mahsulot sifatini boshqarish jarayoni** quyidagi operatsiya (harakat) lardan iborat:

- sifatni boshqarish dasturlarini ishlab chiqish va uni amalga oshirishni rejalashtirish;
- mahsulot sifatiga ta'sir qiluvchi har qanday boshqarilayotgan jarayon holati haqida axborot olish va uni tahlil qilish;
- sifatni boshqarishga oid qarorlar qabul qilish va ob'ektga qilinadigan boshqaruvchi ta'sirlarni tayyorlash;
- boshqaruvchi ta'sirlarni chiqarish;
- boshqaruvchi ta'sirlar Yuzaga keltirgan mahsulot sifati ko'rsatkichlarining o'zgarishlari haqida informatsiya olish va uni tahlil qilish.

Mahsulot sifatini boshqarishning asosiy shakli 3-chizmada keltirilgan. Mazkur shaklda ko'ringanidek mahsulot sifatining rejasi talablar tavsifi va hajmi (marketing tadqiqotlar) hamda aniq korxona (yoki korxonalar majmuasi) ning texnikaviy, iqtisodiy va tashkiliy imkoniyatlari asosida aniqlanadi.

Bu asosda ishlab chiqarishning konstruktorlik va texnologik tayyorgarligi, zaruriy miqdorda mahsulot chiqarish boshlanadi.

Mahsulot sifati haqida ma'lumot, odatda, bir necha kanallar orqali keladi (qaytma aloqa). Asosiy shaklda ikkita asosiy kanal ko'rsatilgan:


- birinchi kanal mahsulotni yaratish va ishlab chiqarish darajasida ishlaydi (ishlab chiqaruvchi korxonadagi sifat nazorati);
- ikkinchi kanal foydalanish doirasidagi mahsulot sifati haqida ma'lumotni o'zatadi.

Mahsulotning haqiqiy sifati to'g'risidagi ma'lumot rejalashtirilgan sifat ko'rsatkichlari bilan solishtiriladi. Qiyoslash natijalari bo'yicha sifatni saqlab turish yoki ko'tarish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Ishlab chiqilgan chora-tadbirlar mahsulot sifatiga ta'sir etuvchi turli omillar o'zgartirilishini nazarda tutadi. Bu omillarni *texnikaviy, tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiylarga ajratish* mumkin.

**Texnikaviy omillar:** texnologik jihozlar, uskunalar, asbob nazorat vositalari

holati; dastlabki materiallar, xom ashyo jamlovchi buYumlar sifati; texnikaviy hujjatlar va boshqalar holati va sifatidan iborat.



1.2.1. – chizma. Sifatni boshqarishni tamoyilli shakli.

## **Tashkiliy omillar** guruhiga:

- ishning muntazamligi va bir maromdaligi;
- jihozlarga texnik xizmat ko'rsatish va ularni ta'mirlash;
- material, jamlovchi buYumlar, uskunalar, asboblar, nazorat vositalari va texnikaviy hujjatlar bilan ta'minlanganlik
- mehnatni ilmiy tashkil qilish; ishda ovqatlanish va dam olishni tashkil etish va boshqalar.

**Iqtisodiy omillar:** mehnatga haq to'lash shakli; ish haqiniing miqdori; Yuqori sifatli mahsulot va ish uchun mukofotlash; yaroqsiz mahsulot uchun maoshdan chegirib qolish; mahsulot tannarxi va narxi; sifat darajasi va boshqalar.

**Ijtimoiy omillar** guruhi: kadrlarni tanlash, joylash va ish joyini o'zgartirish; malaka oshirishni tashkil qilish; ilmiy-texnikaviy ijod, ratsionallashtirish va ixtirochilik turar-joy, maishiy sharoitlar, jamoadagi o'zaro munosabatlar, psixologik iqlim va boshqalar.

**Mahsulot sifatini boshqarish mezonlari.** Har qanday boshqarish tizimi uning ishi samaraliliginini aniqlovchi boshqarish mezonlariga egadir. Bizning misolimizda mahsulot sifati, Yuqorida aytilgandek uning vazifasiga muvofiq ma'lum ehtiyojlarni qondirish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Sifatni boshqarish masalasidan kelib chiqib, bu xususiyatlarni boshqarish mezonlaridek qabul qilish mumkin. Masapan, materiallar sarflanishini kamaytirish kerak bo'lsa, mezon sifatida mashinaning massasi qabul qilinadi. Ishonchhlilikni oshirish kerak bo'lsa, mezon sifatida mashina to'xtab qolmasligi va boshqalar qabul qilinadi.

Aytib o'tilgan mezonlar texnikaviy mezonlar sonasiga kiradi va ulardan keng foydalilanadi. Lekin ular xususiy mezonlardir. Ularda sifatga erishish uchun sarflanadigan xarajatlarni baholash nazarda tutilmagan. Bularsiz mahsulot sifatini boshqarish tizimi ishi samaraliliginini baholab bo'lmaydi. SHuning uchun sifatni boshqarishda mahsulot sifati texnikaviy va iqtisodiy xususiyatlarini jamlaydigan mezonlardan foydalananish kerak. Bu holda mahsulotning **integral sifati tushunchasi** qo'llanadi. Mahsulotning integral sifati deb mahsulotdan

foydalinish yoki uni iste'mol qilishning yig'indisi foydali samarasining mahsulotni yaratish (ishlab chiqish va ishlab chiqarish) va foydalishga sarflanadigan yig'indisi xarajatlariga bo'lган nisbati tushuniladi.

$$K_u = \frac{\Theta}{Z_c + Z_e}$$

bu erda,  $E$  — mahsulotdan foydalish yig'indisining foydali samarasi;  $Z_s$  - mahsulotni yaratish uchun qilingan xarajatlar;  $Z_e$  - mahsulotdan foydalishdagi xarajatlar.

Sifatning integral ko'rsatkichi foydali xususiyatlar o'sishi ( $E$  o'sishi) ga ham, foydali xususiyatlar o'sishiga sarflanadigan xarajatlar o'zgarishi ( $Z_s + Z_e$  o'sishi) ga ham sezgirlik bilan javob beradi.

Odatda sifatning integral ko'rsatkichi vaqt o'tishi bilan kattalashadi, chunki xususiyatlar mahsulotni texnikaviy takomillashtirish va zamonaviylashtirish tufayli yaxshilanadi, xarajatlar esa mahsulotni ishlab chiqarish va undan foydalish paytida ish unumдорлиgi o'sishi hisobiga kamayadi.

Lekin amalda sifatning integral ko'rsatkichi o'sishi to'xtab qolishi yoki undan ham yomon hollarda pasayib ketishi kuzatiladi. Bu hodisa quyidagi ikki holda bo'ladi:

- foydali xususiyatlar yaxshilanishidan hosil bo'lган samara tegishli xarajatlardan kamroq o'sadi;
- foydali xususiyatlar o'zgarmaydi, xarajatlar esa ishlab chiqarish ko'rsatkichlari va mahsulotdan foydalish yomonlashishi hisobiga oshadi.

Tabiiyki, sifatning integral ko'rsatkichi kamayishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Agar shunday bo'lib qolsa, ishlab chiqarish uchun mehnat, material va energiyani kamroq sarflab iste'molchi ehtiyojlarini to'la qondiradigan zamonaviylashtirilgan yoki yangi mahsulot chiqarishni ta'minlaydigan Yuqoriqoq darajaga ko'tarish kerak. Bu holda sifatning integral ko'rsatkichi eng Yuqori bo'ladi.

**Sifatning maqbul (optimal) darajasi.** Ko'pincha iste'molchilar ehtiyojlarini qondirib foydalish yoki iste'mol qilishda zaruriy samarani

ta'minlaydigan mahsulot chiqarish kerak. Bunday mahsulot uni ishlab chiqarish va undan foydalanish yig'indi xarajatlari minimal bo'ladiqan maqbul sifat darajasiga ega bo'lishi kerak. Odamlar hayoti va xavfsizligini muhofaza qilishga mo'ljallangan mahsulot bunga dahlsizdir. Bunday mahsulotning sifati eng Yuqori darajada bo'lishi shart.

1.2.2. - chizmada xarajatlar va mahsulot sifati darajasining bog'lanishi ko'rsatilgan.

Sifat darajasi oshib borganda mahsulotni ishlab chiqarish uchun qilinayotgan xarajatlar boshida sekin oshadi (1-egri chiziq), chunki ishlab chiqarish berilgan talablarni osonlik bilan bajaradi. Keyinchalik sifat darajasi o'sishi bilan xarajatlar keskin oshib ketadi. Oxiri shunday chegaraga etib boriladiki, xarajatlar cheksizlikka intiladi. Bu holda na jihozlar, na ishchilar sifatni oshira oladilar.


SHu bilan bir vaqtda sifat darajasi oshganda mahsulotdan foydalanish paytidagi xarajatlar kamayadi (2-egri chiziq). Boshida ular keskin, keyinchalik asta-sekin kamayib boradi. Bu erda ham sifat darajasi oshishi bilan mahsulotdan foydalanish paytida xarajatlar kamayishiga olib kelmaydigan chegaraga etib kelamiz.

Yig'indi xarajatlarga kelganda, ular sifat darajasi oshishi bilan boshida kamayib boradi va sifat maqbul darajasida bo'lganda minimal bo'ladi.

Undan keyin, sifat darajasi maqbuldan Yuqorilaganda yig'indi xarajatlar oshadi. Oxirida ular cheksizlikka intiladi.

Ishlab chiqaruvchi korxonalar mahsulot tannarxini kamaytirishga intilib, ayrim hollarda mahsulot sifatini pasaytirib Yuborishadi. Bu holda foydalanish paytida iste'molchining xarajatlari oshib ketadi. SHuning uchun ishlab chiqaruvchini sifatli mahsulot chiqarishga qiziqtirish maqsadida chiqarilayotgan mahsulotdan foydalanish xarajatlarini unga Yuklab qo'yish kerak.

SHunday qilib, mahsulot sifatining maqbul darajasiga erishish birinchi darajali muhim masaladir. Bu — sifatni boshqarish tizimining asosiy maqsadlaridan biridir.



1.2.2. - chizma. Xarajatlar va mahsulot sifatining bog'lanishi:

1 — mahsulotni ishlab chiqarish xarajatlari; 2 — foydalanish jarayonidagi xarajatlar; 3 — yig'idi xarajatlar.

### *Xulosa*

*Mahsulot sifatini boshqarish — mahsulot sifati darajasini joriy qilish, ta'minlash va zaruriy darajada ushlab turish maqsadida loyihalash, tayyorlash va foydalanish (yoki iste'mol qilish) paytida amalga oshiriladigan harakatlar majmuasi.*

*Aytib o'tilgan bosqichlar mahsulotning hayotiy tsiklini tashkil qiladi (2-chizma). Uning foydalanish bosqichidagi muddati har bir bosqichda erishilgan sifat darajasigi bog'liq.*

*Mahsulot sifatiga ilmiy tadqiqotlar, konstrukturlik va texnologik ishlanmalarda asos solinadi, foydalanishda esa ular ro'yobga chiqadi. Mahsulot sifatini boshqarish jarayoni quyidagi operatsiya (harakat)lardan iborat:*

- 1.sifatni boshqarish dasturlarini ishlab chiqish va uni oshirishni rejalashtirish;
- 2.mahsulot sifatiga ta'sir qiluvchi har qanday boshqarilayotgan jarayon holati haqida ma'lumot olish va uni tahlil qilish ;

3.sifatni boshqarishga oid qarorlar qabul qilish va ob'ektga qilinadigan boshqaruvchi ta'sirlarni tayyorlash;

4.boshqaruvchi ta'sirlarni chiqarish;

5.boshqaruvchi ta'sirlar yuzaga keltirgan mahsulot sifati ko'rsatkichlarining o'zgarishlari haqida ma'lumot olish va uni tahlil qilish.

*Mahsulotning integral sifati deb mahsulotdan foydalanish yoki uni iste'mol qilishning yig'indi foydali samarasining mahsulotni yaratish (ishlab chiqish va ishlab chiqarish) va foydalanishga sarflanadigan yig'indi xarajatlarga bo'lgan nisbati tushuniladi.*

**Sifatni boshqarishning majmuiy tizimi.** Mahsulot sifatini boshqarish uchun bir-biri bilan uYushmagan chora-tadbirlar emas, balki o'zaro bog'langan chora-tadbirlar majmuasi, ya'ni tizimi yondashuv zarur.

**Sifat tizimi** — sifatni umumiyligi boshqarishni amalga oshirilishini ta'minlaydigan tashkiliy tuzilmasi, tartibli harakatlar (protseduralar), jarayonlar va resurslar majmuasi.

Sifat tizimlari yaratilishi va faoliyati quyidagi maqsadlarga erishish uchun zarur:

- sifatni ta'minlash;
- sifatni boshqarish;
- sifatni yaxshilash.

Bunday yondashuvning misoli korxonadagi mahsulot sifatini boshqarish majmuiy tizimidir (MSBMT). Tizimning majmuiyligi shundaki, u mahsulot hayotiy tsiklining barcha bosqichlarida sifatni boshqarish imkonini beradi, jumladan tadqiq qilish, loyihalash va tajribaviy namunani tayyorlash bosqichida; aylanish va sotish (saqlash, transportlash, savdo operatsiyalari) doirasida; mahsulotdan foydalanish yoki uni iste'mol qilish bosqichida.

Ko'rsatilgan tizimda standartlar majmuasi korxonaning barcha xizmatlari masalalari va vazifalarini belgilaydi, ular ta'siri tartibini joriy qiladi va ularning o'zaro munosabatlarini uYushtiradi. Tizim sifatni boshqarishda hamma toifadagi bajaruvchilar - **direktordan tortib ishchigacha** vazifalarini qat'iy belgilaydi.

MSBMT ishlab chiqarishni boshqarishi umumiy tizimining bir qismidir. Faqat shu xoldagina u o'z vazifasini, ya'ni mahsulot texnikaviy darajasi va sifatini oshirishni bajaradi.

MSBMT doirasida quyidagi vazifalar bajariladi:

- mahsulotga bo'lgan talab, uning texnikaviy darajasi va sifatini oldindan ko'rish;
- mahsulot sifati va uni oshirishni rejalashtirshi;
- mahsulot sifatiga bo'lgan talablar;
- mahsulotni attestatsiyalash, yangi mahsulot ishlab chiqish va ishlab chiqarishga qo'yishni tashkil qilish;
- ishlab chiqarishni texnologik tayyorgarligini tashkil qilish;
- metrologik ta'minotni tashkil qilish;
- moddiy-texnikaviy ta'minotni tashkil qilish;
- kadrlarni maxsus tayyorlash va o'qitish;
- mahsulot sifati rejalashtirilgan barqaror darajasini ishlab chiqish, uni ishlab chiqarish, omborlarga joylash, transportlash, sotish va foydalanish paytlarida, ya'ni uning hayotiy tsiklining barcha bosqichlarida ta'minlash;
- mahsulot sifatini oshirishga qiziqtirish;
- standartlar, texnikaviy shartlarni tatbiq etish va o'lchash vositalari holati ustidan davlat nazorati;
- mahsulot sifatining xuquqiy ta'minoti;
- MSBMT ning axborot ta'minoti;
- etkazib beruvchilar, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasida sifat masalalari bo'yicha o'zaro munosabatlarni tashkil qilish;
- mahsulot sifati bo'yicha ichki ishlab chiqarish hisobi va hisoboti.

**Mahsulot sifatini oldindan ko'rish, uni rejalashtirish va me'yorlash.** Mahsulot texnikaviy darajasi va sifatini oldindan ko'rish ularning istiqbol qiymatlarini aniqlash bilan bog'liq. Oldindan ko'rish mahsulot texnikaviy darajasi va sifati dinamikasi (o'sishi)ni taxminan belgilash imkonini beradi. Bu — mahsulotning ichki va ayniqsa, tashqi bozorda raqobatbardoshligini ta'minlash uchun zarur.

Oldindan ko'rishning muhim tashkiliy-texnikaviy vositasi ilgaridan standartlashtirishdir. YUqorida aytib o'tilgandek u kelasi paytda maqbul bo'lib qoladigan erishilgan darajaga nisbatan Yuqoriroq talablar, me'yorlar, qoidalarni joriy etishni nazarda tutadi.

**Oldindan ko'rish natijalari eng Yuksak mamlakat va jahon Yutuqlari darajasida mahsulot yaratish uchun dastlabki asos bo'ladi.**

*Mahsulot sifatini rejalahstirish* berilgan yoki ma'lum vaqt orasida talab qilingan sifat ko'rsatkichlariga ega mahsulotni chiqarish bo'yicha asoslangan topshiriqlarni aniqlashdan iborat. Mahsulot sifatini oshirish ham rejalahstiriladi. U fan va texnikani rivojlantirish, standartlashtirish va boiqalar bilan bog'lanadi.

**Me'yorlash natijasida mahsulot va uning tarkibiy qismlari sifat ko'rsatkichlariga bo'lgan talablar aniqlanadi.**

**Mahsulotni attestatsiyalash** uni davlat attestatsiyasiga tayyorlash hamda detallar, yig'ma birliklar va uzellar, ishlab chiqarishning texnologik jarayonlari zavod attestatsiyasidan o'tishini tashkil qilishni nazarda tutadi. Bunda quyidagi masalalar xal qilinadi:

- mahsulotning zavod attestatsiyasini tayyorlash va o'tkazish tartibini aniqlash;
- detallar, yig'ma birliklar va uzellar, tayyor mahsulot va texnologik jarayonlarni zavod attestatsiyasidan o'tkazish;
- attestatsiyalash natijalarini tahlil qilish hamda mahsulot sifati ko'rsatkichlari, yaxshilanishini ta'minlaydigan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;
- umuman mahsulotni davlat attestatsiyasiga tayyorlash.

**Mahsulotni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga qo'yilishini tashkil qilish** konstrukturlik xujjatlar va mahsulotning Yuqori texnikaviy darajali va sifatli tajribaviy namunasini yaratishga qaratilgan. Mazkur bosqichda loyihaviy, konstrukturlik va texnologik xujjatlarning metrologik ekspertizasi o'tkaziladi hamda mahsulot tayyorlash jarayonining metrologik ta'minoti amalga oshiriladi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tayyorgarligini tashkil qilish** korxona berilgan sifat va texnikaviy-iqisodiy ko'rsatkichlarga mos mahsulot namunalari yoki sanoat

partiyalarini ishlab chiqarishga tayyorligini ta'minlashdan iborat. Bu vazifani maqbul amalga oshirish uchun progressiv turli texnologik jarayonlar, zamonaviy texnologik jihozlar, uskunalar va asboblar, ishlab chiqarish jarayonlarini mexanizmlashtirish va avtomatlashtirish, ishlab chiqarishni tashkil qilishning ilg'or usullari va boshqalar qo'llanadi.

**Mahsulot sifatini metrologik ta'minotini tashkil qilish** mahsulot, materiallar, xom ashyo va jamlovchi buYumlar, texnologik jarayonlar rejimlari, sifat ko'rsatkichlarini, jihoz va asboblar tavsiflarini o'z vaqtida nazorat qilishga qaratilgan. Bu vazifalar bo'yicha asosiy chora-tadbirlar quyidagilardir:

- korxonada metrologik ta'minot holatini tahlil qilish va rejalashtirish;
- o'lchanadigan parametr va ko'rsatkichlar ratsional nomenklaturasini joriy qilish hamda o'lhashlarning optimal me'yorlarini aniqlash;
- o'lhashning zamonaviy usullarini ishlab chiqish, attestatsiyalash va joriy qilish, o'lhash vositalari va tekshiruv apparaturalarining ratsional nomenklaturasini aniqlash;
- o'lhash, uslublar va o'lhash vositalari aniqligi me'yorlari uchun standartlar ishlab chiqish va tatbiq etish;
- metrologik ekspertizani o'tkazish;
- o'lhash vositalarini tekshirish, saqlash, ta'mirlash va hisobga olish;
- metrologiya sohasidagi kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirish;
- korxonaning metrologik ta'minoti ustidan idoraviy nazorat qilish.

### **Metrologik ta'minot mahsulot hayotiy tsiklining barcha bosqichlarini qamrab olishi shart.**

**Mahulot sifatining moddiy-texnikaviy ta'minoti** korxona, tsexlar, bo'linmalar, brigada va ishchi o'rnlarni xom ashyo, material, jamlovchi buYum, texnologik jihoz, uskuna va asbob, nazorat vositalari va boshqalar bilan ta'minlashdan iboratdir. Buning ustiga, bularning hammasi o'z ko'rsatkichlari bo'yicha standartlar va boshqa me'yoriy-texnikaviy talablarga javob berishi shart.

Mahsulot sifatini ko'tarish soxasida **kadrlar tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil qilish** ishlaydiganlar barcha toifalarini ishning ilg'or usullari hamda standartlashtirish negizida sifatni boshqarish asoslariga o'rgatishdan iborat.

**Mahsulotning rejorashtirilgan sifati barqarorligini ta'minlash sifati eng yuqori toifali mahsulotni chiqarishga qaratilgan.** Barqaror sifatni ta'minlash uchun:

- ishlab chiqarishning bir maromdaligini;
- kelayotgan xom ashyo, material va jamlovchi buYumlar sifatini nazorat qilishni;
- ishchi xujjatlarning ish o'rinalidagi sifatini;
- nazorat va o'lchash vositalari anqligiga bo'lgan talablarga rioya qilishni;
- texnologik uskuna va asboblar aniqligini saqlab turish;
- texnologik jarayonlarni boshqarish;
- texnologik intizomga rioya qilish;
- yaroqsizlik defekt, reklamatsiyalar taxlili va ularni bartaraf qilish bo'yicha chora-tadbirlar o'tkazilishi;
- mexnat sifatini iqtisodiy rag'batlantirilishini ta'minlash kerak.

**Mahsulot sifatini oshirishga qiziqtirish** korxona xodimlarini Yuqori sifatli mahsulot chiqarishga moddiy qiziqtirishdan iboratdir. Rag'batlantirish manbasi Yuqori sifatli mahsulot chiqarish va undan foydalanish natijasida olingan iqtisodiy samaradir.

**Mahsulot sifatining huquqiy ta'minoti** MSBMTning barcha elementlari qonunlar talablariga to'liq mos ishlashidan iborat. Shu maqsadda:

- ishlab chiqilayotgan me'yoriy-texnikaviy xujjatlarni qonunlar talablariga mosligini tekshirish;
- mahsulotni ishlab chiquvchilar bilan sifatli xom ashyo, material, jamlovchi buYumlar, jihoz, uskuna, asbob va boshqlarni, iste'mol doirasiga sifatli mahsulotni

etkazib berish bo'yicha buYurtma va shartnomalarni chizmaiylashtirish qonuniy tartibini joriy qilish;

- past sifatli, yaroqsiz mahsulotni etkazib berganligi yoki uni chala etkazib berganligi sababli shikoyat va da'vo qilish uchun materiallarni rasmiylashtirish hamda yuridik xizmatga o'tkazishning qonuniy tartibini joriy qilishni amalga oshirish kerak.

**MSBMTning axborot ta'minoti** mahsulot hayotiy tsiklining barcha bosqichlaridagi texnikaviy darajasi va sifatini tavsiflaydigan axborotni YIG'ISH, saqlash, ishlash va tahlil qilish hamda bu axborot bilan manfaatdor shaxslarni ta'minlashga qaratilgan.

Mahsulot hayotiy tsiklining barcha bosqichlaridagi sifat haqidagi axborot sifatni boshqarish tizimining muhim elementidir. Boshqarish butun jarayonga tegishli ma'lumotni olish, idrok qilish, o'zgartirish va uzatishdan iborat, boshqaruvchi axborot boshqaruvchilarga etkaziladi, bu ular uchun aniq maqsadga qaratilgan o'zaro muvofiqlashtirilgan xarakatlarga buyruq bo'ladi.

Axborot:

- sifatni ta'minlash jarayonlariga tezkor ta'sir qilishi uchun o'z vaqtida bo'lisi;
- uni olish, uzatish va ishslash vosita hamda usullarining aniqligi bilan ta'minlanadigan ishonchli bo'lisi;
- bir vaqt ni o'zida to'liq va qisqa bo'lisi;
- bir jinsli va taqqoslanadigan bo'lisi;
- mahsulot sifatini aniq bahosini olish uchun muntazam va uzuksiz bo'lisi kerak.

MSBMT ning axborot ta'minoti o'z ichiga:

- mamlakat standartlari va texnikaviy shartlari, ISO standartlari va boshqa xalqaro standartlarda tarkib topgan mahsulot sifatiga bo'lgan talablar haqidagi ma'lumotlarni;

- mamlakat va xorijda chiqadigan o'xhash mahsulotlarning eng yaxshi namunalari sifati haqida ma'lumotlarni;
- mahsulot sifatini ko'tarish imkonini beradigan ilmiy-texnikaviy Yuuqlar haqida ma'lumotlarni;
- mahsulotning stend, poligon va boshqa zavod sinovlari natijalarini oladi.

**Sifatni yaxshilashning texnikaviy-iqtisodiy tahlili korxona va uning bo'linmalari mahsulot sifatini yaxshilash bo'yicha qilgan faoliyatining oxirgi natijalarini aniqlash va bo'linmalar ishini baholashdan iborat.**

Texnikaviy-iqtisodiy taxlilning asosiy yo'nalishlari quyidagilardir:

- ishlab chiqilayotgan va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning texnikaviy darajasi va sifatini aniqlash;
- mahsulot sifatiga ta'sir etadigan omillarni aniqlash;
- mahsulot sifati ko'rsatkichlari dinamikasi (o'sishi)ni aniqlash;
- yangi mahsulot chiqarishning iqtisodiy samarasini aniqlash;
- korxonaga sifatsiz xom ashyo, material, jamlovchi buYumlar va boshqalar etkazib berilishi tufayli ko'rilgan talafotlarni anqlash;
- yaroqsizlikning hamma turlari, reklamatsiyalar va boshqalardan ko'rilgan talafotlarni aniqlash.

### **1.3. Sifat va raqobatbardoshlik**

**Tovar va xizmatlar raqobatbardoshligi.** Bozor munosabatlari sharoitlarida qattiq raqobat, bozorda tanlanganini olish mumkin bo'lgan turli tovarlar, ular nomenklaturasining tez yangilanishi firma oldiga muntazam ishlab chiqariladigan mahsulotni xaridor qanday qarshi oladi, tovar muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsizligining sababi nimada, degan savollar qo'yadi. Bunday muammolarni tahlil qilish zaruratiga yangi buYumlarni ishlab chiqish narxi, ularni yaratish bilan bog'liq tavakkalchilikning oshishi sabab bo'ladi. Bularning hammasi firmani ishlab chiqarilayotgan tovarlar raqobatbardoshligini diqqat bilan o'rganishga majbur qiladi.

Muammoning yana bir jihat. Bizning iqtisodiyotimiz endigina rivojlanayotgani uchun jamiyat rivojlanishining asosiy omili sifatida resurslardan oqilona foydalanishga ishonish qiyin. SHuning uchun resurslarni saqlab qolish masalalari bilan har qaysi firma shug'ullanishi shart, uning ustiga bu ishlab chiqarishga sarflanadigan xarajatlar kamayishiga, bozorda mahsulot raqobatbardoshligi oshishiga olib keladi. Lekin tovar raqobatbardoshligini ko'rishdan oldin, kengroq ma'noga ega raqobat tushunchasini ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Bizning mamlakatimizda ilgari raqobatga ko'proq salbiy munosabat bildirilar edi. Lekin amaliyot shuni ko'rsatdiki bozor munosabatlariiga qadam qo'ygan mamlakatlar aynan raqobat tufayli va uning asosida olg'a harakatni ta'minlaydilar. **Raqobat o'zaro musobaqa shakli bo'lган va bo'lib qoladi.** Bu ish munosabatlari sub'ektlari o'zining iqtisodiy potentsialidan foydalanishning mustaqil huquqi bilan ta'minlanadi, bu esa ularning to'qnashishiga olib kelishi muqarrar, tadbirkorlar qo'ygan maqsadlariga biznesning boshqa vakillari manfaatlariga ziyon keltirish hisobiga erishishga olib keladi. Boshqacha aytganda, zamonaviy madaniyatli bozor iqtisodiyotida raqobat "g'alaba emas, muhimi qatnashish", degan olimpiya tamoyili bo'yicha musobaqa emasdir. Bu erda aqilliroq tadbirkor Yutib chiqadi.

Raqobat usullarining ikki asosiy guruhlari mavjud: narxli va narxsiz.

**Narxli raqobat** mahsulot assortimenti va sifatini o'zgartirmasdan ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va ma'lum mahsulotni sotish, bu mahsulot narxini kamaytirish asosida qo'shimcha foyda olish uchun tadbirkorlar musobaqasidir.

**Narxsiz raqobat o'z ichiga:**

- mahsulot xususiyatlarini o'zgartirish;
- mahsulotga mutlaqo yangi xususiyatlar berish;
- ilgari bo'lmanan ehtiyojlarni qondirish uchun yangi mahsulot ishlab chiqish;

- moda, nufuz timsoli bo'lgan tovarlar xususiyatlarini yangilash, tovar hamrohi bo'lgan xizmatlar (namoyish, o'rnatish, kafolatli ta'mirlash va b.) ni takomillashtirishni oladi.

Zamonaviy raqobat sharoitlarida raqobatning narxsiz usullarining narxli raqobatga nisbatan ustunligi kuzatilmoxda. Firmalar orasidagi raqobat asosini tabaqalashtirilgan talab tashkil qiladi. Bozorda o'z muomalasining strategiyasi va taktikasini ishlab chiqishda firma eng avvalo, iste'mol sifatlari bo'yicha xaridorlarning ehtiyojlariga maksimal mos keladigan mahsulotni yaratish g'amini eydi. O'zining iqtisodiy siyosatida firma iste'molchilar kutishlari dinamikasiga qaraydi.

Ma'lumki, "raqobatbardoshlik" tushunchasi "raqobat" tushunchasining bir qismidir. Agar firma bozorda muvaffaqiyatsiz raqobat qilayotgan bo'lsa, uning mahsuloti raqobatbardosh emas.

**Raqobatbardoshlik — mazkur bozorda mavjud eng yaxshi o'xshash ob'ektlarga nisbatan aniq ehtiyojni qondirish darajasini tavsiflovchi ob'ekt xususiyatidir.**

SHu bilan birga raqobatbardoshlik — aniq bozor sharoitlarida boshqalar bilan musobaqada chidash imkoniyatidir. Raqobatbardoshlik marketing tadqiqotlari natijalari bo'yicha aniqlanadi. U tovarning ham aniq ijtimoiy ehtiyoja moslik darajasi, ham uni qondirishga sarflangan xarajatlar bo'yicha uning raqib tovaridan farqini ifodalovchi tavsifidir.

O'zbekiston amaliyotida tovarlarga nisbatan "mahsulot raqobatbardoshligi" tushunchasi bilan amalda bir xil ma'noga ega "mahsulot sifati" tushunchasi ko'proq qo'llanadi, chunki mahsulot sifati deb kamroq xarajat qilib, xaridorni maqbul holda qondirish xususiyati tushuniladi.

Iste'molchi nazarida Yuqoriqoq sifati bilan ajralib turgan buYumlar raqobat ustunligiga egadir. Ammo, bunday yondashishda mazkur mahsulotni sotib oladigan xaridor uchun mutlaqo ahamiyati yo'q bo'lsa ham ishlab chiqaruvchilar nuqtai nazarida muhim bo'lgan mahsulotni tayyorlash mehnat sig'imliligi, material sig'imliligi, enrgiya sig'imliligi, buYumlar ishlab chiqarishning texnologikligi,

konstruktsiyasining muhim xosiyatlari chekkada qolib ketadi.

Tovar raqobatbardoshligining asosiy tashkil etuvchisi uning iste'mol xususiyatlari va narxidir. Lekin tovarning bozor istiqbollari faqat sifat va ishlab chiqarish xarajatlariga boqliq emas. Tovarning muvaffaqiyatli yoki muvaffaqiyatsizligi sabablari ta'minlovchining reklama faoliyati, uning nufuzi, texnikaviy xizmatning taklif etilayotgan darjasasi kabi boshqa notovar omillar bo'lishi mumkin.

Lekin raqobatbardoshlikni ta'minlash bo'yicha firma faoliyatining ishlab chiqarishga oid bo'lmanan jihatlari qanchalik muhim bo'lmasin, asos — **sifat**, **narx** va **texnikaviy xizmatdir**.

Tovar raqobatbardoshligini oshirish uchun raqobatbardoshlikni miqdoriy o'lhash imkonini ta'minlash kerak bu esa uning darajasini oshirish imkonini beradi. Iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi shaklida bunday miqdoriy ma'lumotni yig'ish mahsulot raqobatbardoshligini yaxshilash jarayonining muhim bosqichidir. Miqdoriy ko'rsatkichlar taxlili joriy davrda raqobatbardoshlik darjasи, uni oshirish zarurati darjasи, bu maqsadga erishish potentsial usullari haqida fikr Yuritish imkonini beradi. Undan tashqari, aytib o'tilgan ko'rsatkichlardan foydalanib, boshlang'ich davrda ko'rilgan chora-tadbirlar samarasiga baho berish mumkin.

Raqobatbardoshlik — integral tushuncha. Tahlil qilinayotgan tovar raqobatbardoshligini o'lhash uchun mazkur va raqib tovarlar xizmatining me'yoriy muddatda foydali samarasini tavsiflovchi sifat ma'lumotini hamda ob'ektlar hayotiy tsikllari davomidagi jami sarflarni bilish zarur.

**Foydali samara** — ob'ektning aniq iste'molchilar ma'lum ishni bajarish uchun qo'llaydigan xususiyatlari majmuasidir, **sifat** esa — iste'molchilar guruhlari uchun potentsial foydali samaradir. Tovarlar foydali samarasini tabiiy birliklarda (masalan, bir parametrli mashinalar uchun — unumдорлик), pul hisobida yoki shartli ballar hisobida (bir-birini to'ldiradigan bir nechta muhim parametrlar bilan tavsiflanadigan ob'ektlar foydali effektini hisoblagandek) o'lhash mumkin.

Tovarning ikkinchi tomoni — tovardan foydali samara olish uchun albatta, amalga oshirilishi zarur bo'lган **hayotiy tsikldagi majmuiy sarflardir**.

Foydali samara yoki hayotiy tsikldagi majmuiy sarflarni miqdoriy o'lchab va oldindan ko'rib bo'lmaydigan tovarlar raqobatbardoshligini iste'molning aniq sharoitlarida eksperimental tekshirish asosida, sinovli sotishlar natijalari bo'yicha va boshqa usullarni qo'llab aniqlash mukin.

Menedjer o'z firmasi buYumlari raqobatbardoshligini o'rgangandan keyin, ular raqobatbardoshligini oshirish va erishilgan darajada ushlab qolish uchun zarur bo'lgan aniq chora-tadbirlarni bajarishga kirishishi zarur. Bu yo'nalishda ish tovar raqobatbardoshligini boshqarishga yondashish jihatlarini tanlashdan boshlanadi.

Bunday yondashishlardan bir nechtasi ma'lum: tizimli, majmuiy, funktsional.

**Tizimli yondashish** — asosida ob'ektlarni yaxlit tizim sifatida o'rghanish yoki maxsus ilmiy bilish va ijtimoiy amaliyot uslubiyatidir.

Tizimli yondashishning eng muhim tamoyillari quyidagilardan iboratdir:

- qarorlar qabul qilish jarayoni oxirgi maqsadlarni aniq belgilash va ravshan ifodalashdan boshlanadi;
- doirasida har bir xususiy echimning barcha oqibatlari va o'zaro bog'lanishlari aniqlanadigan butun muammo bir butunlik yagona tizimdek ko'rildi;
- maqsadga erishishning imkonii bo'lgan muqobil yo'llarni aniqlash va tahlil qilishning xosligi;
- ayrim kichik tizimlarning maqsadlari butun tizim maqsadlari bilan to'qnashishi mumkin emas.

**Tizim** — ma'lum yaxlitlik birlikni hosil qiladigan munosabat va aloqalarda bo'lgan elementlar majmuasi. Tizimli tahlil tamoyillaridan kelib chiqib, marketing tadqiqotlari asosida avval tovar yoki xizmatlar parametrlari shakllantiriladi: nima chiqarmoq, qanday sifat ko'rsatkichlari va qanday sarflar bilan, kim uchun, qaysi muddatda, kimga va qanday narxda sotmoq kerak?

Eng avvalo, tovar me'yorlar bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi kerak. Undan keyin qanday resurslar va ma'lumotnoma kerakligi, ishlab chiqarishning tashkiliy-texnikaviy darajasi (texnika, texnologiya, ishlab chiqarish, mehnat va boshqarishni

tashkil qilish) va tashqi muhit parametrlari (siyosiy, yiqtisodiy, texnologik, ijtimoiy-demografik mamlakatlar madaniy muhiti va mazkur mintaqasi infratuzilmasini o'rganib, nimalarni oldindan ko'rish mumkinligi aniqlanadi.

Iste'molchilarning tovar, bozor ko'rsatgichlariga nisbatan talablari o'zgarganda, tashkiliy-texnikaviy yangiliklar paydo bo'lganda bu o'zgarishlarga monand munosabat bildirmoq va tegishli o'zgartirishlar kiritmoq kerak. Tovar raqobatbardoshligini ta'minlash uchun tovar iste'molchiga etkazilib beradigan paytgacha marketing tadqiqotlari natijalari jahon Yuuqlari darajasida bo'lisi, muhit tizim ichida jarayonlar me'yorida kechishiga ko'maklashishi kerak. Ammo shuni qayd qilamizki, oldin tizimning chiqishiga, keyin kirishiga va faqat undan keyin jarayonga bo'lgan talablar shakllantiriladi. Boshqacha aytganda, oldin tashqi muxit bilan bo'lgan munosabatlarni aniqlash kerak va faqat undan keyin jarayon sifatini oshirish ustida ishslash lozim.

Tovar raqobatbardoshligini boshqarishga bunday yondashish tovarni bozorga tatbiq qilish paytiga uni ishlab chiqarish eng yaxshi jahon namunalari darajasida ta'minlanishiga da'vat qiladi. Mahsulotni yangilash rejalashtirilganda raqiblardan o'zib ketish uchun tovarga qo'yiladigan bo'lajak talablar muhim ko'rsatgichlari rivojlanishining tendetsiyalarini oldindan ko'rish uchun sifatli ma'lumotdan foydalanish kerak.

**Majmuuy yondashish** boshqarishning texnikaviy, iqtisodiy, ekologik, ijtimoiy, tashkiliy va boshqa jihatlari o'zaro bog'langanishda ko'rishni nazarda tutadi. Afsuski, amalda aytib o'tilgan jihatlarning barchasi qamrab olinmaydi, bu esa juda katta talafotlarga olib keladi.

**Funktsional yondashishda** bitta ehtiyojni qondirish uchun yangi muqobil tuzilmalar va usullar qurish yo'lidan boriladi. Tovar hayotiy tsiklidagi yig'indi xarajatlar bashorat qilingandan keyin yig'indi xarajatlar birligiga maksimal foydali samara beradigan ob'ekt tanlanadi. Mazkur yondashishning asli — yangi yoki mavjud ehtiyojlarni qondirish uchun butunlay yangi tovarlarni yaratishdir.

Firma tovarlari raqobatbardoshligini oshirishning o'z-o'zidan ko'rinish turgan usullari **ishlab chiqarish xarajatlari darajasini iste'molchi xarajatlari**

**darajasidan pasaytirish, mahsulot sifatini oshirish** yoki iste'molchi sotib olgandan keyin tovarga qilinadigan xizmat sifatini oshirishdir. Lekin raqibdan ustunroq chiqishning boshqa usuli ham bor. U firma bozorda qandaydir jabhada aniq ifodalangan kompetentsiyaga erishishga harakat qilishidan iboratdir.

Aniq ifodalangan kompetentsiyaning ma'nosi shundaki, firma mahsulot ishlab chiqarishda yoki uni tarqatishda nimanidir o'z raqiblaridan yaxshiroq qiladi, bu esa mijozlarni o'ziga jalg qilish va saqlab qolish imkonini beradi. Ba'zan mahsulot narxi raqib firmalarnikidan Yuqoriroq bo'lsa ham, lekin kompaniya, masalan, eng mustahkam soatlar yoki eng kam yoqilg'i sarflaydigan mashina ishlab chiqarsa, uning mahsuloti raqiblarnikiga nisbatan raqobatbardoshliroq bo'ladi. Raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida xarajatlarni kamaytirish yoki barcha chora-tadbirlarni baravariga amalga oshirishga harakat qilish shart emas. Ayrim hollarda raqobatbardoshlik jabhasida firma tovariga nufuz yoki kompetentsiya beradigan qandaydir o'rmini tanlash samaraliroq bo'ladi. Iste'molchilar o'rtasida kompaniya obro'ga ega bo'lishi mumkin bo'lgan o'rnlardan bir nechtasini aytish mumkin:

- Mahsulotning texnikaviy tavsiflari bo'yicha peshqadamlik: bu Yum konstruktsiyasi uni Yuqoriroq ko'rsatkichlar bilan ishlatish imkonini beradi.

- Buyumning ishonchliliqi bo'yicha peshqadamlik. Masalan, har 10000 km yurishiga to'g'ri keladigan buzilishlar minimumining kafolati avtomobil uchun yaxshi reklamani ta'minlaydi.

- Buyumlarning baland narxidan iste'molchilarni qaytmashlikka undaydigan bu Yum mustahkamligi bo'yicha peshqadamlik.

- Etkazib berish bo'yicha peshqadamlik. Masalan, hozirgi kunda ertasidan kechiktirmay etkazib berish tamoyillariga asoslangan xizmatlarni yangi doirasi katta shuhrat qozonmoqda.

- Buyurtmachilar talablariga binoan bu Yumlarni "individuallashtirish". Aytaylik aniq firmadan sizning individual bu Yurtmangiz bo'yicha tayyorlangan bu Yum olishingiz mumkin.

- Mahsulotni bozorga tatbiq etish. YUqori texnologiyalarning ayrim jahbalarida bozorga mahsulotni tezda chiqarib berish muvaffaqiyatga olib kelishi mumkin. Masalan, "Polyaroid" fotoapparaturasi o'z obro'siga bozorga yangi buYumlarni tezlashtirib tatbiq etganligi tufayli erishdi.

- Ishlab chiqarish hajmini moslashuvchan boshqarish. Firmaning talabiga muvofiq ishlab chiqarish hajmini o'zgartirish qobiliyati.

Firma tanlagan o'rinnan aynan shu bozorda joizli bo'lisi kerak. Masalan, tovarni joyiga etkazib beradigan mahalliy firma yangi va katta Yuk mashinalariga ega. Lekin mijozlarning asosiy qismiga kichik paketlarni qisqa muddat ichida etkazish zarur bo'lsa, velosiped yoki mototsikllardan foydalanadigan firma raqobatbardoshliroq bo'lib qoladi.

Bizning bozorimiz raqobat nimaligini endigina anglamoqda, lekin bugunni o'zidayoq O'zbekistonda raqobat qiyinchiliklarini o'z boshidan kechirayotgan juda ko'p kichik (ko'pchiligi savdo va xizmatlar doirasidagi) firma va korxonalar mavjud. Ko'plari xonavayron bo'lmoqda va faqat bir qismi taraqqiyotga erishmoqda. Undan tashqari, iqtisodiy rivojlanishning mazkur bosqichida bozorimiz bizning ishlab chiqaruvchilarimiz raqobat qilishi oson bo'lmaydigan xorijiy kompaniyalar tovarlari bilan o'ta to'yingan. Aynan shunday muammolarni echish bilan tovar raqobatbardoshligi menedjmenti shug'ullanadi. Raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari 2.01-chizmada keltirilgan.

Bizning ichki bozorimizda xorijiy mahsulot bilan muvaffaqiyatli raqobat qilish uchun korxona qanday chora-tadbirlar ko'rishi kerak bozorda tovar muvaffaqiyatini oldindan qanday bilish kerak tovarga talab yo'qligining oldini qanday olish kerak firma mahsulotiga iste'molchilar diqqatini qanday jalg qilish mumkin — shu va boshqa ko'p savollarga javobni aynan **tovar menedjmenti** beradi. Agar firma menedjeri bozordagi vaziyatni o'z ichki hissiyoti bilan oldindan bilsa, to'g'ri echimlarni mohirona tanlashdan holi bo'lmasa va raqobatbardoshlikni boshqarish san'atini bilib olgan bo'lsa, korxona bozorda muvaffaqiyat qozonishi aniqroq bo'ladi. Firma ishlab chiqarayotgan tovar raqobatbardosh bo'lsa, kompaniyaning asosiy maqsadi — etarli darajada foyda ko'rish va bozor

munosabatlari sharoitlarida omon qolishni ta'minlashdir. Tovarlar raqobatbardoshligini samarali boshqarish ayniqsa, o'z mahsuloti bilan tashqi bozorga chiqmoqchi bo'lgan korxonalar uchun muhimdir. Bu masalani amalga oshirish ulardan iste'molchilarga peshqadam firmalar taklif etayotganlardan yaxshiroq yoki kamida yomonroq bo'limgan tovarni, ularni sotish va xizmat qilish shartlarini taqdim etishni talab qiladi. Bu faqat raqobatbardoshlik mexanizmlarini, o'z tovarlari raqobatbardoshligani ko'tarish usul va yo'llarini sinchkovlik bilan o'rganish asosida amalga oshirilishi mumkin.

Binobarin, marketing tizimining asosiy elementlari bozorni tadqiq qilish, bu asosda bozor (raqobat) strategiyasini ishlab chiqish va amalga oshirishdir. Marketing — aniq iste'molchilar extiyojlarini qondirish, bozorni o'rganish va oldindan ko'rish asosida foyda qilishga qaratilgan tovarlar ishlab chiqarish va sotishni tashkil qilishning majmuiy tizimidir.

O'zbek kompaniyalari tomonidan marketingning barcha potentsialidan foydalanish, ular faoliyatida marketing asli, marketing alomatlari bo'lmissa quyidagi xususiyatlar mavjudligi bilan tavsiflanadi:

- mijozlar ehtiyojlariga qaratilganlik (marketing falsafasi);
- bozor siyosati asboblarining bir qancha majmularini (marketing-miks);
- sotish doirasidagi faoliyatining barcha turlarini muntazam o'zaro muvofiqlashtirish (marketing boshqarish).

Marketing doirasida bizning mamlakatimiz amaliyotiga quyidagi tendentsiyalar xos:

1. Borgan sari ko'proq korxonalarning ham kattalari, ham o'rtachalari, ham kichiklari bozorni jiddiy majmuiy tadqiq qilishga kirishmodalar.
2. Bu jahhada mijozlarning amaldagi ehtiyojlariga qarash ustuvor bo'lib qoldi, buning uchun iste'molchilarni segmentlash amalga oshirilmoqda.
3. Korxonalar faqat iste'molchilar ehtiyojlarini o'rganib qolmasdan, balki turli innovatsiyalar, xususan yangi mahsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqib va tatbiq etib ularga keskin ta'sir qilmoqdalar.

4. Zamonaviy marketing talablarini amalda tatbiq etishda bozor masalalarini yagona tizimda, majmuiy echish o'ziga xos bo'lib qolmoqda.

5. Korxona va tashkilotlar barcha xizmat va bo'linmalarining ishi marketing dasturlari o'z vaqtida va sifatli bajarilish masalasiga qaratiladi. Marketing dasturlari shakllantirilishi va amaliyotga tatbiq etilishida joriy rejallardan istiqbol rejalgarda bora-bora o'tish amalga oshiriladi.

6. Korxona tashkiliy tuzilmasiga odatda maxsus marketing bo'linmasi kiritiladi, u mazkur jabhadagi barcha faoliyatni muvofiqlashtiradi.

7. Yangi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish va tatbiq etish, mavjudlarini zamonaviylashtirish marketing siyosatining asosiy mazmuni bo'lib qolmoqda.

8. Bozorga taqdim etilayotgan mahsulotlar qiyofasini shakllantirish va mustahkamlashga muqim ahamiyat berilmoqda.

9. Firma o'z vaqtida raqiblar bozorda qilgan harakatlariga o'z munosabatini bildirish uchun ularning harakatlarini nazorat qilish jiddiy ravishda kuchaytirilmoqda.

10. Marketingdagi yangi g'oyalilar, bank xizmatlari yangi turlarini ishlab chiqishga tobora faqat marketing bo'linmasi xodimlari emas, balki korxonaning barcha xodimlari jalb qilinmoqda.


11. Ko'p qirrali va turli marketing tadqiqotlarini o'tkazish firma bozorda omon qolishining asosi, uning moliyaviy barqarorligi, tavakkalchiligini kamaytirish negizi bo'lib qolmoqda.

12. Firmanın bozordagi barcha faoliyati tobora to'laroq masshtabda mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqish, ishlab chiqarish va sotishning barcha bosqichlariga singib ketgan yagona kontseptsiya asosida amalga oshiriladi.

13. Bozorni oldindan ko'rish, kompaniyaning raqobat o'rnini mustahkamlash ahamiyati paydar-pay oshib bormoqda.

14. Marketing korxonaning raqobat imtiyozlaridan eng samarali foydalanishga yo'naltirmoqda.

15. Kommunikatsion siyosatning, xususan korxonalar ular mahsulotlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarini doimiy takomillashtirish ahamiyati muntazam oshib bormoqda.



### 1.3.1 - chizma. Raqobatbardoshlik ko'rsatkichlari.

## *Xulosa*

*Raqobatbardoshlik — mazkur bozorda mavjud eng yaxshi o'xshash ob'ektlarga nisbatan aniq ehtiyojni qondirish darajasini tavsiflovchi ob'ekt xususiyatidir.*

*Tovar raqobatbardoshligi asosiy tuzuvchilari uning iste'mol xususiyatlari va narxidir. Ratsobatbardoshlik — integral tushuncha. Tahlil qilinayotgan tovar raqobatbardoshligini o'lhash uchun mazkur va raqib tovarlar xizmatining me'yoriy muddatda foydali effektini tavsiflovchi sifat informatsiyasi hamda ob'ektlar hayotiy tsikllari davomidagi jami sarflarni bilish zarur.*

*Bunday yondashishlardan bir nechtasi ma'lum: tizimli, majmuiy, funktsional.*

*Firma tovarlari raqobatbardoshligini oshirishning o'z-o'zidan ko'rinish turgan usullari ishlab chiqarish xarajatlari darajasini iste'molchi xarajatlari darajasidan pasaytirish, mahsulot sifatini oshirish yoki iste'molchi sotib olgandan keyin tovarga qilinadigan xizmat sifatini oshirishdir.*

### **1.4. Mahsulot sifatini boshqarishda xorij tajribalari**

Oxirgi vaqtda ko'p AQSH firmalari sifatni boshqarish jarayonlarini takomillashtirishda quyidagi tamoyillarni qo'llaydilar:

- firmaning oliv boshqaruvi bo'g'inlarining sifatni ta'minlash tizimida oddiy qatnashishdan tizimni bevosita boshqarishga o'tishi;
- barcha toifali kadrlar malakasini oshirishga diqqatni keskin oshishi;
- barcha toifali xodimlar uchun firmada bajarilayotgan ishlar va operatsiyalarga standartlar qo'llash. Bu standartlar ish natijalarini ixtiyoriy baholanishini bartaraf qilishi kerak va "birinchi martadan to'g'ri" hamda "defektlar soni — nol" talablarini amalga oshirilishini ta'minlashi kerak
- sifatni nafaqat texnikaviy ko'rsatkichlar orqali, balki narx ko'rsatkichlari orqali o'lhash, natijada "sifat narxi" tushunchasi kiritiladi, u o'z ichiga "nomuvofiqlik narxi" va "muvofiqlik narxi" ni oladi.

Shunga karamasdan AQSH sanoati mahsulot sifati etarli darajada Yuqori bo'lmaganligi tufayli katta talafotlarga uchramoqda. Masalan, korxonaning barcha joriy xarajatlarining 20-25% defektlarni topish va ularni bartaraf qilishga sarflanadi, ya'ni har bir to'rtinchi xodim mahsulot ishlab chiqarmasdan faqat ishlab chiqarishda defektga yo'l qo'yilgan narsalarni qayta ishlaydi.

### **Mahsulot sifatining pastligi ish unumдорлигига жана рақобатбардосхликнинг о'sishiga asosiy to'g'anoqdir.**

Bu kamchilikni bartaraf QILISH uchun Amerika firmalari zamonaviy sifat tizimiga o'tmoqdalar. U o'z ichiga mahsulotning Yuqori sifatiga erishish bo'yicha qator rejalashtirilgan va muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni oladi. Bu tizim quyidagi vazifalarni bajaradigan to'qqizta kichik tizimlardan iborat:

- sifat tizimini boshqarish;
- buyum ishlab chiqilishini nazorat qilish;
- sotib olinadigan xom ashyo, material va jamlovchi buYumlarni nazorat qilish;
- texnologik jarayonni ishlab chiqish va operatsion nazorat;
- mahsulot sifati haqida informatsiya;
- maxsus tadqiqotlar;
- sifat tavsiflarini o'lchash va nazorat-o'lchash apparaturasi;
- sifatni ko'tarish ishlariga xodimlarni jalg qilish;
- buyurtmachilar bilan aloqa o'rnatish.

Har bir kichik tizim ko'p masalalardan tarkib topgan, faoliyatning murakkab turlarida ularning soni 100 dan ortiq bo'lishi mumkin. Masalalar doirasi qanday bo'lmasisin, u sifat tizimini boiqrishning kamida oltita elementidan iborat bo'lishi kerak:

1. Tizim holatini aniqlash va mahsulot ishlab chiqarishning hamma bosqichlarini sinchkovlik bilan tekshirish, uning texnikaviy talablarga mosligini o'z ichiga olgan taxlilni o'tkazish;
2. Xarajatlar bandlari bo'yicha sifat narxini baholash: yaroqsizlikning oldini olish, sifatni nazorat qilish, nosozlik sabablarini bartaraf etish va boshqalar;

- 3.Mahsulotning iste'molchilar talablariga mosligini aniqlash;
- 4.Mahsulotning texnikaviy talablarga mosligi darajasini aniqlash;
- 5.Mahsulot foydalanshi sharoitlarida ishslashining tahlili;
- 6.Mahsulotning bozor talablariga mosligini aniqlash.

Amerikalik mutaxassislarning fikri bo'yicha sifatni boshqarish tizimi qanday mukammal bo'lmasin, muvaffaqiyatning eng muhim sharti firma xodimlari — *direktordan tortib bajaruvchigacha* — **uni to'liq qo'llab-quvvatlashidadir.** Sifatni ko'tarish sohasida sezilarli o'zgarishlarga faqat xodimlar va ishlab chiqarish texnologiyasini o'z ichiga olgan ijtimoiy-texnikaviy tizimlarni qayta tashkil qilish asosida erishish mumkin. Qayta ko'rilgan tizimlar *inson omiliga* asoslangan bo'lishi kerak.

Faoliyat ko'rsatayotgan ijtimoiy ishlab chiqarish tizimlarni qayta tashkil qilishning bir nechta modeli mavjud. Ulardan bittasida o'zgartirish jarayoni uch bosqichga bo'linadi.

**Birinchi bosqichda** o'zgartirish zarurati isbot qilinadi. Bunda asosiy omil sifatni ta'minlash xarajatlari tahlilidir. SHu bosqichning o'zida anketalash yo'li bilan taxmin qilinayotgan o'zgarishlarga butun jamoaning munosabati aniqlanadi.

**Ikkinci bosqichda** tashkilotni o'zgartirish bo'yicha faol harakatlar amalga oshiriladi. Ular o'z ichiga:

- butun jamoaga nazorat va etkazib berish sifatini aniqlash usullarini tezkor o'rgatish;
- iste'mol talablari tahlilini o'tkazish;
- sifatga bo'lган xarajatlarni baholash;
- xodimlar takliflarini o'rganish va jamlashni oladi.

Nixoyat, **uchinchchi bosqichda** ishlab chiqarishga oid o'zgartirishlarni barqarorlashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Oxirgi vaqda birinchi o'ringa *sifatning ijtimoiy-psixologik jihatlari (yo'nalishlari)* chiqmoqda. Samarali jihatlardan biri **undash omili** yoki **odamni undashdir.** Xodim qanchaki ko'proq o'zining aniq faoliyati bilan xarakat qilsa, shunchalik uning undovi kuchliroq,

mehnati samaraliroq, buYum sifati Yuqoriroq bo'ladi. "Sifat madaniyati" tushunchasi mavjud, u o'z ichiga uch muhim elementni oladi: undov, o'qitish va ta'lim, bajarilgan ishni baholash.

AQSH firmalari sifatning ikkita tushunchasini tahlil qilishadi: standart (me'yoriy-texnikaviy xujjalarga mosligi va iste'mol sifati.

### **Iste'molchi buYum sifatini raqobat qilayotgan buYumlar bilan qiyoslab baholaydi.**

Hozirgi kunda tayyor mahsulot sifati haqida qabul sinovlari natijalari va sifatli hamda yaroqsiz mahsulotlarning foiz nisbati bo'yicha xulosa chiqarib bo'lmaydi. Hozirgi asosiy mezon — *iste'molchi talablarining qondirilishidir*. SHuning uchun tayyor mahsulot sifatini baholashda reklamatsiyalar soni, bozor talabining egri chizig'i, iste'molchilarining kafolatli ta'mirlash yoki buYumni almashtirish haqidagi murojaatlari, sotuvdan keyingi xizmatlar xaqidagi xisobotlar, iste'molchilar surovleri natijalari kabi ko'rsatkichlar xisobga olinadi. Mahsulot sifati xaqidagi haqqoniy axborotni iste'molchilar uYushmalari va jamiyatlar, mustaqil sinov laboratoriyalari, iste'mol tovarlar xavfsizligi komissiyasi, sotib oluvchi davlat organlari va boshqalar etkazib beradilar.

AQSHda sifatni ta'minlash tizimlariga bo'lgan talablar "Mahsulot sifatini ta'minlash tizimlarini yaratish bo'yicha qo'llanma" milliy standarti orqali belgilanadi. Mazkur standart mahsulot xayotiy tsiklining barcha bosqichlarida sifat nazoratini, ya'ni har tomonlama nazoratni nazarda tutadi. U nazoratning turt bosqichini nazarda tutadi:

- 1.yangi mahsulotni ishlab chiqish ustidan nazorat;
- 2.xom ashyo, material, jamlovchi buYumlar ustidan kirish nazorati;
- 3.tayyorlash sifati ustidan nazorat;
- 4.istemolchidagi mahsulotga xizmat qilish, sifati ustidan nazorat.

Har tomonlama nazoratni tatbiq etishda amerika firmalari ikki tamoyilni amalga oshirishga harakat qiladilar:

*1) har tomonlama nazorat - har bir xodimning burchi;*

*2) ko'pincha umumiy javobgarsizlikka olib keladigan sifat haqida umumiy g'amxo'rlikni e'lon qilish emas, balki har bir xodimning o'z ishi sohasida anq sifat uchun javobgarligi.*

**Mahsulot ishlab chiqaruvchilar va savdoning sifat uchun Yuridik javobgarligiga** katta ahamiyat beriladi. SHuningdek ishlab chiqaruvchi va savdo korxonasi qonunga binoan yaroqsiz mahsulotdan foydalangani tufayli iste'molchi ko'rgan talafotni tuldirishi kerak. Ular mahsulotning atrof-muxitga qilgan ta'siri va mahsulotning amaliy foydalanishdagi xavfsizligi uchun ham javobgardir.

**YAponiyadagi sifatni boshqarish tizimlari.** 70-yillar boshida YAponiya tovarlarining halqaro bozorni "bosib olishi" boshlandi. Bu "bosishning" sabablaridan biri shundaki, yapon tovarlari arzonroq edi. Bu baho raqobatiga sezilarli ta'sir qilgan edi. Lekin hozir ham yapon va amerika tovarlarining narxlari deyarli baravarlashganda «bosish» muvaffaqiyatli davom etmoqda. Bu muvaffaqiyatning asosida sifati Yuqori bo'lgani tufayli yapon tovarlarining raqobatbardoshligi (sifat raqobati) yotadi. Masalan, yapon avtomobili o'rta xisobda amerika avtomobilidan 10 marta kamroq ishdan chiqadi; amerika televizorlarining nosozlik chastotasi yapon televizorlaridan 1,5...2 baravar ortiqroq va h.k.

Raqobatbardosh tovarlarni chiqarish uchun yapon firmalar sifatni boshqarish usullarini muntazam ravishda takomillashtiradilar. Firmalarning ko'pchiligidagi sifatni boshqarish quyidagi tamoyillarda tuzilgan:

- sifat bo'yicha umumfirma siyosatini o'tkazish va uni uzoq muddatga rejorashtirish;
- tovarlarning yangi turlarini ishlab chiqishda yangi tamoyil va usullarni qo'llash;
- firmanın barcha bo'limmalarini qamrab oladigan sifatni ta'minlash tizimini yaratish;
- sifat ustidan nazorat;
- sifatni boshqarish bo'yicha faoliyatni savdo agentlari, savdo firmalari, do'konlarga tarqatish.

Yaponiyada sifatni boshqarishning o'ziga xosligi — firmaning barcha xodimlari bu ishda **qatnashishining ixtiyoriyligi**, buning ustiga dunyo bozoridagi raqobat kurashida omon qolishga ko'maklashadigan anglangan ixtiyoriylikdir. Sifatni boshqarishga bunday yondashish "umumiy sifat boshqarishi" degan nom oldi. Uning moxiyati quyidagicha:

- mahsulot sifatini yaxshilashda "sifat tugaraklariga" birlashib, firmaning barcha xodimlari qatnashishi shart;
- firma rahbariyati sifat darajasini doim diagnostika va nazorat qilishi shart;
- hamma ish o'rinalarida nazoratning statistik usullari qo'llanishi kerak
- doim sifatni nazorat qilish usullarini barcha darajalarda milliy miqyosda o'rgatish lozim;
- sifatni nazorat qilish usullarini tatbiq etish harakati butun mamlakatni qamrab olishi kerak.

SHunday qilib, yapon tizimining muvaffaqiyati sifat nazorati shtat nazoratchilari xarakatlari bilan emas, balki firmaning barcha xodimlari o'z ish joyida qilgan harakatlari bilan ta'minlanganligidadir.

**Bosh yo'naliш** — "**sifat — hamma narsadan ustun**". SHuni aytib o'tish kerakki, mahsulot sifatini ta'minlashdagi muvaffaqiyatlar yapon jamiyatining o'ziga xos xususiyatlari bilan bog'liq:

- xodimning butun mehnat faoliyati davomida bitta firmada ishlash odati, bu firmaga sodiqlikni tarbiyalaydi va ish kuchining qunumsizligi darjasini pastligiga olib keladi (kadrlar qunumsizligi — sifat dushmani);
- majburiy ta'lif g'oyasi, umumiy va kasbiy ta'lif darajasini muntazam oshirib borishning ommaviyligidir.

### *Xulosa*

*Mahsulot sifatini ko'tarish uchun o'zaro bog'langan chora-tadbirlarning bir majmuasi, ya'ni tizimiyl yondashuv zarur.*

*Mahsulot sifatini boshqarish majmuiy tizimi (MSBMT) tashkiliy tuzilma, protseduralar, jarayonlar va resurslar majmuasidir. MSBMT ishlab chiqarishni boshqarish umumiy tizimining bir qismidir. Rivojlangan malakatlar mutaxassislarining fikricha sifatli boshqarish tizimi qanday mukammal bo'lmasin, muvaffaqiyatining eng muhim sharti firma xodimlari — direktoridan tortib bajaruvchigacha — uni tulq qo'llab-quvvatlashidadir.*

**Mahsulot sifatini boshqarishda Evropa** usuli shunisi bilan boshqa usullardan farq qilganki, doimo mahsulot sifati nazorat ostida bo'lgan. 1980 yillarga kelib Evropa davlatlarida mahsulot sifatiga nazorat qattiq kuchaytirildi. Aynan shu yillarda ISO - 9000 standartlari yoppasiga tadbiq etila boshladidi. Bunday tadbirlar Evropa tavarlarini raqobatbardoshligini oshirib Yubordi.

SHuni aloxida takidlash lozim bo'ladiki, ayniqsa g'arbiy Evropa davlatlarining yagona iqtisdiy siyosat Yuritishlari ularni xalqaro bozordagi mavqeini Yuksaltirdi.

Evropada tashkil qilingan yagona bozor siyosati tavar va xizmatlar xarakatini umumiy koordinatsiyasini keltirib chiqardi.

Evropaning umumiy bozorini tashkil qilish masalalari 1993 yil 1 yanvardan yagona standart asosida tashkil qilinishi rejalashtirilgan edi. ISO - 9000 seriyasiga muvofiq ravishda Evropaning EN - 29000 seriyalik standartlari tashkil etildi.

Mahsulot va xizmatlarni sertifikatsiyalashga ham katta e'tibor qaratildi.

Evropaning EN - 45000 seriyasiga muvofiq olib borilgan barcha ishlar Yuksak sifat darajasini kafolatlash bilan birga millionlab iste'molchilar xuquqlarini ximoyalashga qaratilgan edi.

Evropa bozorlarini halqaro standartlarga mos ravishda ishlashini to'la ta'minlash uchun mahsulot va xizmatlarni muntazam ravishda sertifikatsiyalash bilan birga, xodimlar malakasini oshirishga va texnika - texnologiya o'z vaqtida akkreditatsiyadan o'tkazilib bordi. Bulardan kelib chiqqan xolda ishlab chiqaruvchilar sifat uchun o'z siyosatlarini qattiq Yurita boshladilar va ulkan Yutuqlarga erishdilar.

Sifat Evropa davlatlari raqobatbardoshligini oshirish bilan birga quydagi uch

faktorni ko'ndalang qilib qo'ydi:

- Yagona iqtisodiy talab (direktivalik);
- Yagona standartlar;
- Yagona nazorat turlari (korxona mahsuloti xalqaro standartlar talabiga javob berishiga ishonch xosil qilish uchun).

1985 yilda standartlarni gormonizatsiyalash maqsadida xavfsizlik va ishonchlilik talabi taklif qilinadi. Evropa uYushmasi tomonidan asosan ISO 9000 va EN - 29000 seriyalik standartlarga asoslangan xolda faoliyat Yuritadilar. Evropa uYushmasi talablariga mos ravishda xozirgi kunda 16 ta davlat ish Yuritadi: BuYuk Britaniya, SHvetsariya, FRG, Avstriya, Daniya, SHvetsiya, Frantsiya, Ispaniya, Portugaliya, Gretsiya, Gollandiya, Finlyandiya, Norvegiya, Irlandiya va Italiya. UYushmaning asosiy maqsadikam sarf xarajat evaziga Yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarib, iste'molchilar talabini to'la qondirishdir.


UYushmaga a'zo bo'lishni xoxlovchi barcha davlatlarga bir xilda talab qo'yilgan. SHu munosabat bilan Evropa uYushmasiga a'zo bo'lishni xoxlovchilar eng avvalo zamonaviy texnika va texnologiyalarga e'tibor qaratmoqdalar. Bu erda kadrlar tayyorlash masalasi ham unutilmaydi.

Texnologiya va kadrlar tayyorlash masalalarini muvaffaqiyatli xal qilishda 1988 yil G'arbiy Evropadagi 14 ta yirik davlat birlashib "Sifatni boshqarish" fondini tashkil qidilar (EFUK).

Sifatni boshqarish fondi bilan sifat bo'yicha Evropaning boshqa uYushmalari xamkorligida ish Yuritishib sifatga oid turli mukofotlar ham belgilaganlar. Sifat bo'yicha bellashuvni Evropacha usuli o'zining ayrim jixatlari bilan boshqalardan ajralib turadi, ular:

- Barcha ishlarni qonun asosida olib borilishi;
- Sifatni kafolatlovchi va baxolovchi xujjatlar;
- Milliy standartlar talablari va sertifikatlashtirishning qonun va qoidalarini uyg'unlashtirish;
- Mahsulot sifatini boshqarish va sertifikatsiyalash bo'yicha regional tashkilotlar faoliyatini qattiq nazorat qilish.

Yuqorida aytilganlarga qaramay, uzoq sharq mamlakatlari YAponiya, Singapur, Gonkong, Tayvan', Janubiy Koreya kabi davlatlar 1950 yillarda juda qaloq bo'lganlar, ular, Evropa va AQSH dagi ishlab chiqarish darajasidan ancha past Yurar edilar.



#### 1.4.1. - chizma. Mahsulot sifat darajasini o'sishi.

Chizmadan shuni ko'ramizki 1970-1980 yillarda kelib urush oqibatida aziyat chekkan YAponiya sifat soxasida barcha rivojlangan mamlakatlarni orqada qoldirib ketdi. 1980 yillarda YAponiya ayrim mahsulotlar bo'yicha jaxonda shunday Yutuqlarga erishdiki, yalpi ishlab chiqarishni dunyo bo'yicha 84%, videomagnitafon 84%, soatning barcha turlari 82%, kal'kulyatorlar 77%, oshxonalar 71%, telefon apparatlari 66%, mototsikl 55%, rangli televizorlar 53 va boshqalar.

1991-1992 yillarga kelib YAponiyada iqtisodiy krizis boshlandi va bu savdo xajmini pasayishi bilan sifat darajasini kamayishiga ham sabab bo'ldi. Oqibatda YAponiya, AQSH va Evropa davlatlari ishlab chiqarish va sifat bo'yicha bir-birlariga tenglasha boshladilar. Bunday o'zgarishlarning asosiy sababi demokratik islohatlar va integrallashuv jarayonlarining rivojlanishi bilan bog'liqdir.

Aynan ana shunday integrallashuv natijasida butun dunyoda yagona sifat boshqaruvisiyosati vujudga keldi va uni "Vseobshego upravleniya kachestvom" (TQM), bu "Sifatni har tomonlama boshqaruvi" degan shiorni o'rtaga tashlash bilan boshlangan yangi yo'nalish edi. Aslida esa, mazmunan, mantiqan muloxaza

Yuritar ekanmiz ular bir-birovini inkor etmaydi, aksincha bir-birovini to'ldiradi degan xulosa kelib chiqadi.

Sifat o'zgarishlari miqdor o'zgarishlariga o'tishi iqtisodiy rivojlanishning negizi ekaniga yana bir bor amin bo'lamiz.

Integrallashuv jarayoni dunyo hamjamiyatini yaqinlashtirishiga qaramay AQSH, Evropa va Yaponiya mutaxassislari fikrini o'rganish quydagi jadvalda ularning sifat xaqida o'z nuqtaiy nazarlari bor ekanini ko'rsatadi.

### 1.5. Sifat darajasini aniqlash usullari.

Mahsulot sifat darajasini aniqlashda uning barcha ko'rsatkichlari xaqida to'liq ma'lumot bo'lishi va xususiyatlari taxlili bo'lishi shartdir.

AQSH va Evropa	Yaponiya
Sifat – narx pasayishiga asoslanadi.	Sifat – nuqsonlarning pasayishiga asoslanadi.
Asosiy maqsad – foyda, sifat va tasodifiy kategoriya.	Asosiy maqsad – sifat, foyda va bularni unutmaslik.
Iste'molchilar sifat bo'yicha ta'minotchilar bilan kelishuvlari lozim.	Sifat bo'yicha iste'molchilar bilan kelishuv lozim.
Sifat soxasida umumiyligida kelishuv.	Har bir tovar sifati bo'yicha qatiy siyosat Yuritish.

\*Okropilov V.V. "Upravlenie kachestvom" 1998 g. St. 87-99.

Jadvaldagagi fikrlar bir qarashda farq qilishi ham sezilib turibdi.

Mahsulot sifat darajasini aniqlash ma'lumotlarni qaysi yo'l bilan va qaysi manba'dan olinganligiga qarab ikki guruxga bo'linadi: axborotni olish usuliga ko'ra va axborot manbasiga ko'ra.

Axborot olish yo'llariga ko'ra quydagi usullarga bo'linadi:

Tajriba (o'lchash, ro'yxatga olish) usuli. Bu usul olinadigan ma'lumotlarni

ro'yxatga olish, o'lchash, xisoblash orqali taxlil qiladi. Masalan:ma'lum vaqt ichida necha marotaba buzuldi, aylandi, yo'l bosti, ta'mirlandi yoki yaroqlilik muddati to'g'ri aniqlandimi va boshqalar.

Xisoblash usuli. Mahsulotning nazariy jixatdan ma'lum bo'lgan barcha ko'rsatkichlariga taqqoslagan xolda xisoblash va tekshirish asosida xulosa chiqariladi. Bu usul asosan mahsulotni loyixa-konstrukturlik ishlari jarayonida bajarilib uning hayotiy jarayonlarini - kelajagini belgilaydi.

Loyixalash davrida xisob-kitob, taqqoslash va sinash ishlari o'ta mukammal bo'lishi lozim. Loyixa davrida qo'yilgan arzimas xato ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq etilsa korxonaga katta zarar keltiradi.

Organoleptik usullar. Bu usul amaliyotda eng qo'llanadigan usullardan bo'lib, asosan oziq-ovqat, porfYumeriya, turli ichimliklar va boshqa soxalarda qo'llanadi. Insonlar sezgi a'zolari ko'z, til, burun, quloq orqali aniqlanadi. Insonlar sezgi a'zolari orqali olingan ma'lumotlarni ishonchlik darajasini oshirishda texnik vositalardan ham foydalaniladi (mikroskop, tonometr, ovaskop va boshqalar). Bu usulni anq bo'lishiga mutaxassisning malakasi, tajribasi, ko'nikmalari va o'z soxasini ustasi bo'lishi qo'l keladi.

Axborotni olinish manba'siga ko'ra quydagи usullarga bo'linadi:

Odatiy (ananaviy) usul. Texnik manbalardan olingan axborotlarga suyangan xolda mahsulotni sinov tekshiruv natijalarini taxlil qilinadi. Bu usul ko'p jixatlari bilan eksperimental usul va jarayonlar bilan uzviyidir.

Ekspert usuli. Mutaxassiy – ekspertlar tomonidan qabul qilingan xulosalarga asoslanadi. Ekspertlpr guruxiga o'z ishini ustalari, Yuqori malakali yo'naliш bo'yicha katta tajribaga ega bo'lgan kishilar jalb qilinadi. Ekspert guruxini har bir a'zosi o'z fikrini bildiradi va uni asoslab beradi. Ekspertlar tomonidan bildirilgan fikrlar jamlanadi va mahsulot sifati xaqida umumlashgan yagona xulosa qabul qilinadi.

Sotsiologik usul. Bu usulda axborot manbayi bo'lib bevosita iste'molchilar yoki jamoatchilik fikri va muloxazalari bo'lishi mumkin. Bu usul o'z nomi bilan ko'rinish turubdiki, unda so'rovnomalar, anketalar va boshqalardan foydalanimishi

mumkin. Sotsiologik usul muxim tomoni shundaki, mahsulotning real ko'rsatkichlari bilan birga uning kamchiliklari va sifatni boshqarishda ko'l keluvchi turli o'zgarishlar ham kelitirib o'tiladi. Bu usul mahsulotning barcha hayotiy jabxalarid aqo'llanilishi mumkin.

Mahsulot sifat darajasini aniqlash. Mahsulot sifat darajasini ko'rsatkichlari asosan uch usulda: differential, kompleks va aralash usullarda aniqlanadi.

- *Differentsial usul* aniq xisob kitob, aloxida ko'rsatkichlarining asosiy, rejadagi va normativ xujjatlardan farqlanishi asosida xisoblab topiladi. Mahsulot sifatini nisbatan aniqlash formulasi quydagicha ifodalangan:

$$Q = \frac{K}{K_b}$$

Bunda: Q – mahsulot sifati darajasi;

K – mahsulot sifatining mutloq-absolYut ko'rsatgichi;

$K_b$  – mahsulot sifatining bazoviy absolYut ko'rsatkichi.

$Q=1$  ga teng bo'lganda mahsulot sifat darajasi o'zgarishsiz qolganini ko'rsatadi. Agarda  $Q>1$  va  $Q<1$ , ko'rinishida bo'lsa bu xolda sifat darajasida o'zgarish ro'y bergenini ko'ramiz. Mahsulot sifat darajasini aniqlashda bir necha ko'rsatkichlar xisobga olinadi, ularda bitasi asosiy ko'rsatkichdan past bo'lsa bunday mahsulot sifati standartga muvofiq emas deb topiladi.

Yana bir bir jixatni ko'rish mumkinki ayrim mahsulotlarni bir xususiyati asosiy ko'rsatkichdan Yuqori bo'lib, boshqasiga nisbatan past bo'lsa bunday xolda kompleks va aralash usullardan ham foydalilanadi.

Kompleks usulda mahsulotning barcha muxim ko'rsatkichlari umumlashtirib sifat darajasi aniqlanadi. Masalan, eng muxim ko'rsatkichlardan biri bo'lib – transport vositasi uchun tonna/km, yo'lovchi/km, ishlab chiqarish unumdorligida ishchi/soat va xakazolar.

Aralash usulda bir vaqtning o'zida sifatning ayrim va kompleks ko'rsatkichlari olinishi mumkin. Aralash usulda mahsulotning aloxida ko'rsatkichlari to'laligicha yoki qisman umumlashtirib olinishi mumkin. Bir vaqtning o'zida har ikkala usul ham qo'llanishi mumkin.

## *Xulosa*

*Mahsulot sifati darajasi, deb uning sifat ko'rsatkichlari majmuasining etalonniig asosiy ko'rsatkichlari majmuasi bilan qiyoslashiga asoslangan nisbiy tavsifi tushuniladi. Etalon sifatida mamtkat yoki xorij mahsulotining eng yaxshi namunalari xizmat qilishi mumkin. Tovar sifati ko'rsatkichlari qiymatlarini aniqlash uchun turli usullar qo'llaniladi: o'lchash usuli, qayd qilish usuli, xisob usuli, ekspert usuli, sotsiologik usul, organoleptik usul, statistik usul.*

## **II – BOB. STANDARTLASHTIRISH VA MAHSULOT SIFATI**

### **2.1. Standartlashtirishning ilmiy asoslari va tamoyillari**

**Standartlashtirish — mavjud yoki bo'lajak masalalarga nisbatan umuman va ko'p marta tatbiq etiladigan talablarni belgilash orqali ma'lum sohada eng maqbul darajada tartiblashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-texnikaviy faoliyatdir (ISO/IES).**

XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab umumjahon rivojlanishida standartlar, standartlashtirish masalalari, birinchi navbatda, mahsulot va xizmatlarni, aholining hayoti, sog'lig'i va mol-mulki, atrof-muhit uchun xavfsizligini ta'minlash, savdo-iqtisodiy va ilmiy texnikaviy hamkorlikda texnik to'siqqlarni bartaraf etish va eng muxim ichki va tashqi bozorga ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifatini hamda raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlashga qaratilgan samarali vositaga aylandi.

**Standartlarning Yuqori sifati — mahsulotning Yuqori sifatini belgilaydi.**

Standartlashtirishning jahon tajribasi va rivojlangan mamlakatlarda bu soxada qilinayotgan ishlar shuni ko'rsatadiki, Standartlarning Yuqori sifati va samaradorligini ta'minlash uchun ularni ishlab chiqarish bosqichida quyidagi majburiy tamoyillarni bajarish kerak:

**1. Tizimiylilik tamoyili.** Texnikaviy taraqqiyot va ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini oshirish ishlab chiqarish jarayonini ta'minlovchi odamlar mexnatini, mexnat vositalari qo'llanayotgan jixozlar, moslamalar, asboblar, nazorat vositalari va boshqalar majmuini va mexnat predmetlari ishlab chiqarilayotgan mahsulotni yaratish va undan foydalanishning barcha bosqichlarini o'z ichiga olgan ishlab chiqarishning ijtimoiy jarayoniga tizimiyl yondashishning ob'ektiv zaruratini talab qiladi.

Tizim deganda o'zaro bog'langan, qo'yilgan maqsadga maksimal samara va eng kam xarajatlar bilan erishishga olib keladigan elementlar majmui tushuniladi. Tizim elementlarining miqdoriy bog'lanishlari determinantlangan yoki tasodifyi

bo'lishi mumkin. Tizimga kirgan o'zaro bog'langan elementlar majmui ularni turli darajada ierarxik bog'lanishini ko'rish mumkin bo'lган tuzilmasini tashkil etadi.

**2. Majmuiylik va maqbul cheklash tamoyili.** Standartlarni ishlab chiqishda Standartlashtirishning oxirgi ob'ektiga ta'sir etuvchi barcha asosiy elementlar (omillar) hisobga olinishi shart. Standartlashtirish bo'yicha ishlarni kamaytirish uchun asosiy ob'ektga ta'siri oz elementlar xisobga olinmaydi. Standartlashtirish paytida tavsiflar tizimi va o'zaro bog'langan moddiy va nomoddiy elementlar majmuiga bo'lган talablar ko'rildi. Bunda elementlarga bo'lган talablar Standartlashtirishning asosiy ob'ektiga bo'lган talablardan kelib chiqib aniqlanadi. YUqori sifatli mahsulot olishga sharoitlar yaratish va ishlab chiqarish samarasini oshirish uchun mahsulotning barcha hayotiy tsikllarini — loyihalash, seriyali ishlab chiqarish va foydalanishlarni — qamrab oladigan ratsional Standartlar tizimi zarur.

**3. Standartlar taraqqiyparvarligi va maqbullashtirish tamoyili.** Standartlar orqali joriy qilingan ko'rsatkichlar, me'yorlar, tavsiflar va talablar ilm-fan, texnika va ishlab chiqarishning jahon darajasiga mos bo'lishi kerak. Ular Standartlashtirish ob'ektlarining rivojlanish tendentsiyalarini hisobga olishi lozim. Faqat mahsulotning yangi (oshirilgan) sifatini hisobga olmay, balki uni ishlab chiqarishga, material va foydalanishga bo'lган xarajatlarni hisobga olib iqtisodiy maqbul ko'rsatkichlarini joriy qilish kerak ya'ni iloji boricha kam xarajat qilib, maksimal iqisodiy samaraga erishish darkor. Bu maqsadga erishishga ilgarilab va majmuiy standartlashtirish ko'maklashadi.

**4. Standartlashtirilayotgan buYumlarni funktional o'zaro almashinuvchanligini ta'minlash tamoyili.** Foydalanish ko'rsatkichlari bo'yicha o'zaro almashinuvchanlikni ta'minlaydigan bu tamoyil majmuiy va ilgarilab standartlashtirish hamda buYumlar, ularning texnikaviy shartlari va boshqalarni standartlashtirishda asosiydir.

**5. Standartlarni o'zaro muvofiqlashtirish tamoyili.** Umumtexnik va tarmoqlararo standartlar turlari ko'pligida ularni o'zaro muvofiqlashtirish zarur. Standartlarning barcha turlariga taalluqlik bo'lган ko'rيلayotgan tamoyil

muximligi va samaraliligineng eng ishonchli misoli majmuyi Standartlashtirish usulidir. Standartlashtirish soxasidagi atama va ta’riflarning o’zaro muvofiqlashtirish ham katta ahamiyatga ega.

**6. Standartlar ishlab chiqarishning ilmiy-tadqiqiy tamoyili.** standartlar loyihibalarini tayyorlash va ularni muvaffaqiyatli tatbiq qilish uchun nafaqat amaliy tajribalarni keng umumlashtirish, balki maxsus nazariy, eksperimental va tajribaviy-konstrukturlik ishlarni o’tkazish zarur. Bu tamoyil standarlarning barcha turlariga taalluqli.

**7. Afzallik tamoyili.** Odatda detallar va namunaviy birikmalarning o’lcham va turlari, o’tkazmalar, joizliklar qatorlari va boshqa parametrlar bir vaqtin o’zida ishlab chiqarishning ko’p tarmoqlari uchun standartlashtiriladi, shuning uchun bunday standartlar parametrلarning katta ko’lamini qamrab oladi. O’zaro almashinuvchanlik darajasini oshirish, sanoatning turli sohalarida qo’llanadigan buYumlar, tayyorlamalar o’lcham va turlarini, o’lchamli kesuvchi asboblar, moslama va kalibrler nomenklaturasini kamaytirish hamda samarali ixtisoslashish va zavodlar kooperatsiyalashishi uchun sharoitlar yaratish, mahsulotni arzonlashtirish maqsadida bir xillashtirish (unifikatsiya)da afzallik tamoyili ko’llanadi. Bu tamoyilga binoan standartlashtirilayotgan parametrlar qiymatlarining bir necha (masalan, uchta) qatorlari joriy qilinadi, bunda birinchi qator ikkinchisiga nisbatan, ikkinchisi uchinchisiga nisbatan afzalroq ko’riladi. Bunday tamoyil bo’yicha metrik rezbaning diametrlari va qadamlari qatorlari, me’yoriy burchaklar qatorlari, silliq tsilindrik birikmalar joizlik va o’tkazmalar standartlari va boshqalar tuzilgan. Undan tashqari qo’llashga ruxsat beriladigan buYumlar parametrlari, turlari va o’lchamlarini zaruriy minimumga keltiradigan tarmoqga cheklovchi standartlarni yaratish tavsiya etiladi.

**8. Dinamiklik tamoyili.** Iqtisodiyot samaradorligini oshirish uchun standartlashtirish ob’ektlariga bo’lgan talablarni texnikaviy taraqqiyot talablariga muvofiq darajaga keltirish maqsadida davriy qayta ko’rib turish zarur.

*Xulosa*

*Standartlarning Yuqori sifati mahsulotning Yuqori sifatini belgilaydi. standartlashtirishda quyidagi tamoyillar qo'llanadi: tizimiylik tamoyili, majmuiylik va maqbul cheklash tamoyili, standartlar taraqqiyatligi va maqbullashtirish tamoyili, standartlashtirilayotgan buYumlarni funksional o'zaro almashinuvchanligini ta'minlash tamoyili, standartlarni o'zaro muvofiqlashtirish tamoyili, standartlar ishlab chiqarishning ilmiy-tadqiqiy tamoyili, afzallik tamoyili, dinamiklik tamoyili, materiallarning minimal solishtirma sarfi tamoyili.*

## **2.2. Standartlashtirishning mahsulot sifatini boshqarishdagi o'rni**

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab rivojlangan davlatlar tajribasiga asoslangan holda respublikada standartlashtirishning hozirgi zamон tizimini va uning qonuniy bazasini yaratilishiga jiddiy e'tibor berildi. Respublika Vazirlar Mahkamasining 1992 yil 2 martdagи 93-sonli "O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish bo'yicha ishlarni tashkil etish to'g'risida"gi qarori bilan O'zbekiston standartlashtirish davlat tizimining asosiy printsplari belgilab berildi. 1993 yil 28 dekabrda O'zbekiston Respublikasining "Standartlashtirish to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi va uning hayotga tadbiq etilishi mamlakatimiz tarixida muxim voqeа hisoblanadi.

Qonun, O'zbekiston Respublikasi hududida standartlashtirish masalalari bo'yicha davlat siyosatini amalga oshiruvchi yagona mexanizm va davlat boshqaruvi me'yorlarini o'rnatadi. Standartlashtirish masalalari bo'yicha manfaatdor tomonlarning davlat boshqaruvi idoralari, jamoat birlashmalari bilan olib boradigan hamkorlik ishining shakl va usullarini, umumiylashkiliy-texnikaviy qoidalarini, standartlar ustidan davlat nazoratini amalga oshirishni, davlat inspektorlarining xuquqlari va javobgarligini, standartlar majburiy talablari buzilgan taqdirda, Yuridik va jismoniy shaxslarning javobgarligini belgilaydi.

SHu davr mobaynida, ushbu qonunga ikkita o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Birinchi o'zgartirish 2000 yil 26 mayda 82-II son bilan, ikkinchi o'zgartirish 2003 yil 25 aprelda 482-II son bilan kiritildi. Qonunga binoan "O'zstandart" agentligi, standartlashtirish sohasida davlat siyosatini shakillantiradi

va amalga oshiradi, standartlar va texnik shartlar majburiy talablarini bajarilishi ustidan davlat nazoratini va tekshiruvini olib boradi, hududiy standartlashtirish bo'yicha olib boriladigan ishlarda faol qatnashadi, standartlashtirish sohasida kadrlarning professional tayyorgarligini va qayta tayyorlanishini tashkil qiladi, shuningdek O'zbekiston hududida standartlashtirish bo'yicha halqaro, davlatlararo standartlarni, qoidalarni, meyorlarni va tavsiyalarni qo'llash qoidalalarini ishlab chiqadi va o'rnatadi.

"O'zstandart" agentligi, standartlashtirish sohasi bo'yicha faoliyatini o'z qoshidagi standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ilmiy-tadqiqot instituti (SMSITI), standartlashtirish va metrologiya bo'yicha hududiy boshqarmalar, Axborot-ma'lumot markazi orqali amalga oshiradi. Agentlik qoshidagi Qoraqalpog'iston Respublikasi va respublikaning 12 ta viloyatlarida hamda Toshkent shaxrida joylashgan, jami 14 ta boshqarmalar faoliyat Yuritadi.

Standartlashtirish va metrologiya boshqarmalarida, standartlar va o'lchash vositalari ustidan nazorat olib boruvchi davlat inspektorlari faoliyat ko'rsatadilar. Nazorat olib borishdan tashqari, ular tomonidan me'yoriy hujjatlarning ekspertizasi o'tkaziladi va davlat ro'yxatiga olish bo'yicha tegishli ishlar bajariladi.

Respublika standartlashtirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib boruvchi va bu soha bo'yicha o'qitishning o'quv-metodik markazi bo'lib, SMSITI hisoblanadi.

"O'zstandart" agentligi tomonidan "Xalqaro tajriba asosida 2003-2010 yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish va sifatni boshqarish tizimini rivojlantirish va takomillashtirish Kontseptsiyasi va uni amalga oshirish bo'yicha Dastur" ishlab chiqilgan. Ushbu xujjat 2003 yilning 26 martida standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish ishlarini rivojlantirish bo'yicha Idoralararo Kengash tomonidan tasdiqlangan. Kontseptsianing asosiy maqsadi respublikamizda ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish hamda unin sifatini tubdan yaxshilashga imkon yaratadigan standartlashtirishning xalqaro tizimiga bosqichma-bosqich o'tishdir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 6 iYuldag'i 318-son "Mahsulotlarning sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2004 yil 22 iYuldag'i 349-son "Korxonalarda xalqaro standart talablariga javob beradigan sifatni boshqarish tizimini joriy etish bo'yicha tadbirlar to'g'risida" va 2004 yil 5 avgustdag'i 373-son "O'zbekiston davlat standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi tuzilmasini takomillashtirish va uning faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari standartlashtirish Dasturida hamohang bo'ladi.

Standartlashtirish mahsulot sifatini oshirishda yagona davlat tashkiliy-texnikaviy siyosatini o'tkazish imkonini beradi va mamlakat iqisodiyotini boshqarish va mahsulot hayotiy tsiklining barcha bosqichlarida sifatni boshqarish ilmiy-uslubiy birliliginini ta'minlaydi.

Tarmoqlararo darajada sifatni boshqarish hayotiy tsiklining barcha bosqichlari va boshqarish funksiyalari bo'yicha ishlab chiqiladigan davlat standartlari asosida amalga oshiriladi. Bu standartlarda mahsulot sifatini boshqarish bo'yicha xalq xo'jaligining barcha tarmoqlari faoliyatining umumiyligi me'yorlari keltiriladi: sifat bo'yicha atamalar, sifatni baxolash, sanoat mahsulotini attestatsiyalash, sifatni boshqarish majmuiy tizimlarini yaratish bo'yicha tavsiyalar va boshqalar.

Tarmoqda sifatni boshqarish davlat standartlari va texnikaviy shartlar hamda tarmoq xususiyatlarini hisobga olib, chegaralar joriy qilingan yoki davlat standartlari rivojlantirilgan tarmoqiy tavsiyalar va materiallar bo'yicha olib boriladi, bu tarmoqning korxona va tashkilotlari faoliyatidagi o'zaro bog'lanishni tashkil etishni yaxshilashga ko'maklashadi.

Birlashma yoki korxona darajasida standartlashtirish aniq ishlab chiqarishning xususiyatlarini: mahsulot turi, turkumlilik texnologik jarayonlarni o'ziga xos xususiyatlari va boshqalarni hisobga olishga qaratilgan. Korxona darajasidagi standartlashtirish sifatni boshqarishda tarmoq va tarmoqlararo darajalar o'rtasidagi zaruriy bog'lanishni ta'minlaydi

Mahsulot hayotiy tsiklining barcha bosqichlarida sifatni boshqarishni amalga oshirish uchun sifatni boshkarish tizimlarining tashkiliy, texnikaviy va uslubiy asoslari bo'ladigan standartlar va texnikaviy shartlar majmui zarur.

**Tadqiqot va loyixalash bosqichlarida** standartlashtirish yordamida quyidagi chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

- *mazkur mahsulot hamda xom ashyo, mataerial, yarim tayyor mahsulot va jamlovchi buYumlar, mamlakat va xorijiy fan-texnikasi Yutuqlarini, iste'molchi va ishlab chiqaruvchi manfaatlarini xisobga olgan holda sifat tavsiflarini majmuiy standartlashtirish asosida tayyor mahsulot sifatiga bo'lgan talablar joriy qilinadi;*
- *buYum vazifasi va foydalanish sharoitlariga qarab, mahsulot sifati ko'rsatkichlarining yagona tizimi aniqlanadi;*
- *mahsulotning maqbul sifatini ta'minlash va o'lcham, rusum hamda turlarining noratsional ko'pligini bartaraf qilish uchun me'yor, talab va loyixalash usullari joriy qilinadi;*
- *ishlab chiqarishni ixtisoslashtirish, ishlab chiqarish jarayonlarini majmuiy mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, ilmiy-texnikaviy taraqqiyotni tezlatish, mahsulotni ishlab chiqarish va undan foydalanish hamda ta'mirlash paytida ish unumini oshirishning asosiy sharti bo'ladigan unifikatsiya darajasini oshirish ta'minlanadi.*

Mahsulot sifatini boshqarishni tashkil etishni takomillashtirish va uning darajasini ko'tarishga sezilarli darajada tarmoqlararo standartlar tizimlarini tatbiq etish ko'maklashadi. Bunday tizimlar qatoriga konstruktorlik texnologik xujjatlarni tayyorlash yagona tartibini o'rnatadigan, namunaviy texnologik jarayonlar, standart jixozi va moslamalari hamda ko'p mexnat talab qiladigan texnologik jarayonlarni majmuiy mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni keng qo'llashni nazarda tutadigan Konstruktorlik xujjatlar yagona tizimi (KHYAT), Texnologik xujjatlar yagona tizimi (THYAT), Ishlab chiqarishni texnologik tayyorgarligi yagona tizimi (ITTYAT) kabi standartlar majmualari va boshqalar kiradi. Standartlashtirishni tatbiq etish texnologiyaning ishlab chiqish jarayonini yaxshilash va tezlashtirish, texnologik moslamalarni ishlab chiqarish, ishlab

chiqarishning texnikaviy va tashkiliy darajasini oshirish imkonini beradi, bu esa yangi buYumlarni o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan vaqt ni sezilarli darajada qisqartiradi va sifat barqarorligini ta'minlaydi.

**Mahsulotni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga qo'yish bosqichida**

Davlat standartlari Yuqori sifatli mahsulotning yangi turlarini ishlab chiqish jarayonlarini takomillashtirish asosida ishlab chiqish va o'zlashtirishni tezlashtirish, tajribaviy namunalarni ishlab chiqish va sinashni tashkil qilish, ishlab chiqarishni tayyorlash va seriyali mahsulot chiqarishni yo'lga qo'yish, fan va texnikaning eng yangi Yutuqlarini tatbiq etish asosida mahsulotni ishlab chiqarish texnologiyasini va konstruktsiyasi elementlarini ishslash bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini o'tkazish, mahsulot ishlab chiqaruvchi va buYurtmachi (iste'molchi) o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan.

Standartlashtirish tizimi yangi mahsulotga oid Yuqori sifatli loyixa-konstrukturlik xujjalalar ishlab chiqilishini, korxona sifatning berilgan ko'rsatkichlari bilan uni ishlab chiqarishga tayyorligini va uni o'z vaqtida ishlab chiqarishdan olib tashlanishini me'yорlaydi.

Korxona standartlari mahsulotni ishlab chiqarish bosqichida chiqarilayotgan mahsulot tavsifi va o'ziga xosligini, korxonalarning tashkiliy-texnikaviy darajasini, zavodning ichki ixtisoslashishini, muxandis va ishchilar tajribasini xisobga oladi, korxonalarda sifat bo'yicha ishlarni aniq va ma'suliyatli tashkil qilishning imkonini beradi. Ular mahsulot sifatini majmuiy boshqarishga doimiy faoliyat ko'rsatuvchi tizim tusini beradi, ilg'or tajriba asosida unga muntazam rivojlantirish imkoniyatini yaratadi. Loyixalash, ishlab chiqarish va foydalanish (iste'mol qilish) jarayonlarida mahsulot sifatini oshirishni rejalahtirish tartibi va usullarini belgilaydi, mahsulot sifatini nazorat qilish va baholash vositalari va usullariga bo'lgan talablarni joriy qiladi, mahsulotni attestatsiyalash tartibini aniqlaydi, etkazib beruvchilar va etkazib berilayotgan xom ashyo, material, jamlovchi buYumlar sifatini yaxshilash bo'yicha ishslash tartibini aniqlaydi. Ishlab chiqarishning bir tekisligini, texnologik intizomni saqlash, yangi mahsulotni ishlab chiquvchilar, xom ashyo, material va jamlovchi buYumlarni etkazib beruvchilar

hamda iste'molchilar bilan ishlashni yaxshilash, korxonaning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish yaroqsizlikdan talafotlarni kamaytirish, bajaruvchilar mexnati sifatini oshirish, minimal sarflar bilan sifatning Yuqori darajasini ta'minlash imkonini beradi.

**Aylanish va sotish bosqichida** standartlashtirish mahsulotni buYumdonlarga joylashtirish, konservalash, transportlash va omborga qo'yish, saqlash va sotish paytlarida talab, tartib va eng yaxshi sharoitlarni yaratishga qaratilgan, bu omborlarda, bazalarda, transport korxonalarida va savdo tashkilotlarida mahsulot sifatini saqlab qoladi.

**Iste'mol va foydalanish jarayonida** standartlashtirish mahsulotga xizmat qilish va uni ta'mirlashga (shu jumladan, kafolatli ta'mirlashga), foydalanishdagi mahsulot sifati haqida ma'lumotni yig'ish va taxlil qilishga qo'yiladigan yagona talablarni belgilaydi, bu xizmat qilish va ta'mirlashni tashkil etishni yaxshilaydi, foydalanishdagi xarajatlarni kamaytiradi va mahsulot unumini oshiradi.

Sanoat mahsulotini attestatsiyalashda standartlar tizimi ob'ektiv baholash uchun zarur bo'lgan sifat ko'rsatkichlarining zaruriy va etarli ro'yxatini, yagona tartibini belgilaydi. Bu attestatsiyani tashkil qilish hamda o'tkazishga sarflanadigan vaqt ni qisqartiradi va mahsulotni sifat toifalari bo'yicha baholashga xizmat qiladi. Standartlashtirish mahsulotni sertifikatlashtirishda muhim axamiyatga ega.

Mahsulot sifati muammosining echimi metrologik ta'minot darajasiga bog'liq. Ulchashlar birliligi va ishonchligini ta'minlash uchun mamlakatda rivojlangan etalon bazasi yaratilgan, o'lchashlar birligini ta'minlovchi standartlar tizimi ishlab chiqilgan. Standartlashtirish rivojlanishi zamonaviy bosqichining o'ziga xosligi — alohida standartlarni ishlab chiqishdan majmuuy standartlashtirish dasturlariga o'tishdir. Bu dasturlarni amalga oshirish tayyor mahsulot, jamlovchi buYumlar, xom ashyo, material, jihozlar va uskunalar hamda ishlab chiqarishni tayyorlash va tashkil qilish usullari, sinash, nazorat qilish, o'lchash, buYumdonga joylashtirish qoidalari, saqlash, transportlash, foydalanish va ta'mirlashga oid o'zaro bog'langan standartlari va texnikaviy shartlarini ishlab chiqish hamda qayta ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi.

Majmuuy standartlashtirish dasturlarini ishlab chiqish va tatbq etish butun faoliyatii oxirgi umumiqtisodiy natijalarga erishishga jalg qilish imkonini beradi.

Ilmiy-texnikaviy taraqqiyot sur'atlari tezlashishi bilan standartlarning samarali ta'sir qilish vaqtin mutlaq va nisbiy qisqarish tendentsiyasi paydo bo'lishiga olib keladi. Standartlashtirish tobora dinamik tavsifga ega bo'ladi, bu standartlarni ishlab chiqish, tatbiq etish va qayta ko'rib chiqish usullari va muddatlariga yangicha talablar qo'yadi. Standartlashtirish tizimi dinamikligi va tezkorligi masalasini echishga istiqbolli, ilgarilangan standartlar qaratilgan. Ular mamlakat korxonalari, eng yaxshi xorijiy firmalarning ilg'or tajribasini aks ettiradi va sanoati rivojlangan mamlakatlarning progressiv ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

**BuYumlar sifatini oshirish.** Standartlashtirish orqali ishlab chiqarilayotgan buYumlarning turlari va o'lchamlari boshqariladi. Turkumli va ommaviy ishlab chiqarish odatda katta samaraga ixtisoslashgan zavodlarda ishlab chiqarilgan detal, yig'ma birliklar va buYumlar qo'llanilishi tufayli erishiladi. Xozirgi kunda ixtisoslashtirilib chiqarilgan, standartlashtirilgan va unifikatsiyalangan agregat va element (blok)larning ulushi 10% ga yaqin. Agar bu ko'rsatkich 20% gacha etkazilsa, buYumlar tayyorlash tannarxi kamayishi natijasida iqtisodiy samarasini 2 baravar oshirish mumkin.

O'zaro almashinuvchanlik ham ishlab chiqarish tejamkorligini oshiradi, chunki u sezilarli darajada buYumlar YIG'ISHNI soddalashtiradi va u detallarni sozlashsiz (to'liq o'zaro almashinuvchanlikda) yoki minimal rostlash va tanlash ishlari bilan (noto'liq o'zaro almashinuvchanlikda) yig'ma birliklarda oddiy birlashtirishga aylanadi. Bunda buYumlardan foydalanish va ularni ta'mirlash osonlashadi, chunki eg'ilgan yoki ishdan chiqqan detallar yoxud yig'ma birliklar foydalanish ko'rsatkichlarni yomonlashtirmsandan almashtiriladi, ya'ni buYumlarning tiklanishi va ta'mirlashga yaroqliligi oshadi.

Ishlab chiqarish jaryonlarini majmuuy mexanizatsiyalash va avtomatlashtirish, avtomatik qatorlar, tsexlar va korxonalarini yaratish faqat hamma buYumlarni joriy qilingan o'lchamlar, shakllar va sifat bilan chiqarilishini

ta'minlovchi o'zaro almashinuvchi ishlab chiqarish asosida amalga oshirilishi mumkin.

### *Xulosa*

*Standartlashtirish mahsulot sifatini oshirishda yagona davlat tashkiliy-texnikaviy siyosatini o'tkazish imkonini beradi va mamlakat iqtisodiyotini hamda mahsulot hayotiy tsiklining barcha bosqichlarida sifatni boshqarishning ilmiy-uslubiy birligini ta'minlaydi. Korxona darajasidagi standartlashtirish sifatni boshqarishda tarmoq va tarmoqlararo darajalarning zaruriy bog'lanishini ta'minlaydi. Standartlashtirish tadqiq qilish va loyihalash bosqichida, mahsulotni ishlab chiqish va ishlab chiqarishga qo'yish bosqichida, aylanish va sotish bosqichida, iste'mol qilish va undan foydalanish bosqichlarida zarurdir. UbuYumlar sifati va ishlab chiqarish samarasini oshiradi.*

## **STANDARTLASHTIRISH TO'G'RISIDA O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI 28.12.1993 y.**

Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan

O'zR 26.05.2000 y. 82-II-son Qonuni,

O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni

I Bo'lim. Umumiy qoidalar

II Bo'lim. Standartlashtirishga doir normativ xujjatlar

III Bo'lim. Standartlar ustidan davlat nazorati

IV Bo'lim. Davlat yo'li bilan standartlashtirish va nazorat qilishga doir ishlarning moliyaviy ta'minoti. Standartlarni qo'llashni ragbatlantirish

### **I BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR**

1 - modda. Standartlashtirishning asosiy maqsadlari

2 - modda. Davlat standartlashtirish tizimi

3 - modda. Standartlashtirish ishlarini o'tkazish

4 - modda. Standartlashtirish to'grisidagi qonun xujjatlari

5 - modda. Xalqaro shartnomalar va bitimlar

### **1-modda. Standartlashtirishning asosiy maqsadlari**

Standartlashtirishning asosiy maqsadlari:

Mahsulotlar, jarayonlar, ishlar va xizmatlarning (bundan buyon matnda "mahsulot" deb Yuritiladi) aholining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga, atrof muhit uchun xavfsizligi, resurslarni tejash masalalarida iste'molchilar va davlat manfaatlarini himoya qilishdan;

Mahsulotlarning o'zaro almashinuvchanligini va bir-biriga mos kelishini ta'minlashdan;

Fan va texnika taraqqiyoti darajasiga, shuningdek aholining hamda xalq xo'jaligining ehtiyojlariga muvofiq holda mahsulot sifatini hamda raqobat qila olish imkonini oshirishdan;

Barcha turdagи resurslar tejalishiga ko'maklashishdan, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini yaxshilashdan;

Ijtimoiy-iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy dasturlar va loyihalarni amalga oshirishdan;

Tabiiy va texnogen falokatlar hamda boshqa favqulodda vaziyatlar Yuzaga kelish xavf-xatarini hisobga olgan holda xalq xo'jaligi ob'ektlarining xavfsizligini ta'minlashdan;

Iste'molchilarni ishlab chiqarilayotgan mahsulot nomenklaturasi hamda sifati to'g'risida to'liq va ishonchli axborot bilan ta'minlashdan;

Mudofaa qobiliyatini va safarbarlik tayyorligini ta'minlashdan;

O'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashdan iboratdir.

## **2-modda. Davlat standartlashtirish tizimi**

O'zbekiston Respublikasida standartlashtirish ishlarini o'tkazishning umumiylashkiliy-texnik qoidalarini tartibga solib turuvchi davlat standartlashtirish tizimi faoliyat ko'rsatadi.

Respublikada standartlashtirish ishlarini tashkil etish, muvofiqlashtirish va ta'minlashni:

Halq xo'jaligi tarmoqlarida - O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi); (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

Qurilish, qurilish industriyasi sohasida, shu jumladan loyihalash va konstruktsiyalashda - O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi ("Davarxitektqurilish" qo'mitasi); (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

Tabiiy resurslardan foydalanishni tartibga solish hamda atrof muhitni ifloslanishdan va boshqa zararli ta'sirlardan muhofaza qilish sohasida - O'zbekiston Respublikasi Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi (Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi);

Tibbiy maqsadlardagi mahsulotlar, tibbiy texnika ashyolari, dori-darmonlar sohasida hamda respublika sanoati ishlab chiqarayotgan, shuningdek import bo'yicha respublikaga etkazib berilayotgan mahsulotlarda inson uchun zararli moddalar miqdorini aniqlash masalalarida - O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi amalga oshiradi.

Ushbu Qonunga muvofiq davlat boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida standartlar va texnik shartlarni (bundan buyon matnda "standartlar" deb Yuritiladi), shuningdek ushbu Qonunni qo'llashga doir yo'riqnomalar va izohlarni ishlab chiqadilar, tasdiqlaydilar, nashr etadilar. (O'zR 26.05.2000 y. 82-II-son Qonuni taxriridagi qism)

### **3-modda. Standartlashtirish ishlarini o'tkazish**

"O'zstandart" agentligi ushbu Qonunga muvofiq standartlashtirish ishlarini o'tkazishning umumiy qoidalarini, manfaatdor tomonlarning davlat boshqaruv organlari, jamoat birlashmalari bilan olib boradigan hamkorlikdagi ishining shakl va usullarini belgilaydi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi qism)

"O'zstandart" agentligi, "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi va respublika Sog'liqni saqlash vazirligi o'z vakolatlari doirasida standartlashtirish ishlarini bajarishni boshqa tashkilotlarga topshirishga haqlidirlar. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi qism)

Standartlarni tasdiqlagan organlar standartlarga doir tarmoq axborot jamgarmalarini hosil qiladilar va Yuritadilar hamda manfaatdor iste'molchilarni xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar, O'zbekiston Respublikasi

standartlari, xorijiy mamlakatlarning milliy standartlariga doir axborotlar bilan, shuningdek standartlashtirish sohasidagi xalqaro shartnomalar, texnik-iqtisodiy hamda ijtimoiy axborot davlat klassifikatorlari, standartlashtirish qoidalari, normalari va tavsiyalariga oid axborotlar bilan ta'minlaydilar. (O'zR 26.05.2000 y. 82-II-son Qonuni taxriridagi qism)

Standartlarni nashr qilish va qayta nashr etishni ularni tasdiqlagan organlar amalga oshiradilar.

#### **4-modda. Standartlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari**

Standartlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida standartlashtirish sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

#### **5-modda. Xalqaro shartnomalar va bitimlar**

Basharti xalqaro shartnoma yoki bitimda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida ta'riflanganidan o'zgacha qoidalari belgilangan bo'lsa, u holda xalqaro shartnoma yoki bitim qoidalari qo'llaniladi.

### **II BO'LIM. STANDARTLASHTIRISHGA DOIR NORMATIV**

#### **XUJJATLAR**

6 - modda. Normativ xujjatlarning toifalari va ularga qo'yiladigan asosiy talablar

7 - modda. Standartlashtirishga doir normativ xujjatlarning sertifikatlashtirishda qo'llanishi.

#### **6-modda. Normativ hujjatlarning toifalari**

##### **va ularga qo'yiladigan asosiy talablar**

O'zbekiston Respublikasida standartlashtirishga doir quyidagi toifadagi normativ hujjatlar qo'llaniladi:

Halqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar;

O'zbekiston Respublikasining davlat standartlari; (O'zR 26.05.2000 y. 82-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

Tarmoq standartlari;

Texnik shartlar;

Korxona standartlari;

Xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari;

Ma'muriy-hududiy standartlar. (O'zR 26.05.2000 y. 82-II-sun Qonuni taxriridagi xat boshi)

Davlat yagona va uzlusiz ta'lim tizimida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadigan davlat ta'lim standartlari ishlab chiqiladi. (O'zR 26.05.2000 y. 82-II-sun Qonuni taxriridagi modda)

(O'zR 26.05.2000 y. 82-II-sun Qonuniga muvofiq ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, beshinchi, oltinchi, ettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi va o'ninch qismlarini uchinchi, to'rtinchi, beshinchi, oltinchi, ettinchi, sakkizinchi, to'qqizinchi, o'ninch va o'n birinchi qismlar deb xisoblansin)

Standartlashtirishga doir normativ hujjatlar jumlasiga, shuningdek standartlashtirish qoidalari, normalari, texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlari ham kiradi. Mazkur hujjatlarni ishlab chiqish va qo'llash tartibi "O'zstandart" tomonidan belgilanadi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-sun Qonuni taxriridagi qism)

Xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlar va xorijiy mamlakatlarning milliy standartlari, shuningdek xalqaro qoidalari va normalari O'zbekiston Respublikasi ishtirok etgan shartnoma yoki bitimlarga muvofiq qo'llaniladi. Ushbu standartlar, qoidalari va normalarni respublika hududida qo'llash tartibini "O'zstandart" va davlat boshqaruvining boshqa organlari o'z vakolatlari doirasida belgilaydilar. Ular xalqaro savdo-sotiq uchun ortiqcha to'sqinliklarni vujudga keltirmasligi lozim. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-sun Qonuni taxriridagi qism)

Standartlashtirishga doir normativ hujjatlar vatanimiz hamda chet el fan va texnikasining zamonaviy Yutuqlariga asoslangan va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiq bo'lishi lozim. Ular xalqaro savdo-sotiq uchun ortiqcha to'sqinliklarni vujudga keltirmasligi lozim. (O'zR 26.05.2000 y. 82-II-sun Qonuni taxriridagi jumla)

Normativ hujjatlarsiz mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasining manfaatlari himoya qilinishini va ishlab chiqarilayotgan mahsulotning raqobat qila olish imkonini ta'minlash uchun asosli hollarda standartlarda istiqbolga mo'ljallangan, an'anaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan ildamlashgan dastlabki talablar belgilab qo'yiladi.

Iste'molchilarga realizatsiya qilinadigan mahsulotga doir standartlar va ularga kiritilgan o'zgartishlar "O'zstandart" organlarida haq olmasdan davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim. "O'zstandart" organlarida ro'yxatdan o'tgan standartlashtirishga doir normativ hujjatlar davlat axborot jamgarmasini tashkil etadi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi qism), (Oldingi taxririga qarang)

Mahsulotning atrof-muhit, aholining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga xavfsizligini ta'minlash uchun, texnikaviy va axborot jihatdan mahsulotning bir-biriga mos kelishi va o'zaro almashinuvchanligini, ularni nazorat qilish usullari birligi va tamg'alash birligini ta'minlash uchun standartlarda belgilanadigan talablar, shuningdek O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari bilan belgilanadigan boshqa talablar davlat boshqaruvi organlari, xo'jalik faoliyati sub'ektlari rioya etish uchun majburiydir.

Standartlarda mahsulotni yaratish, ishlab chiqarish va etkazib berish shartnomasiga kiritilgan, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan o'zga talablar ham belgilab qo'yilishi mumkin.

Import mahsulot, basharti u O'zbekiston Respublikasida amal qilayotgan standartlarning majburiy talablar qismiga muvofiqligi tasdiqlanmagan bo'lsa, etkazib berilishi va belgilangan maqsadda ishlatalishi mumkin emas.

## **7-modda. Standartlashtirishga doir normativ hujjatlarning sertifikatlashtirishda qo'llanilishi**

Amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq majburiy sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulotni standartlashtirishga doir normativ hujjatlar sertifikatlashtirishni amalga oshirishda rioya etiladigan talablarni, shuningdek ushbu talablarga muvofiqlikni nazorat qilish va sinash usullarini o'z ichiga olishi lozim.

Ko'rsatib o'tilgan hujjatlar mahsulotning mazkur turini sertifikatlashtirish tizimida belgilangan qoida va tartiblarga muvofiq qo'llanilishi lozim.

### **III BO'LIM. STANDARTLAR USTIDAN DAVLAT NAZORATI**

8 - modda. Davlat nazorati organlari va ob'ektlari

9 - modda. Davlat inspektorlari, ularning xuquqlari va javobgarligi

10 - modda. Standartlashtirish to'grisidagi qonun xujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik

#### **8-modda. Davlat nazorati organlari va ob'ektlari**

Xo'jalik faoliyati sub'ektlari standartlarning majburiy talablariga, standartlashtirishga taalluqli boshqa qonun hujjatlariga rioya etishi ustidan davlat nazoratini "O'zdavstandart" agentligi, "Davarxitektqurilish" qo'mitasi, Davlat tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi va ularning hududiy organlari, shuningdek boshqa maxsus vakil qilingan davlat boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradilar. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi qism)

Idoraviy bo'ysunuvi va mulk shaklidan qat'i nazar xo'jalik faoliyati sub'ektlarining, shuningdek tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarning mahsuloti, shu jumladan sertifikatlashtirilgan mahsulot (ishlab chiqish, tayyorlash, saqlash, tashish, foydalanish, ta'mirlash va chiqindini foydali suratda ishlatish bosqichlarida) davlat nazorati ob'ekti hisoblanadi.

Xo'jalik faoliyati sub'ektlari davlat nazoratini amalga oshirish uchun barcha zarur sharoitni yaratishlari shart.

Standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini:

Standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarniga yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bosh davlat inspektori; (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi), (Oldingi taxririga qarang)

Standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat inspektorlari; (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi),

Standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona

birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha davlat inspektorlari amalga oshiradilar. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi), (Oldingi taxririga qarang)

### **9-modda. Davlat inspektorlari, ularning huquqlari va javobgarligi**

Standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradigan davlat inspektorlari davlat boshqaruv organlarining vakillari hisoblanadilar.

Davlat inspektori:

Xo'jalik faoliyati sub'ektining xizmat va ishlab chiqarish binolariga moneliksiz kirish;

Xo'jalik faoliyati sub'ektidan davlat nazoratini o'tkazish uchun kerakli hujjatlar va ma'lumotlarni olish;

Davlat nazoratini o'tkazishda xo'jalik faoliyati sub'ektining texnika vositalaridan foydalanish va mutaxassislarini jalb etish;

Standartlashtirish bo'yicha amaldagi normativ hujjatlarga muvofiq standartlarning majburiy talablariga muvofiqligini tekshirish uchun mahsulotlarning namunalari hamda nusxalarini tanlab olishni o'tkazish, bunda ishlatib Yuborilgan nusxalarning qiymati va sinovlarni (tahlillarni, o'lchovlarni) o'tkazish xarajatlari tekshirilayotgan xo'jalik faoliyati sub'ektlarining ishlab chiqarish chiqimlariga kiritiladi;

Mahsulotni yaratish, ishlab chiqarishga tayyorlash, tayyorlash, realizatsiya qilish (etkazib berish, sotish), undan foydalanish (uni ishlatish), mahsulotni saqlash, tashish va chiqindini foydali suratda ishlatish bosqichlarida, standartlar majburiy talablarining aniqlangan buzilishlarini bartaraf etish to'g'risida ko'rsatmalar berish;

Xo'jalik faoliyati sub'ekti tekshiruvdan bo'yin tovlagan taqdirda mahsulotni realizatsiya qilishni man etish huquqiga ega.

Standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi bosh davlat inspektori, standartlarni tekshirish va nazorat qilish hamda o'lchovlarning yagona

birlikda bo'lishini ta'minlash bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar bosh davlat inspektorlari bundan tashqari: (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi), (Oldingi taxririga qarang)

Standartlarning majburiy talablari buzilganligi uchun xo'jalik faoliyati sub'ektlariga nisbatan jarimalar qo'llash to'g'risida qarorlar qabul qilish;

Standartlar buzilishida aybdor bo'lgan xo'jalik faoliyati sub'ektlarining mansabdor shaxslarini ma'muriy javobgarlikka tortish;

Tekshirilgan mahsulotni u standartlarning majburiy talablariga nomuvofiq bo'lgan hollarda realizatsiya qilishni (etkazib berishni, sotishni), undan foydalanishni (uni ishlatishni) taqiqlash yoki to'xtatib qo'yish to'g'risida ko'rsatmalar berish; (O'zR 26.05.2000 y. 82-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

Tekshirilgan mahsulot standartlarning majburiy talablariga nomuvofiq bo'lgan hollarda uni ishlab chiqarishni taqiqlash yoki uni realizatsiya qilishni (etkazib berishni, sotishni), undan foydalanishni (uni ishlatishni) to'xtatib qo'yish to'g'risida ko'rsatmalar berish.

Davlat inspektorlarining mahsulotni realizatsiya qilishni (etkazib berishni, sotishni) man etish yoki to'xtatib qo'yish to'g'risidagi ko'rsatmasini buzganlik uchun xo'jalik faoliyati sub'ektlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jarima to'laydilar.

Xo'jalik faoliyati sub'ektlari berilgan ko'rsatmalar va qarorlarni bajarmagan taqdirlarida davlat inspektorlari zarur materiallarni prokuratura organlariga yoki sudga oshiradilar.

Davlat inspektorlari zimmalariga Yuklangan majburiylarni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan, davlat yoki tijorat sirini oshkor qilgan taqdirlarida qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlikka tortiladilar.

## **10-modda. Standartlashtirish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

Ushbu Qonun qoidalari buzilishida aybdor bo'lgan Yuridik va jismoniy shaxslar, shuningdek davlat boshqaruv organlarining mansabdor shaxslari amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq javobgarlikka tortiladilar.

## **IV BO'LIM. DAVLAT YO'LI BILAN STANDARTLASHTIRISH VA NAZORAT QILISHGA DOIR ISHLARNING MOLIYAVIY TA'MINOTI. STANDARTLARNI QO'LLASHNI RAG'BATLANTIRISH**

11 - modda. Davlat yo'li bilan standartlashtirish va nazorat qilishga doir ishlarning moliyaviy ta'minoti

12 - modda. Standartlar qo'llanilishini ragbatlantirish

### **11-modda. Davlat yo'li bilan standartlashtirish va nazorat qilishga doir ishlarning moliyaviy ta'minoti**

Cstandartlashtirish va nazorat qilishga doir ishlar, xususan:

Xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlarni, standartlashtirish qoidalari, normalari va tavsiyalarini ishlab chiqish yoki ishlab chiqishda ishtirok etish;

Aniq standartlashtirish ob'ektlari bo'yicha qonun hujjatlarini ishlab chiqish, shuningdek standartlarning tarkibiy tashkiliy-texnik va umumtexnik majmuilarini ishlab chiqish va ularning amal qilishini ta'minlash;

Texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlarini ishlab chiqish, ular to'g'risida rasmiy axborot tayyorlash va nashr etish, shuningdek ularni barcha manfaatdor foydalanuvchilarga Yuborish;

Standartlashtirish bo'yicha umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot va o'zga ishlarni olib borish;

Standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini olib borish;

Standartlar fondini, texnik-iqtisodiy axborotlar klassifikatorlarini, xalqaro (davlatlararo, mintaqaviy) standartlarni, standartlashtirish qoidalari, normalari va tavsiyalarini, xorijiy mamlakatlarning milliy standartlarini, shuningdek standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamg'alangan mahsulot va xizmatlar Davlat reestrini shakllantirish hamda Yuritish;

Standartlashtirish sohasida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi aniqlaydigan o'zga ishlar davlat yo'li bilan moliyaviy ta'minlanishi shart.

Nashr qilingan (qayta nashr etilgan) standartlarni, texnik-iqtisodiy axborot klassifikatorlarini, mahsulot va xizmatlar Davlat reestriga kiritilgan, standartlarga

muvofiqlik belgisi bilan tamg’alangan mahsulot va xizmatlarning nashr qilingan (qayta nashr etilgan) katalogini sotishdan belgilangan tartibda olinadigan mablag’lar, shuningdek ushbu Qonun qoidalarini buzganlik uchun undiriladigan jarima mablag’larining O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan tartibda davlat nazorati organlariga yo’llanadigan qismi ham standartlashtirish, standartlarning majburiy talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratiga doir ishlarni moliyaviy ta’minlash manbalari bo’lishi mumkin.

Respublika b Yudjeti mablag’laridan to’liq yoki qisman ta’minlanadigan davlat dasturlarini ishlab chiqishda mahsulot sifatini normativ jihatdan ta’minlash bo’limlari nazarda tutilishi lozim.

## **12-modda. Standartlar qo’llanilishini rag’batlantirish**

Davlat standartlarga, shu jumladan istiqbolga mo’ljallangan, an’anaviy texnologiyalarning imkoniyatlaridan ildamlashgan dastlabki talablarni o’z ichiga olgan standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamg’alangan mahsulotni ishlab chiqaradigan xo’jalik faoliyati sub’ektlari iqtisodiy qo’llab-quvvatlanishi va rag’batlantirilishini kafolatlaydi.

Mahsulot ishlab chiqarishni amalga oshirayotgan va mahsulotlarni standartlarga muvofiqlik belgisi bilan tamg’alash huquqini olgan xo’jalik faoliyati sub’ektlarini iqtisodiy qo’llab-quvvatlash va rag’batlantirish chora-tadbirlari O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

### **2.3. Xalqaro standartlar (I.S.O. – 9000 : 2000)**

I.S.O. (inglizcha – I.S.O. – International Organization for Standardization) – Xalqaro standartlashtirish tashkiloti. Uning tarixi 1906 yilga borib taqaladi, shu yili xalqaro (IEC – International Electrotechnical Commission) elektrotexnik komissiya tashkil topgan. So’ngra 1926 yildan 1942 yilgacha ko’proq tarmoqlarni o’z nazoratiga olgan xalqaro standartlashtirish assotsiatsiyasi tashkil qilingan (International Federation of National Standardizing Associations - ISA). 1946 yil London shaxrida sanoati rivojlangan 25 ta davlatdan kelgan delegatlar ishtrokida, sanoat standartlarini takomillashtirish va unifikatsiyalash masalalari muxokama

qilinadi va tashkilot ISO nomini oladi (Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot). Tashkilot 23 fevral 1947 yilda o'z faoliyatini boshlaydi.

Xozirgi kunda xalqaro standartlashtirish tashkiloti 140 dan ortiq davlatlarni o'z qatoriga qo'shgan, uning shtab kvartirasi SHveytsariyaning Jeneva shaxrida joylashgan. ISO tashkilotiga har bir davlatdan bittadan mutaxassis a'zo bo'lib kirishi mumkin.

Xalqaro ISO standartlari tarkibida 5 ta asosiy standartlari versiyasi mavjud:

- I. ISO – 9000 : 2000 “Sifat menejmenti sistemasi” – bunda sifat menejmentining umumiy printsplari, ISO – 9000 seriyasiga kiruvchi asosiy qoidalarni va tarmoqning o'ziga xos belgilari, atamalarini aniqlaydi.
- II. ISO – 9001 : 2000 “Sifat menejmenti sistemasi talablari” sifat menejmenti sistemasi talablarini belgilaydi, xujjatlashtiradi, ishlab chiqaradi. Ushbu standart sifat menejment sistemasi maqsadlarni, oddiy va sertifikatlash tamoyillarini ishlab chiqadi.
- III. ISO 9004 : 2000 “Sifat menejmenti sistemasi. Faoliyatni yaxshilashga qaratilgan”dir. U metodik ko'rsatmalar va faoliyatni yaxshilovchi asosiy tamoyillarni ishlab chifadi. Bu standartda tavsiya etilgan talablar ISO – 9001 : 2000 nisbatan ancha takomillashgandir. Unda korxona va tashkilotlar faoliyatini “Sifat menejmenti” asosida yanada takomillashtirishga qaratilgan aniq ishlanmalar keltirilgan. YUqoridagi standart sertifikatashtirishga va normativ xujjatlarni ishlab chiqishga, texnik reglamentlarni va turli kontraktlar tuzishga qaratilmagan.
- IV. ISO 19011 : 2000 sifat menejmenti sistemasi bo'yicha audit ko'rsatmalari yoki “Ekologik menejment” sistemasiga oid normativ tavsiyalar, audit bo'yicha ishlanmalar, auditni olib borishda kafolatli xizmat ko'rsatishga qaratilgan.
- V. ISO – 10012 : 2000 “O'lchov – metrologiya menejmenti tizimi”. O'lchov jarayonlari va o'lchov asbob

uskunalariga bo'lgan talablarni boshqarish va ularni takomillashtirishga qaratilgan.

Masalan, Rossiya Federatsiyasi standartlariga muvofiq ISO 9000 : 2001 sifat menejmenti sistemasida asosiy shartlar va lug'atdir.

Respublikamizda Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 22.02 dagi 83 - sonli qarorida sifatni boshqarishda xalqaro standartlarni joriy etish tadbirlari ishlab chiqilgan. Qarorda ko'zda tutilgan asosiy masala tovar va xizmatlarni raqobatbardoshligini, ichki va tashqi bozorni xalqaro standart talablariga javob beradigan tavarlar bilan ta'minlashga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi xududlarida faoliyat Yurituvchi 200 dan ortiq korxona va tashkilotlar maxsulotlari 2004 – 2006 yillar ichida ISO – standartlari talablariga javob berishini ta'minlash masalasi qo'yilgan bo'lib, 2007 yilda ularning 140 tasi ISO standartlari asosida maxsulot ishlab chiqara boshladilar.

Vazirlar Mahkamasining 2006 yil 29.08 183 – sonli qarorida Yurtimizda faoliyat Yurituvchi 100 dan ortiq korxona va tashkilotlarda “Sifat menejmenti” tizimini joriy etish rejalashtirilgan bo'lib, ular xozirda amalga oshirilgan (2009).

“Sifat menejmenti” tizimi joriy etilayotgan soxalar ichida eng ustivor yo'naliш xisoblangan “Oziq-ovqat tovarlari xavsizligini ta'minlash” bo'yicha ISO – 22000 : 2005 seriyasi, O'zDST, ISO – 9004:2002 – “Sifat menejmenti” asosida faoliyatni takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalar majmuidan iboratdir.

Tovar va xizmatlar raqobatbardoshligini, mahsulotni xalqaro bozorda o'z o'rnini topishi uchun “O'z davstandart” agentligi qoshida mustaqil faoliyat Yurituvchi “Sifat menejmenti” tizimini joriy etish bo'limi tashkil etilgan bo'lib, u o'zini ijobiy natijalarini bermoqda.

## **2.4. Mahsulotni sertifikatlashtirish**

### **Asosiy tushunchalar**

**Sertifikatlashtirish — mahsulotning ma'lum talablar, aniq standartlar yoki texnikaviy shartlarga mosligini xujyatli tasdig'идir.**

Mahsulotni sertifikatlashtirish mahsulot ma'lum standartlar yoki boshqa me'yoriy-texnikaviy xujjatlarga mosligini sertifikat orqali tasdiqlash maqsadida o'tkaziladigan chora-tadbirlar (xarakatlar) majmuasidir.

"Sertifikatlashtirish" tushunchasining ta'rifi standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot (ISO — Internationale Standart Organizatione) Kengashining maxsus qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan.

Sertifikatlashtirish (muvoqqliknii sertifikatlashtirish) mahsulotni, texnologik jarayon yoki xizmatlarni sertifikatlashtirishda uchinchiligi tomon qatnashishini nazarda tutadigan umumiyligi atamadir (birinchi tomon — ishlab chiqaruvchi, ikkinchi tomon — iste'molchi).

ISO tomonidan muvofiklikning uch turi joriy qilingan:

- *muvoqqlik haqida bayonot;*
- *muvoqqliknii attestatsiyalash;*
- *muvoqqliknii sertifikatlashtirish.*

**Muvofiqlik to'g'risida bayonot** — bu etkazib beruvchi (ishlab chiqaruvchi)ning sertifikatlashtirish tizimidan tashqari o'z zimmasiga to'la javobgarlikni olib, mahsulot, texnologik jarayon yoki xizmat ma'lum sertifikat yoxud boshqa me'yoriy-texnikaviy xujjatga mosligi haqida bayonotdir. Bu atama o'z-o'zini sertifikatlashtirish atamasi o'rnini bosadi.

**O'z-o'zini sertifikatlashtirish** g'oyasi qadimdan ma'lum, masalan, ishlab chiqaruvchi tomonidan mahsulotni tamralash tovar Yuqri sifatining tasdig'i bo'lgan. Lekin muvofiqlik xaqida bayonot etkazib beruvchi (ishlab chiqaruvchi)ning xech qanday Yuridiq ma'muriy yoki iqtisodiy javobgarligini nazarda tutmaydi. Faqat ayrim mamlakatlarning qonunchiligi mahsulot etkazib beruvchilar ular chiqaradigan mahsulot xaqida ishonchli ma'lumot berishini majbur qiladigan qoidalarni nazarda tutadi.

**Muvofiqlikni attestatsiyalash** — bu uchinchi tomon sinov laboratoriysi mahsulotning ma'lum namunasi ma'lum standartlar yoki boshqa me'yoriy-texnikaviy xujjat talablariga muvofiqligi xaqida bayonotdir. Bu xolda turkumli chiqarilayotgan mahsulot sifati baxolanmaydi. Gap sinov uchun taqdim etilgan

mahsulot namunasi muvofiqligi xaqida ketmoqda. Bu sinovlar sertifikatlashtirish tizimi doirasidan tashqari amalga oshiriladi.

**Muvofiqlikni sertifikatlashtirish** — bu uchinchi tomonning adekvat (to'la muvofiqlik) ishonchlilik darajasi bilan mahsulot, texnologik jarayon yoki xizmat standartning ma'lum talablariga yoki boshqa me'yoriy-texnikaviy xujjatga muvofiqligining kafolatidir.

SHunday qilib, muvofiqlikni sertifikatlashtirish uchinchi tomondan kafolatlanadi va faqat tashkiliy tizim doirasida joriy qilingan qoidalarga binoan amalga oshirilsa, tan olinadi. Bunda uchinchi tomon seriyali chiqarilayotgan mahsulotning standart talablariga mutloq muvofiqliligini emas, balki ishonchlilikning adekvat darajasi bilan muvofiqliligini kafolatlaydi. Mazkur ishonchlilik darajasi mahsulot sifati joriy qilingan talablarga muvofiqliligini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar xajmiga qarab har xil bo'lishi mumkin. Ishonchlilik darajasi qanchalik Yuqori bo'lsa, mahsulot sifatini ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar xajmi shunchalik katta, demak tannarxi ham shunchalik Yuqori bo'ladi. Lekin mahsulot sifati standartlar talablariga muvofiqliligi darajasi ishonchliligi qanchalik kam bo'lsa, undan foydalanishda qilinadigan xarajatlar shunchalik kattadir. SHak-shubxasiz mahsulot sifati va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan jamg'arma xarajatlarning minimal miqdori mahsulot standartlar talablariga muvofiqliligi ishonchlilik darajasi talab qilgan maqbul miqdorni aniqlaydi.

Muvofiqlikni sertifikatlashtirish o'z qoida va protseduralariga ega sertifikatlashtirish tizimi doirasida o'tkaziladi. Tizim doirasida sertifikatlashtirish yagona kridalar bo'yicha o'tkazilishi kerak. Sertifikatlashtirish tizimlari uch satrda yaratilishi mumkin: milliy, mintaqaviy va xalqaro.

**Serifikatlashtirish shakli** degan tushuncha mavjud, u bir standartlar va qoidalardan tarqalgan aniq mahsulot, texnologik jarayon yoki xizmatga taallukli sertifikatlashtirish tizimidir.

**Mahsulot sifatining standart talablariga muvofiqligi — muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisi bilan tasdiqlanadi.**

*Muvofiqlik sertifikati* — bu sertifikatlashtirish tizimi qoidalariiga binoan berilgan va mazkur mahsulot, texnologik jarayon yoki xizmat ma'lum standart yoki boshqa xujjatlar bilan muvofiqligini tasdiqlaydigan xujjatdir.

*Muvofiqlik (sertifikatlashtirish) belgisi* — bu qonun tomonidan himoya qilinadigan, sertifikatlashtirish tizimida qabul qilingan qonun-qoidalarga muvofiq qo'llanadigan va mazkur mahsulot, texnologik jarayon yoki xizmat ma'lum sertifikat yoxud boshqa xujjatlar bilan muvofiqligini ko'rsatadigan belgidir.

Muvofiqik sertifikati va belgisi shakli ham, mazmuni bo'yicha ham sertifikatlashtirish tizimi tomonidan joriy qilingan talablarga javob berishi kerak. Ular amaldagi tartibga binoan beriladi yoki qo'yiladi.

Aytib o'tish kerakki, sertifikatlashtirish iste'molchiga faqat mahsulot standartlar talablariga to'la muvofiq ishlab chiqarilganligini kafolatlaydi. Lekin u mahsulotning jahon miqyosida erishilgan Yuqori texnikaviy darajaga mosligini kafolatlamaydi.

**Sertifikatlashtirish organlari.** Sertifikatlashtirish tizimi murakkabligiga binoan uchinchi tomonning turli organlari mavjudligi nazarda tutiladi, SHuningdek 1-tizimda faqat taqdim etilgan namunalarning namunaviy sinovlari o'tkazilganda bitta sertifikatsiyalash organi bo'lishi etarli. SHu vaqt ni o'zida, 5-tizimda sertifikatsiyalash organdan tashqari tizimda nazorat va standartlashtirish organlarining ishtiroki zarur. 2.4.1- chizmada ko'rsatilgan.

Sertifikatsiya organi tizim va uning faoliyatini boshqaradi. O'z faoliyatida u:

- *mamlakatning amaldagi qonunchiligi va aniq mahsulot sifati nazoratini tashkil qilish bo'yicha me'yoriy aktlarga;*
- *mahsulot iste'molchilarini va savdo tomonidan qo'yilgan talablar doirasida standartlarga rioya qilish bo'yicha majburiyatlarga amal qiladi.*


Mazkur organ namunaviy sinovlarni o'tkazish, korxona va savdo doirasidagi mahsulot sifatini nazorat qilish, nazoratni tashkil etish va boshqa barcha uchinchi tomon ishlarini bajaradi. Sinovlar o'z laboratoriylarida, agar ular bo'lmasa, aloxida vazifalarni bajarishga ixtisoslashgan milliy organ va tashkilotlar laboratoriylarida bajariladi.


Sertifikatsiya organining asosiy vazifalari:

- *qabul qilingan tizim doirasida sertifikatlashtirish tartibini ishlab chiqish;*
- *sertifikatsiya sinovlarini o'tkazish uchun sinov laboratoriylarini attestatsiyalash;*
- *ishlab chiqaruvchi korxonalardagi sifatni ta'minlash tizimlarshsh baholash;*
- *korxonalarini sertifikatsiya tizimlariga qo'yish xaqida qabul qilish;*
- *muvofiqlik sertifikatlarini yoki mahsulotning muvofiqligi haqida tamg'a qo'yish huquqini berish;*
- *sertifikatsiya mahsulot ro'yxatini olib borish;*
- *sertifikaiya mahsulot sifati xaqida da'volashuvlarni ko'rish.*

Uchinchi tomondan sertifikatlashtirish tizimlari:

- ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyalari qoshida;
- asosiy iste'molchi yoki iste'molchilar guruhlari qoshida;
- standartlashtirish bo'yicha milliy tashkilotlar tomonidan;
- Yuqori xalqaro obro'ga ega va tan olingan xususiy tashkilotlar tomonidan;
- do'konlarning ko'p tarmoqlariga ega katta savdo tashkilotlar qoshida yaratilishi mumkin.





#### 2.4.1-chizma. Uchinchi tomon sertifikatlashtirish tizimining tashkiliy tuzilmasi.

Sertifikatlashtirish tizimining muhim tarkibiy elementi korxonalardagi sifatni ta'minlovchi tizimlar faoliyatini tekshiradigan nazorat organidir. Undan tashqari, u sertifikatsiyalash organining laboratoriyalarda sinovlar tashkil qilinishini davriy nazorat qilishi mumkin.

Uchinchi tomondan sertifikatlashtirish tizimiga standartlashtirish bo'yicha milliy organ va metrologik xizmat kiradi. Birinchi organ zarur standartlar ishlab chiqlishini ta'minlaydi, ikkinchisi esa amaldagi qonunchilikka binoan korxon va sinov laboratoriyalarda o'lchash vositalarini tekshiradi.

Aytib o'tish kerakki, xalqaro sertifikatlashtirish yagona xalqaro standartlarga rioya qilishni nazarda tutadi. Agar korxona o'z mahsulotini boshqa standartlar bo'yicha chiqarsa, u mazkur sertifikatlashtirish tizimidan tashqarida qoladi uning mahsuloti esa raqobatbardosh bo'lmaydi.

#### Xulosa

*Sertifikatlashtirish — mahsulot ma'lum talablar, aniq standartlar yoki texnikaviy shartlarga mosligini hujjatli tasdiqidir. Muvofiqlikning uch turi joriy qilingan:*

- *muvofiqlik haqida bayonot;*
- *muvofiqlikni attestatsiyalash;*
- *muvofiqlikni sertifikatlashtirish.*

*Mafulotning standartlar talablariga muvofiqligi muvofiqlik sertifikati va muvofiqlik belgisi bilan tasdiqlanishi.*

*O'z-o'zini sertifikatlashtirishda sertifikatlar ishlab chiqaruvchilar tomonidan beriladi, uchinchi tomondan sertifikatlashtirish begona tashkilotlar ishtirokini nazarda tutadi.*

## **2.5. Sertifikatlashtirishning tashqi savdo sharoitlariga qiladigan ta'siri**

Ob'ektiv qaraganda, sertifikatlashtirish mamlakatlar orasidagi savdo aloqalarni osonlashtiradi, chunki mahsulot (tovarni) boshqa mamlakatlarga olib kirish uchun ruxsat olish *vaqt* qisqaradi va importer-davlatlarda takror sinovlar o'tkazish uchun xarajatlar kamayadi. Eng katta osonlikka yagona xalqaro standartlarga asoslangan xalqaro sertifikatlashtirish tizimi kiritilganda erishiladi.

Lekin sertifikatlashtirish ko'pchilik mamlakatlarda milliy doiraga kiritilgan. Natijada sertifikatlashtirish milliy qoidalari, sinovlar o'tkazish tartiblari va ularning natijalarini chizmaiylashtirish ma'lum darajada farqlanadi. SHuning uchun, xalqaro savdoda milliy sertifikatlashtirish bilan bog'liq to'siqlarni bartaraf qilish ko'p xalqaro tashkilotlar davlat markazidadir. Misol sifatida xavfsizlik va hamkorlik bo'yicha umumevropa kengashining yakunlovchi akti matniga (Xel'sinki sh.) standart va sertifikatlarni uygunlashtirish (kelishtirish) haqida maxsus bo'lim kiritilishini keltirish mumkin.

SHu bilan birga milliy standartlar va sertifikatlardagi farqlar hamda ayrim davlatlardagi ma'lum mahsulotlarga bo'lgan talablardagi ob'ektiv farqlar **proteksionist maqsadlarda**, ya'ni xorijiy ishlab chiqaruvchilar uchun bu mamlakatlar bozorlariga yo'lni to'sish uchun qo'llanadi.

Masalan, birorta mamlakat mahsulotning shunday tavsiflarini joriy qilgan standartni qabul qiladiki, boshqa mamlakatlardan uni import qilish juda qiyin bo'ladi yoki umuman iloji bo'lmaydi. Agarda bu chora ta'sir qilmasa, import qilingan buYumlarning sinovini o'tkazish uchun murakkab ma'muriy protseduralar qo'llanadi. Ichki bozorga xorijiy buYumlar kirishini kamaytirish uchun standartni qo'llashning keng tarqalgan misollari:

- standart orqali buYumlar ma'lum konstruktsiyali bo'lishi haqida ko'rsatma berish;

- ma'lum materiallarni qo'llash;
- buYumning birorta tavsifiy miqdorini boshqa mamlakatlarda joriy qilingan miqdordan oshirib Yuborish (masalan kafolat muddatini) va hokazo.

Bunday protektsionizm xaqida GFRning ulgurji va tashqi savdo Birlashmasining Prezidenti Gans Xaytvich achinib gapirgan edi: "O'z iqisodiyotini mavxum zararli raqobatdan saqlab qolish xarakatlarida xokimlik milliy organlari o'zlarini juda ijodkor ko'rsatadilar. Umumiyo bozor mamalakatlarida hozirni o'zida 900 dan ortiq savdo aloqalariga bevosita to'siq bo'ladigan davlat texnik reglamenti amalda, mamlakat sanoatini og'ir raqobatdan saqlab qolish uchun standartlarni kundalik maqsadlar bilan bog'laydilar" (8ruqe1, 1976, № 30).

Qator hollarda protektsionist choralar jamiyat ta'siri ostida qabul qilinadi. Bu holda iste'molchilar manfaatlarini himoyalash, sog'ligini, atrof-muhitni muxofaza qilish uchun qonuniy aktlar va qarorlar qabul qilinadi. Bunday davlat qarorlari (ularni ayrim hollarda texnikaviy reglament deb ataydilar) buYumlarga qo'yiladigan batafsil texnikaviy shartlardan iborat va qo'llanishi majburiydir. Texnikaviy reglamentlar ovqat mahsulotlari, farmatsevtik tovarlar, bolalar o'yinchoklari va maishiy priborlarning xavfsizligi, mashina va boshqalarni qamrab oladi.

Sertifikatsiya qilishdan bosh tortish import qiluvchi mamlakatda tegishli milliy standart yo'qliga bilan asoslanadi.

Xorijiy tovarlarni diskriminatsiya qilish uchun ularning sertifikatsion sinovlari uchun to'lovlarni milliy tovar sinovlariga nisbatan oshiradilar. Natijada, sertifikat olish uchun katta to'lov mahsulot eksportini, ayniqsa, kichik partiyalarni samarasiz qiladi.

**Sertifikatlashtirish va halqaro savdo.** YUqorida sertifikatlashtirish qator hollarda xorijiy raqiblarga qarshi qaratilgan protektsionist siyosati vositali sifatida qo'llanadi deyilgan edi. Lekin baribir sertifikatlashtirishning asosiy maqsadi — xalqaro savdo uchun yaxshi sharoitlar yaratishdir. Tabiiyki bu maqsad uchun tegishli xalqaro bitimlar zarur. Bu munosabat bilan "Tokio raund" (1979 y.)

muzokaralarida imzolangan GATTning savdodagi texnikaviy tusiqlar haqidagi bitim diqqatga sazovor.

Bitim ishtirokchi mamlakatlar orasidagi savdo munosabatlarida proteksionizm va diskriminatsiya elementlarini chegaralash bo'yicha birinchi xarakatdir (1983 y. avgustida GATTning to'la xuquqli a'zolari 35 davlat va mintaqalar hamda EIK edi). U ishtirokchi mamlakatlarga quyidagi asosiy majburiyatlarni Yuklaydi:

1) *proteksionist maqsadlarda standart va texnikaviy reglamentlar qabul qilmaslik ularni ishlab chiqishda mavjud xalqaro standartlarni hisobga olish;*

2) *milliy sinov markazlari va mahsulotni sertifikatlashtirish tizimlariga qo'yishda boshqa ishtirokchi mamlakatlarni diskriminatsiya qilish;*

3) *standart va texnikaviy reglamentlar amaliga nisbatan ishtirokchi mamlakatlar tovarlari milliy rejimini berish;*

4) *bitimi imzolagan boshqa mamlakatlar vakolatli organlari tomonidan berilgan mahsulot sinovlari natijalari, standartlarga muvofiqlik sertifikat va belgilarini ishtirokchi davlatlar tomonidan imkoniyati bor joylarda tan olishini ta'minlash;*

5) *ishtirokchi mamlakatlar o'rtasida milliy standartlashtirish va sertifikatlashtirish bo'yicha ma'lumot almashinish.*

Bitimni milliy standart, texnikaviy reglament va sertifikatlashtirish qoidalarini xalqaro standart va tavsiyalar bilan kelishtirishga ko'maklashadi. Bu mahsulot texnikaviy darajasi va sifatini oshirishga eksport imkoniyatlari yaxshilanishiga yordam qiladi. Umuman olganda, bitim unda qatnashgan mamlakatlar o'rtasida xalqaro savdo me'yorlashishi va kengayishiga ko'mak bo'ladi.

Bitim bajarilishi ustidan nazorat GATT qo'mitasi zimmasiga Yuklangan. U bitim amalga oshirilishini kuzatadi, ekspertlar guruxlari yordamida maslahatlar o'tkazish va munozaralarni echishga ko'maklashadi. Undan tashqari, qo'mita bitim amali doirasini kengaytirish va undagi qoidalar mazmuniga aniqlik kiritish haqida takliflar beradi. Qo'mita kotibiyati vazifasini GATT kotibiyati bajaradi.

Sertifikatlashtirish jabhasida qator xalqaro tashkilotlar mavjud. Ular ichidan Xalqaro elektrotexnika qo'mitasi (XEQ) elektron texnika buYumlarini (ETB) sertifikatlashtirish ikki nuqai nazardan qiziqdir:

- *birinchidan, ETBning ishlab chiqilgan har bir partiyasi me'yoriy-texnikaviy xujjalarga muvofiqligi sinaladigan yakka Yu-yagona xalqaro tizim;*
- *ikkinchidan, unda sobiq sovet ittifoqining ishlab chiqaruvchi korxonalar ishtirok etadi.*

XEQ sertifikatlashtirish tizimining maqadi ETBlarga yagona talablarni joriy qilish yo'li orqali ishlab chiqaradigan mamlakatlar o'rtaida xamda buYumlar sifatini baholash va sinashga bo'lган savdoga ko'maklashishdir.

Bu tizim ishtirokchilaridan birida ishlab chiqarilgan buYum boshqa ishtirokchi mamlakatlarda ham qayta sinovlar o'tkazmasdan bir xil maqbul bo'lishi uchun zarur.

Dastlabki XEQ Amerika ETBni diskriminatsiya qilish uchun yaratilgan edi, chunki Amerika ETB Rarbiy Evropa ETB dan raqobatbardoshliroq edi. Keyinchalik XEQda dunyo miqyosida ETBni sertifikatlashtirish masalasi ko'tarildi.

ETBni ishlab chiqaruvchi har qanday korxona XEQ tizimi doirasida o'zi ishlab chiqarayotgan mahsulotni sertifikatlashtirish xuquni beradigan litsenziya olishi mumkin. Buning uchun u vakolatli milliy tashkilotga kelgusida ETB ishlab chiqarilayotgan asos soluvchi, umumiylar va guruxiy-texnikaviy shartlar nomlari ko'rsatilgan buYurtma Yullashi kerak.

Bunda korxona milliy nazorat xizmati vakillariga ETB ishlab chiqariladigan bo'lmlarga, agar ular tijorat nuqtai nazardan sirli bo'lmasa, kirish imkoniyatini ta'minlaydi. Ishlab chiqarishning sirli bo'lmlari korxona bosh nazoratchisi kuzatuvi ostida bo'lishi kerak. U korxona va nazorat xizmati o'rtaida bog'lovchi zveno bo'ladi.

Bosh nazoratchini asosiy vazifalari:

- *milliy nazorat xizmati bilan aloqani ta'minlash;*
- *qabul qilingan ETB partiyalari sifati uchun javobgarlik*

- *nazorat o'lchashlar va sinovlar hisobini Yuritish, ular natijalarni milliy nazorat xizmatiga uzatish;*
- *qabul qilingan buYumlar partiyalarini muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash uchun javobgarlik;*
- *ishlab chiqarilgan partiyalar sinovlari protokollari chizmaiylashtirilishi to'g'riliqi;*
- *ETB qo'shimcha sinash va nazorat o'tkazish uchun javobgarlik.*

XEQ tizimi doirasida sertifikat olgan ishlab chiqaruvchi korxona bosh nazoratchi va milliy nazorat xizmati ishtirokida buYumlar sifati ustidan nazorat tashkil qilishi shart. Har bir partiyani qabul qilish mezonlari mazkur ETB turiga qo'yiladigan texnikaviy shartlar orqali joriy qilinadi.

XEQ tizimi qoidalariga binoan qabul qilingan ETB partiyalarini muvofiqlik belgisi bilan tamg'alaydilar va ularga muvofiqlik sertifikatlarini berish bosh nazoratchining bevosita nazorati ostida amalga oshiriladi. Uzoq muddat saqlangan ETB partiyalarni jo'natishdan oldin, ular qayta sinovlardan o'tadi.

Ishlab chiqaruvchi qonunchiligiga binoan ro'yxatga olingan muvofiqlik belgisi yopishqoq tasma yoki buYumdon uchun qo'llanadigan boshqa materialga qo'yiladi. Belgi yoniga quyidagi ma'lumot beriladi:

- *milliy nazorat xizmatiga havola;*
- *korxonaning attestatsiyalanishi haqida guvohnomaga havola;*
- *nazorat partiyasiga havola.*

ETBning qabul qilingan partiyalariga berilgan muvofiqlik sertifikati quyidagilardan iborat:

- 1) korxona nomi va manzili;
- 2) korxonaning savdo belgisi;
- 3) buYumning katalog bo'yicha to'la nomi va kodi;
- 4) nazorat partiyasining raqami;
- 5) buYumning mazkur turiga qo'yilgan texnikaviy shartlar;
- 6) milliy nazorat xizmati nomi;
- 7) sertifikat bergen vakolatli shaxs imzosi;

- 8) ishlab chiqaruvchi korxona attestatsiyalanganligi haqida guvoxnomaning raqami;
- 9) buYum qabul qilingan sana;
- 10) sertifikat berilgan sana.

Elektrotexnik buYumlarni xalqaro sertifikatlashtirish tizimning eng eski tizimlaridandir. U 1926 yilda Norvegiya, SHvetsiya, Gollandiya va Germaniya vakillari elektrotexnik buYumlari xavfsizligi bo'yicha talablar va qabul qilish qoidalarini ishlab chiqishga qaror qilganlarida yaratilgan.

1960 yilda sertifikatlashtirish bo'yicha qo'mita buniyod qilingan, u elektrotexnik buYumlarni sertifikatlashtirish qoidalarini ishlab chiqqan. Xalqaro savdoni osonlashtirish va o'tkaziladigan sinovlar hajmini kamaytirish maqsadida sinov protokollari asosida berilgan sertifikatlarni ishtirokchi mamlakatlar tomonidan o'zaro tan olishga ko'maklashadigan SV sertifikatsiyalash tizimi ta'sis qilingan.

1973 yilda SV tizimi doirasida elektr jixozlar muvofiqligi yagona belgisini qo'llash qoidalari qabul qilingan. Mazkur tashkilot elektr jixozlarning qaysilariga muvofiqlik belgisi tarqalishini belgilaydi.

Sertifikatlash tizimi bo'yicha katta ishlar sertifikatlashtirish bo'yicha ishlarni boshqaradigan qo'mita (SERTIKO) boshchiligidagi ISO doirasida olib boriladi.

Uning faoliyati quyidagicha belgilangan:

- *sertifikatlashtirshining milliy va mintaqaviy tizimlari, mahsulot foydalanish va boshqa tavsiflarni joriy qiladigan standartlar talablariga muvofqlig belgilarini keng, o'zaro tan olishga qaratilgan vositalarni o'rganish;*
- *«milliy yoki mintaqaviy sertifikatlashtirish tizimlarini proteksionist maqsadlariga qo'llashning oldini olish yoki cheklash maqsadida tegishli bitimlar tuzish qoida va protseduralarini ishlab chiqish.*

SERTIKO tarkibida quyidagi ishchi guruxlar tuzilgan:

- atamashunoslik;
- «sinovlar protokollari shakli;
- sinov laboratoriyalari o'tkazadigan  
ixtisoslik sinovlar;
- huquqiy javobgarlik masalalari;
- ISO ga muvofqlilik belgisi;
- korxonalardagi sifatni ta'minlovchi  
tizimlarni baholash usullari bo'yicha.

SERTIKO «Uchinchi tomon sertifikatlashtirish tizimlari tegishli standartlarga oid printsiplar to'plami» qo'llanmasini ishlab chiqdi. U sertifikatlashtirish milliy va mintaqaviy tizimlarini boshqa tizimlar bilan muvofiqligi va ularda boshqa mamlakatlar ishtirok qilishi nuqtai nazaridan tashkil etish tamoyillarini belgilaydi.

SHuningdek milliy va mintaqaviy sertifikatlashtirish tizimlarini yaratishda ular iloji boricha ISO ning xalqaro standartlariga asoslanishi kerak. Bunda bu standartlar muvofiqlikni sertifikatlashtirish bo'yicha talablardan tarkib topgan bo'lishi zarur:

- *sertifikatlashtirilishi lozim bo'lgan mahsulot tavsiflari darajasini aniq belgilash;*
- *sinash va o'lchashning aniq va qayta tiklanadigan usullari;*
- *standartlarga mahsulot sifatini ta'minlovchi tizimlarga bo'lgan talablarni kiritish;*
- *texnika va texnologiyani rivojlanishiga ko'maklashadigan shartlar.*

Qo'llanma yaratilayotgan tizimlarda hech qanday to'siqsiz hamda diskriminatsion shartlarsiz barcha mahsulot ishlab chiqaruvchilar qatnashishini nazarda tutadi. U barcha davlatlar tizimlarida qatnashishga imkon berish va milliy sertifikatlashtirish tizimlarini o'zaro tan olish yo'li bilan sertifikatlashtirish vositalari orqali xalqaro savdoning rivojlanishi uchun yaxshi sharoitlarni yaratishga qaratilgan.

*Xulosa*

*Sertifikatlashtirish mamlakatlar orasidagi savdo aloqalarini osonlashtiradi, chunki mahsulot (tovar)ni boshqa mamlakatlarga olib kirish uchun ruxsat olish vaqt qisqaradi va import qiluvchi davlatlarda takror sinovlar o'tkazish uchun xarajatlar kamayadi. Eng katta osonlikka yagona xalqaro standartlarga asoslangan xalqaro sertifikatlashtirish tizimi kiritilganda erishiladi. Ayrim hollarda sertifikatlashtirish proteksionist, ya'ni bu mamlakatlar bozoriga xorijiy ishlab chiqaruvchilar yo'lini to'sish maqsadlarida qo'llanadi. Sertifikatlashtirish sohasida qator xalqaro tashkilotlar mavjud.*

## **2.6. Milliy sertifikatlashtirish tizimlari**

**Sanoati rivojlangan davlatlardagi sertifikatlashtirish.** Sanoati rivojlangan davlatlarda sertifikatlashtirish asrning 20-30- yilarida paydo bo'ldi. Lekin milliy sertifikatlashtirish tizimlari keyinroq yaratidtsi. Qator mamlakatlarda ular faqat eksport qilinadigan mahsulot sifatini oshirish uchun bunyod qilingan edi (Yaponiya, Xindiston, YUgoslaviya va boshqalar).

**Frantsiyada** NF belgili milliy sertifikatlashtirish tizimi uchinchi tomon sertifikatlashtirishiga mansub va:

- *ishlab chiqaruvchi korxonalar bu Yurtma berishini;*
- *korxonalarning sifatni ta'minlovchi tizimlarini baholashni o'tkazishni;*
- *mahsulot namunalarini sinovdan o'tkazishni;*
- *mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash huquqini beradigan sertifikat yoki litsenziyalarni berishni;*
- *ishlab chiqarish yoki savdo doirasidan olingan mahsulotni davriy nazorat qilish hamda korxonalarda nazoratni amalga oshirishni nazarda tutadi.*

1983 yilda mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash huquqini bir necha ming xil mahsulotni chiqaradigan 2000 korxona olgan. Mufovilklik belgisi bilan chiqarilgan mahsulotning umumiy xajmi 40 mlrd. frankka etgan.

1981 yildan boshlab Frantsiya xukumati 18 milliy tashkilotni sertifikatlashtirish bo'yicha vakolatli organ sifatida tanoldi, ularning ichida eng nufuzligi AFNOR dir.

**Germaniyada** standartlarga muvofiklik belgisi (DIN) 1920 yil nemis standart instituti tomonidan ta'sis qilingan. U mahsulotning barcha turlariga (namunalar sinovini o'tkazish va ishlab chiqarishni nazorat qilishning maxsus tartibiga ega bo'lgan gaz jixozlari, suv bilan ta'minlash jixozlari va boshqa ayrim mahsulotlar bundan istisno) tarqalgan.

DIN standartlariga muvofiqlikni sertifikatlashtirish tizimi mahsulotning 110 guruxini qamrab olgan. Unga mahsulotni DG-WK (mahsulotni tamg'alash nemis assotsiatsiyasi) belgisi bilan tamg'alash uchun 15000 dan ortiq litsenziya berilgan. Bu sertifikatlashtirish tizimida amaldagi qoidalarga rioya qilish majburiyatini olish sharti bilan xorijiy etkazib beruvchilar ishtirok etishlari mumkin.

Germaniyada mahsulotning aniq turlarini, masalan, elektrotexnik va elektron jihozlarni sertifikatlashtiradigan tizimlar ham mavjud.

Elektron jixozlarni sertifikatlashtirish nemis elektrotexnika assotsiatsiyasi (VDE) qaramogi ostida faoliyat ko'rsatadi. DIN bilan kelishib VDE elektrotexnika, elektronika va aloqa doiralarida milliy standartlar ishlab chiqadi.

Umuman olganda, Germaniyada turli mavqega ega ko'pgina sertifikatlashtirish tizimlari amalda: o'z-o'zini sertifikatlashtirish, 4 va 5-tizimlar doirasida uchinchi tomon sertifikatlashtirishi (4.01-jadval).

**BuYuk Britaniyada** boshqa rivojlangan mamalakatlardagidek bir necha milliy sertifikatlashtirish tizimlari amal qiladi. Ularning ichida eng kattasi Britaniya standart instituti (BSI) yaratgan tizimdir.

U milliy standartlariga muvofiqlik maxsus belgisiga ega. Mazkur tizim doirasida sertifikatlashtirish ishlariga raxbarlikni sifatni ta'minlash Boshqarmasi BSI QUAD amalga oshiradi. Mahsulotni sertifikatlashtirish tartibi Frantsiya va Germaniyada qo'llanadigan tartibga o'xshaydi.

Korxonalar BSI ni ogoxlantirmasdan mahsulotni o'zgartirmaydilar. Mahsulotga kiritiladigan o'zgartirishlar faqat o'zgartirilgan mahsulot standart talablariga javob berishini tasdiqlaydigan sinovlar o'tkazgandan keyingina QUAD tomonidan tan olinadi. Litsenziyaning muddati bir yil, undan keyin u cho'zilishi kerak.

Britaniya tizimi 250 milliy standartlarni qamrab oldi, milliy va xorijiy firmalarga mingdan ortiq litsenziya berilgan. BSI muntazam ravishda sertifikatsion mahsulotlar ro'yxatini chop etadi hamda xaridorlar uchun qo'llanma nashr etadi, unda har bir milliy standart bo'yicha berilgan sertifikat haqida ma'lumot beradi.

**AQSHda**, G'arbiy Evropa mamlakatlaridan farqli ravishda sertifikatlashtirishning yagona qoidalari yo'q. Ishlab chiqaruvchilar assotsiatsiyalari va xususiy kompaniyalar qoshida Yuzlab tizimlar amal qiladi. Standartlashtirish sohasida ham holat shunday, ya'ni standartlarni turli mavqega ega Yuzlab tashkilotlar ishlab chiqadi, SHuning uchun mavjud sertifikatsiyalash tizimlari uchun umumiylar mezonlar yaratish bo'yicha harakat qilinmoqda. SHU maqsadda sinov laboratoriyalari akkreditatsiyasi milliy tizimi yaratilgan va sertifikatsiyalash tizimlarini ro'yxatga olish tizimi yaratilmoqda.

AQSHda sertifikatlashtirish milliy miqyosda ham, xalqaro miqyosda ham mahsulot sifatining kafolati bo'lib xizmat qiladi. Bu mamlakatda sertifikatlashtirish majburiyligi haqidagi qonun amalda. Sertifikatlashtirishning zarurati esa ishlab chiqaruvchi korxonalar ishlab chiqarayotgan mahsulotning Yuqori darajada raqobatbardoshligini ta'minlashga erishishni talab qiladi.

AQSHda Sug'urta kompaniyalar milliy laboratoriysi, Amerika gaz sanoati korxonalari laboratoriysi, Nebraska shtatidagi qishloq xo'jaligi texnikasini sinash markazi qoshida yaratilgan sertifikatlashtirish tizimlari katta obro'ga ega. Ular bilan bir qatorda 2000 dan ortiq tijorat sinov laboratoriyalari mahsulotning keng assortimentini standart talablariga muvofiqligini sinash bo'yicha o'z xizmatlarini taklif qiladilar.

Sertifikatlashtirish amalga oshiriladigan standartlar sifatida Amerika standartlar instituti UL standartlari, yong'indan saqlash Milliy assotsiatsiyasi standartlari va boshqalar xizmat qiladi. Odatda AQSH me'yoriy xujjatlari talablarini xisobga olmagan xalqaro standartlar va boshqa mamlakatlarning standartlari sertifikatsiya o'tkazish uchun qabul qilinmaydi, ya'ni import qilinadigan mahsulotning ma'lum diskriminatsiyasi mavjud.

**YAponiyada** 1949 yilda mamlakat olimlari va muxandislari uYushmasi qoshida sifatni nazorat qilish muammosini o'rganish bo'yicha maxsus guruh tashkil qilingan. 60- yillarning oxirida esa mamlakatda ishlab chiqarishda sifat nazorati to'la hajmda tatbiq etilgan.

Ishlab chiqarilayotgan mahsulot sifatini ta'minlash asosiy tamoyillari quyidagilardir:

- *korxona barcha bo'linmalari va hamma xodimlari ishtirok etadigan mahsulot sifatining to'la nazorati;*
- *sanoat tarmoqlari bo'yicha mahsulot sifati nazorati sohasida o'qitish;*
- *sifat to'garaklari faoliyati;*
- *sifat nazoratining statistik usullarini qo'llash;*
- *sifat g'oyalarini targ'ibot qilish bo'yicha milliy kompaniya.*

Sifat muammolariga bunday fundamental yondashishda YAponiyada sertifikatlashtirish yapon tovarlarning Yuqori sifat darajasini ta'minlash va jahon bozorida ular raqobatbardoshligini oshirish vositasi sifatida ko'rildi.

Sanoat standartlashtirish qonuniga binoan mahsulotni yapon industrial standartlari JIS talablariga muvofiqligi belgisi bilan tamg'alash ko'rsatilgan. U mamlakatda sanoat standartlarini ommalashtirish samarali vositasi bo'lib xizmat qiladi hamda firmalar darajasida sifat nazorati usullari tarqalishiga ko'maklashadi.

JIS belgisidan foydalanish xuquqini sanoatning tegishli tarmoqdar vazirlari beradi. Muvoqiflik belgisi ikki shaklda bo'ladi: "A" va "V" shaklari, ular mahsulot va texnologik jarayonlar milliy standartlarga muvofiqligini belgilash uchun qo'llanadi. Xukumat JIS belgisi bilan tamg'alangan mahsulot va texnologik jarayonlar sifatini kafolatlaydi.

1980 yilgacha xorijiy ishlab chiqaruvchilarga JIS belgisini qo'llash man etilar edi. Keyinchalik xorijiy etkazib beruvchilar yapon ishlab chiqaruvchilari bilan bir qatorda sertifikatlashtirish protsedurasida qatnashish xuquqiga ega bo'ldilar.

Ko'rib chiqilgan muvoqiflik belgisi JIS bilan bir qatorda YAponiyada ishlov berilgan oziq-ovqatlar, qishloq xujalik va baliq mahsulotlari uchun JIS belgisi

ta'sis qilingan. U oziq-ovqat, qishloq xo'jalik va o'rmon mahsulotlarini standartlashtirish va tegishli ravishda tamg'alash bo'yicha qonun asosida kiritilgan.

Sertifikatlashtirish tizimlari yapon sanoatining barcha tarmoqlari: mashinasozlik, elektrotexnika, kimyo sanoati va boshqalarni qamrab oladi. 1983 yil martida yapon va xorijiy korxonalarga tegishli ravishda tamg'alangan mahsulot chiqarish xuquqini beradigan 16000 va 20000 litsenziya berilgan.

Xozirgi kunda sanoati rivojlangan mamlakatlarda sertifikatlashtirish barcha sohalarda tatbiq etilmoqda. Bu ikki omil bilan belgilanadi:

*1) iste'molchiga mahsulot sifatining barqaror darajasini ta'minlashga intilish;*

*2) ichki va tashqi bozorlarda Yuqori raqobatbardoshlikni ta'minlashga intilish. Agar ratsiblardan biri u ishlab chiqqan mahsulot sertifikatlashdan o'tdi desa, boshqa raqobat qiluvchifirmalar zudlik bilan o'xshash choralarini ko'rishga majbur.*

**Rivojlanayotgan mamlakatlardagi sertifikatlashtirish.** Sertifikatlashtirish rivojlanayotgan mamlakatlarda xam keng tarqalgan. Milliy sertifikatlashtirish tizimlarining tashkiliy tamoyillari uchinchi tomon setifikatlashtirish tamoyillariga mos keladi. Bunday holat rivojlanayotgan mamlakatlar sanoati rivojlangan mamlakatlar tajribasidan foydalanishi tufaylidir.

**Xindistonda** sertifikatsion belgisi 1952 yilda kiritilgan. Mahsulotni tamg'alash tizimi, muvofiqlik belgisini boiqrish hindiston standartlar instituti (ISI) zimmasiga Yuklatilgan.

Har qanday ishlab chiqaruvchi korxona mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash xuquqini beradigan litsenziya olish uchun ISI ga murojat qilishi mumkin. Bu Yurtma olgandan keyin ISI korxona hamma bo'linmalarini, korxonaga kirib keladigan material, jamlovchi uzel va detallardan boshlab oxirgi mahsulotgacha o'lchash va sinash jixozlanganligani tekshiradi. Tekshirish natijalari ijobjiy bo'lsa, korxona o'z mahsulotini tamg'alash xuquqini oladi. ISI tomonidan berilgan har bir litsenziya tarkibida mahsulot namunalarini sinash va nazorat qilish shakli bor.

Litsenziya amalda bo'lgan muddat ichida ISI:

- korxonalarga *ISI nazoratchilari muntazam ravshida tashrif bu Yuradilar*, shu paytlarda nazorat sinovlarini o'tkazish maqsadida ishlab chiqarilayotgan mahsulot namunalari ajratib olinadi;
- savdo doirasidan olingan mahsulot namunalarini sinaydi;
- xaridorlar yoki iste'molchilar muvofiqlik belgisi bilan tamg'alangan mahsulot sifati ustidan qilgan shikoyatlarni ko'rib chiqadi.

Litsenziya amalining muddati bir yil, undan keyin litsenziya muddati cho'zilishi kerak. Buning uchun korxona litsenziya muddati tutashiga bir oydan kam vaqt qolmaganda ISI ga murojaat qilishi kerak. ISI ning muvofiqlik belgisi xorijiy mahsulotga berilishi mumkin emas, chunki u birorta boshqa mamlakatda ro'yxatga olinmagan.

Xindistonda mashinasozlik kimyo, elektrotexnik va elektron sanoat va boshqa korxonalarga o'z mahsulotini tamg'alash xuqukini beradigan 10000 dan ortiq litsenziya berilgan.

**Tailandda** sertifikatlashtirish tizimi 1968 yilda tashkil qilingan. Tailand sanoat standartlari instituti (TISI) boshqaradi.

TISI sertifikatlashtirish tizimi ishlab chiqarish xolatini doimiy nazorat qilish va mahsulot sinovlarini o'tkazishga moslangan.

Majburiy sertifikatlashtirishda import qininadigan buYumlar milliy korxonalar buYumlari bilan bir sharoitlarda tamg'alanadi.

Milliy sertifikatlashtirish tizimlari milliy standartlashtirish tizimi bor boshqa rivojlanayotgan mamlakatlarda ham (masalan, Turkiya, Kolumbiya va boqsh.) mavjud.

**O'zbekiston Respublikasida sertifikatlashtirish.** O'zbekiston Respublikasi xalqaro tashkilotlar (ISO, ILAK, EOK va boshq.) bilan xamkorligi mamlakatda bozor munosabatlari shakllanish davrida, ayniqsa, zarur bo'lib qoladi. Evropa hamjamiyatining yagona bozor "ichki chegaralarsiz fazo" yaratish niyati bu tashkilotlar oxirgi yillardagi strategiyasini aniqlab berdi. Uning bosh Yunalishi

bo'lib EK komissiyasi bilan hamkorlikda xalqaro savdodagi texnikaviy to'siklarni bartaraf qilishdir.

O'zbekiston Respublikasida **sertifikatlashtirish me'yoriy negizini** O'zRST5.0-98, O'zRST 5.1-95, O'zRST 5.2.-93, O'zRST 5.3-92, O'zRST 5.4-93, O'zRST 5.5-93 va Milliy sertifikatlashtirish tizimining (O'zRMST) rahbarlik xujjatlari majmui tashkil qiladi.

O'zRMSTda quyidagi faoliyat turlari nazarda tutilgan:

- *mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish;*
- *sifat tizimlari va ishlab chiqarishni sertifikatlashtirish;*
- *sinov laboratoriyalari (markazlari)ni akkreditlash;*
- *bir jinsli mahsulotni sertifikatlashtiruvchi organlarni akkreditlash;*
- *sifat tizimlari va ishlab chiqarishni sertifikatlashtiruvchi organlarni akkreditlash;*
- *nazorat organlarini akkreditlash;*
- *sertifikatlashtirilgan mahsulot, sifat tizimlari va ishlab chiqarshilar, akkreditlangan organlar va sinov laboratoriyalari (markazlari) ustidan inspeksiya nazorati;*
- *majburiy sertifikatlashtirish qoidalariga rioya qilish ustidan nazorat;*
- *aytib o'tilgan faoliyat yo'naliishlari bo'yicha ekspert-auditorlarni tayyorlash va attestatsiyalash.*

Sertifikatlashtirish mahsulot, jarayonlar va xizmatlar:

- *davlatlararo standartlar (MDXmamlakatlari);*
- *O'zbekiston Respublika standartlari va boshqa mahsulotga bo'lgan talablarni joriy qilgan chizmaiynashr etilgan hujjatlar;*
- *O'zbekiston Respublikasi Milliy sertifikatlashtirish organi (O'zdavstandart) nomida qo'shilgan sertifikatlashtirish xalqaro va xorijiy milliy standartlari talablariga muvofiqligi tasdiqni ta'minlaydi.*

O'zbekiston Respublikasida sifat tizimlarini sertifikatlashtirish me'yoriy negizini ISOning 9000-seriyali xalqaro standartlari va O'zRMSTning raxbarlik xujjatlari majmui tashkil qiladi.

ISOning 9000-seriyali standartlar nomi:

ISO-9000. Sifat umumiy boshqaruvi va sifatni ta'minlovchi standartlar. Tanlash va qo'llash bo'yicha raxbarlik ko'rsatmalari.

ISO-9001. Sifat tizimi. Loyixalash yoki ishlab chiqish, ishlab chiqarish, montaj va xizmat qilishda sifatni ta'minlash modeli.

ISO-9002. Sifat tizimi. Ishlab chiqarish va montaj paytida sifatni ta'minlash modeli.

ISO-9003. Sifat tizimi. YAkuniy nazorat va sinovlarda sifatni ta'minlash modeli.

ISO-9004. Sifatning umumiy boshqaruvi va sifat tizimi elementlari. Raxbarlik ko'rsatmalari.

9000-seriyali ISO xalqaro standartlari tashilot (korxona)ga sifat sohasida quyidagi masalalarni echishga yordam beradi:

— *mahsulot yoki xizmat sifatini iste'molchilar aniqlangan yoki taxmin qilingan extiyojlarini doim qondirilishi ta'minlaydigan darajaga erishish va uni saqlab turish;*

— *o'z rahbariyatida muljallangan sifatga erishilmoqda va u berilgan darajada saqlanib turganligi haqida ishonchni ta'minlash;*

— *iste'molchida muljallangan mahsulot sifati va taqdim etilayotgan xizmat sifatiga erishilganlik yoki erishilishi lozimligi haqidagi ishonchni ta'minlash.*

Ishonchni ta'minlash agar kontraktda nazarda tutilgan bo'lsa, isbotlarni taqdim etish haqida o'zaro kelishilgan talablar bo'lisi mumkin.

O'zRMST mahsulot va xizmatlarning majburiy xamda ixtiyoriy sertifikatlashtirishni ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlagan sertifikatlashtirilishi shart mahsulotlar ro'yxatiga kiritilgan O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqariladigan, olib chiqib ketiladigan va olib kiriladigan mahsulotlar majburiy sertifikatlashtiriladi. Bu ro'yxatga me'yoriy hujjalarda fuqarolar xayoti, sog'liq xavfsizligini ta'minlovchi, atrof-muxitni muxrfaza qilish, o'zaro almashinuvchanlik va uygunlashtirish talablari belgilangan

mahsulotlar xamda fuqarolar xavfsizligi va sog'ligini ta'minlovchi vositalar kiritiladi.

Mahsulot, sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni ixtiyoriy sertifikatlashtirish ishlab chiqaruvchi, iste'molchi yoki etkazib beruvchining tashabbusi bilan amalgalashiriladi.

Sertifikatsion sinovlardan muvaffaqiyatli o'tgan mahsulotga (mazkur mahsulot ishlab chiqarilishi attestatsiyalanganligi xaqida guvoxnomaga ega bo'lsa) sertifikat beriladi va mahsulotga muvofiqlik belgisi qo'yiladi.

Sertifikatsiyani tashkil qilish va o'tkazish ikki bosqichdan iborat:

- *sertifikatlashtiriladigan mahsulotni etishtirish hamda ishlab chiqarish uchun sharoitlar yaratish va tatbiq etish;*
- *me'yoriy hujjatlar talablariga muvofiqligini tasdiqlash sifatida mahsulot sertifikatlashtirilishini tashksh etish va o'tkazish.*

Birinchi bosqichda so'z sertifikatlashtirilaligan mahsulotni ishlab chiqarish, ikkinchi bosqichda esa mahsulot me'yoriy xujjat yoki talablarning boshqa turiga muvofiqligini tasdiqlashni tashkil qilish va baholash haqida Yuritiladi.

### *Xulosa*

*Sanoati rivojlangan davlatlarda sertifikatlashtirish asrning 20-30-yilarida ilk bor tashkil etildi. Lekin milliy sertifikatlashtirish tizimlari keyinroq yaratildi. Qator mamlakatlarda ular faqat eksport qilinadigan mahsulot sifatini oshirish uchun bunyod qilingan edi (Yaponiya, Xtsndiston, YUgoslaviya va boshqalar).*

*Frantsiyada belgili milliy sertifikatlashtirish tizimi uchinchi tomon sertifikatlashtirishiga mansub.*

*Germaniyada standartlarga muvofiqlik belgisi (DIN) 1920 yil nemis standart instituti tomonidan ta'sis qilingan. U mahsulotning barcha turlariga (namunalar sinovini o'tkazish va ishlab chiqarishni nazorat qilishning maxsus tartibiga ega bo'lgan gazjihozlari, suv bilan ta'minlash jihozlari va boshqa ayrim mahsulotlar bundan istisno) tarqalgan.*

*Bu Yuk Britaniyada boshqa rivojlangan mamalakatlardagidek bir necha milliy sertifikatlashtirish tizimlari amal qiladi.*

*AQSHda, Rarbiy Evropa mamlakatlaridan farqli ravshida sertifikatlashtirish yagona qoidalari yoki sertifikatlashtirish bo'yicha yagona qoidalari yo'q.*

*Yaponiyada 60 - yillarnit oxiriga kelib, mamlakatda ishlabchiqarishda sifat nazorati to'la hajmida tatbiq etilgan.*

*Hozirgi kunda sanoati rivojlatan mamlakatlarda sertifikatlashtirish barcha sohalarda tadbiq etilmoqda.*

*O'zbekiston Respublikasida sifat tizimlarini sertifikatlashtirish me'yoriy negizini ISOning 9000-seriyali xalqaro standartlari va O'zRMSTiing rahbarlik xujjalari majmui tashkil qiladi.*

## **2.7. Milliy sinov markazlari tarmoqlarini tashkil kilish**

### **Sertifikatlashtirishnint iqtisodiy shartlari**

**Sertifikatsion tizimning eng muhim elementlari sinov laboratoriyalardir.** Ular mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan tamg'alash huquqini beruvchi sertifikat yoki litsenziya berganda mahsulot sifati darjasini ishonchli baholanishini ta'minlaydi.

Akkreditatlash paytida quyidagi talablar qo'yildi:

- nazariy tayyorgarlik hamda amaliy tajriba bilan tavsiflanadigan texnikaviy bilmlarga egaligi;
- zaruriy sinov va o'lchash vositlarining mavjudligi;
- o'lchashlar zaruriy aniqligini ta'minlaydigan sinash va o'lchash jihozlarini attestatsiyalash (kalibrlash) vositalari va usullari mavjudligi;
- eng yangi ilmiy-texnikaviy Yuuqlarni hisobga olib, ishlab chiqilgan sinov usullari mavjudligi;

- mijoz oldida umuman va ayrim xodimlarning tijorat hamda boshqa majburiyatlari yo'qligi bilan tavsiflanadigan laboratoriyaning mustaqilligi;
- mahsulot sinovini o'tkazish sifatini nazorat qilish tizimi mavjudligi.

Sertifikatlashtirish paytida mahsulot sifati darajasining ishonchli bahosini olish har bir mamlakat oldiga sinov laboratoriyanining milliy tarmoqlarini yaratish masalasini qo'yadi.

**Frantsyada** sinovlarning milliy tarmogi RNE mavjud. U yagona qoidalar va protseduralar asosida sinovlarning Yuqori sifati va birliligini ta'minlaydigan muvofiqlashtirilgan ko'p tarmoqli sinov laboratoriyanining yagona majmuidir.

Sinovlarning milliy tarmogi RNE oldiga uch maqsad qo'yilgan edi:

**1. Sinov laboratoriyanini akkreditatlash tizimini yaratish** va boshqarish bo'yicha ishlarni bajarish, shuningdek sinov laboratoriyalari ishi sifati haqida keng ma'lumotni ta'minlash.

**2. Quyidagilarni amalga oshira oladigan milliy organni yaratish:**

- o'z ichiga takomil axborotlash va sinov laboratoriyanlar xizmatlaridan korxonalar bemalol foydalanishini olgan sinovlarning milliy siyosatini;
- amaldagilar bilan birgalikda sinovlar yangi usullarini ishlab chiqish bo'yicha frantsuz standartlashtirish assotsiatsiyasi (AFNOR) bilan hamkorlikda bo'lish;

— ishlarni kelishish va muvofiqlashtirish, laboratoriyalarni texnikaviy jihozlashga sarflanadigan kapital mablag'larni optimallash.

**3. Xorijda faoliyat ko'rsatayotgan o'xshash akkreditatlash tizimli laboratoriyanlar tomonidan o'tkazilgan sinovlar natijalarini tan olishni ta'minlaydigan davlat darajasidagi tuzilmani yaratish.** Bu maqsadlar deyarli amalga oshirilgan.

RNE tarkibiga beshta eng katta tarmoqli sinov markazlari kiradi:

- YOg'och ishslash sanoati texnikaviy markazi (CSTB);
- Amaliy kimyo ilmiy-tadqiqot markazi (IRCHA);

- Markaziy elektrotexnika sanoati laboratoriysi (LCIE);
- Markaziy yo'l-ko'prik ko'rish laboratoriysi (LSRS);
- Milliy sinov laboratoriysi (LNE).

LNE o'lchamlar, massa, bosim, harorat hamda spektroradiofotometriya, ionlovchi nurlanish soxasida o'lhash vositalarini tekshiradigan eng katta sinov tashkilotidir. Laboratoriya standart namunalar ishlab chiqaradi.

LNE Germaniya milliy sinov laboratoriyalari, AQSH, Belgiya, Gollandiya, Italiya, YAponiya va boshqa sinov laboratoriyalari bilan aloqani amalga oshiradi. Undan tashqari, u rivojlanayotgan mamlakatlarga metrologiya, sinash va standartlashtirish, tadqiqotlar o'tkazish, metrologik va sinov laboratoriyalarni yaratish, kadrlar tayyorlash, qo'shma tadqiqotlar va boshqalarga yordam qiladi.

**BuYuk Britaniyada** 1960 yilda NPL Milliy fizik laboratoriysi qoshida sinov laboratoriyalarni akkreditlash Milliy tizim (NATLAS)ni yaratish xaqida qaror qabul qilingan. NATLAS sinov laboratoriyalari sinovlarni o'tkazishga tayyorligini baholash, akkreditlash va attestat berish hamda akkreditlangan laboratoriylar ro'yxatini nashr qilish kerak. U sanoat korxonalarga laboratoriylar imkonlari va ularning sinov vositalari haqida fikrlash imkonini beradi.

NATLAS doirasida hamma tashkiliy ishlarni, sinov jihozlarni attestatsiyalash masalalarini Britaniya metrologiya xizmati (VCS) bilan kelishib, Milliy fizika laboratoriysi olib boradi. VCS barcha o'lhash vositalarini tekshiradi va chizmaiyl xulosa chiqarib beradi. NATLAS va VCS ish dasturlari bir-birini tuldiradi.

NATLAS: ustanaqlivaet:

- *tizimning asosiy tamoyillari va ish usullarini;*
- *tizimni boshqarish bo'yicha ishlarni;*
- *sinov laboratoriyalarini baholash mezonlarini;*
- *attestat shaklini;*
- *tizim tuzilmasi va uni tarqalish doiralarini joriy qiladi.*

**AQSHda** sinov laboratoriyalarni akkreditlash Milliy dasturi (NVLAP) AQSH Savdo vazirligi qoshida yaratilgan. NVLAPni yaratish zarurati AQSHda

davlat organlari qoshida ham, xususiy tashkilotlar qoshida ham faoliyat ko'rsatayotgan laboratoriyalarni baholaydigan ko'p tizimlar mavjudligida.

NVLAP sinov laboratoriylarini akkreditlash bo'yicha alohida dasturlarni akkreditlashni nazarda tutadi. Dasturlar mahsulotni standartlarga (milliy yoki xalqaro) muvofiqligini sinash jabhalarini, sinov usullari va mezonlarini belgilaydi.

NVLAP doirasida akkreditlanish uchun sinov laboratoriyasi chizmai ravishda buYurtma beradi, unga laboratoriya ishini tashkil qilish va uning faoliyati doirasi haqida ma'lumot ilova qilinadi. Akkreditatsiyadan o'tgan laboratoriyaga u qaysi usullar bo'yicha akkreditlanganligi ko'rsatilgan sertifikat beriladi. Akkreditatsiya uchun qilingan xarajatlarni laboratoriya to'laydi.

Aytib o'tish kerakki, AQSH Savdo vazirligi NVLAP akkreditatsiyasini AQSH bilan savdo qilayotgan boshqa mamlakatlar ham tan olishiga intiladi. Undan tashqari, Savdo vazirligi sinov laboratoriylarini akkreditlash Xalqaro konferentsiyasi ishida faol qatnashadi. Qatnashishning maqsadi — sinov laboratoriylarining akkreditatsiyasi va sinov natijalarini o'zaro tan olishni tezlashtirish.

AQSHda firmalar sinov laboratoriylarining mavjud mahsulotlarini takomillashtirish va mahsulotning yangi turlarini istiqbol ishlab chiqishdag'i roli katta. Turli sinovlar va takomillashtirish asosida laboratoriylar firmalarning mahsulot sifatini oshirish bo'yicha faoliyatiga sezilarli ulush qo'shadilar.

**SHarqiy Evropa mamalakatlaridagi sinov markazlari. CHexiyada** sinov laboratoriylari faoliyatini muvofiqlashtirishni standartlashtirish va o'lchashlar boshqarmasi amalga oshiradi. Respublikada 40 dan ortiq sinov laboratoriylari faoliyat ko'rsatadi. Elektrotexnik sinov instituti, Mashinasozlik sinov instituti hamda CHexiya pribor va jihozlarni attestatsiyalash instituti kabi laboratoriylar bevosita standartlashtirish va o'lchashlar boshqarmasiga buysunadi.

Boshqarma akkreditlash natijalari bo'yicha xujjat beradi, unga binoan laboratoriya davlat sinovlarini o'tkazish, mahsulotni qabul qilish va uning sifatini baholash vakolatlariga ega bo'ladi. Bunda vakolatli laboratoriya "№... Davlat sinov

"laboratoriysi" nomini oladi. Bu laboratoriya o'zi chiqargan mahsulotni nazorat qila olmaydi.

Davlat sinov laboratoriyalari quyidagi vazifalarni bajaradi:

- *markaziy organlar taklifiga binoan majburiy sinov qilinadigan mahsulot ro'yxatini tasdiqlash;*
- *mahsulotning nazorat sinovlarini o'tkazish, uning texnikaviy darajasi va sifatini aniqlash;*
- *mahsulotni ishlab chiqarish yoki import qilish uchun ruxsat bershi;*
- *ishlab chiqaruvchi korxonalarda sifatni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni, standartlashtirish bo'yicha ishlarni, korxonalar nazorat-o'lchash asboblari bilan jihozlanganligini tekshirish.*

Davlat sinov markazlari o'xshash mahsulotlar qiyosiy sinovlari natijalarini nashr etadilar. Laboratoriyalarda birinchi navbatda eksportga mo'ljallangan buYumlar majburiy attestatsiyalanadi va nazorat qilinadi.

**Bolgariyada** mahsulotning davlat sinovini Davlat standartlashtirish qo'mitasi tomonidan berilgan tegishli vakolatlarga ega laboratoriyalar va markazlar (stantsiyalar) amalga oshiradi. Davlat sinov laboratoriyalari import mahsulotlarning sertifikatsion va qabul sinovlarini; eksport mahsulotni tekshirishni; material, xom ashyo va mahsulotni ekspert hamda arbitraj namunaviy va nazorat sinovlarini; mahsulotni attestatsiyalash sinovlarini amalga oshiradi.

Bolgariyada mahsulot sinashga mamlakat sanoati ishlab chiqarayotgan mahsulot sifati darajasini aniqlash va buYumlarning texnikaviy tavsiflarini ob'ektiv aniqlashning asosiy vositalari sifatida katta axamiyat beradilar.

**Vengriyada** mahsulotni sinash bo'yicha ikkita eng katta tashkilot faoliyat ko'rsatadi: Ichki savdoning nazorat instituti va Elektrotexnik jihozlarni sinash instituti.

Nazorat instituti majburiy tekshiriladigan milliy va import qilingan buYumlar ro'yxatini tasdiqlaydi va tekshiradi. Institutning ijobiy bahosisiz ular savdo tashkilotlariga tavsiya qilinmaydi.

Elektrotexnik jihozlarni sinash instituti:

- elektrotexnik mahsulotni sertifikatsiyalash sinovlarini;
- ishlab chiqarishning texnikaviy nazorat tashkili va usullari bo'yicha nazoratini amalga oshiradi.

Bu institut elektr jihozlarni qabul qilish bo'yicha Xalqaro komissiyada elektr xavfsizlikni sertifikatlashtirish tizimida ishtirop etadi.

**O'zbekistonagi sinov markazlari.** Milliy sertifikatlashtirish tizimining tashkiliy tuzilmasi:

- O'zbekiston Respublikasi Milliy sertifshatlashtirish organi (MSO) (O'zdavstandart);
- bir jinsli mahsulotlarni sertifikatlashtirish bo'yicha ilmiy-uslubiy markaz va usulubiy markazlar;
- bir jinsli mahsulotlarni va xizmatlarni, sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan organlar;
- akkreditlangan sinov laboratoriyalari (markazlari);
- *nazorat organlaridan* tarkib topgan.

MSO O'zbekiston qonunchiligiga binoan quyidagi vazifalarni

amalga oshiradi:

- O'zRMSTning yagona qoida va protseduralarini, ularga rioya qilishning nazoratini, sertifikatlashtirish natijalari bo'yicha xujjatlarni ro'yxatga olishni, respublika va xorijiy iste'molchilarni informatsion ta'minotini joriy qiladi;
- muvofiqlik belgisini va uni qullash qoidalarini joriy qiladi;
- O'zRMSTni takomillashtirish dasturlari loyihalarini ishlab chiqadi va ularni ko'rib chiqish uchun hukumatga taqdim etadi;
- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi bilan kelishilgan holda xalqaro sertifikatlashtirish tizimlariga qo'shishi haqida qarorlar qabul qiladi hamda sertifikatlashtirish natijalarini o'zaro tan olish haqida bitimlar tuzadi;
- sertifikatlashtirish masalalari bo'yicha boshqa davlatlar bilan munosabatlarda va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston nomidan chiqadi;

- sertifikatlashtirilishi majburiy mahsulot hamda xizmatlar ro'yxatini shakllanadiradi va Yuritadi;
- respublikada sertifikatlashtirish ishlarini tashkil qiladi va muvofiqlashtiradi hamda ularning to'g'ri o'tkazilishi ustidan nazorat qiladi;
- bir jinsli mahsulot, sifat tizimlari, ishlab chiqarish va sinov laboratoriyalari (markazlari)ni akkreditlaydi;
- ekspert-auditorlarni attestatsiyalaydi va ularning faoliyati ustidan nazorat qiladi;
- O'zRMST Davlat reestrini Yuritadi;
- mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha ishlar va sertifikatlashtirish organlari hamda sinov laboratoriya (markaz)larni akkreditlash uchun to'lov shakli va tartibini belgilaydi;
- qoidalar buzilgani sababli O'zRMST muvofiqlik sertifikati va belgisi amalini bekor qiladi hamda vaqtincha to'xtatadi, sertifikatlashtirish organlari va sinov laboratoriyalari (markazlari) akkreditlangani haqida guvohnomalarini bekor qiladi;
- sertifikatlashtirish va akkreditlash natijalari bo'yicha apellyatsilarni ko'radi;
- O'zRMST reestri asosida sertifikatlashtirish bo'yicha informatsiyani nashr etadi va manfaatdor tomonlarga erkin foydalanishni ta'minlaydi.

Ko'rsatilgan vazifalarni bajarish uchun MSTning tadqiqot, ilmiy-texnikaviy, jamoat tashkilotlari, iste'molchilar jamiyatlarini jalb qiladi.

O'zbekiston mintaqalarida MSTning ayrim vazifalarini, agar bu vakolatlarni «O'zdavstandart» ularga oshirsa, standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish xududiy markazlari (SMSXM) bajarishi mumkin.

«O'zdavstandart» o'z vazifalarining bir qismini bir jinsli mahsulotni sertifikatlashtirish bo'yicha markaziy organlarga yoki bosh uslubiy markazlariga topshirishga huquqlidir.

SMSXM quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ishlab chiqaruvchi (bajaruvchi) va mahsulot etkazib beruvchilarga sertifikatlashtirish qoidalari haqida chizmaiyl axborot beradi;

- markaziy sertifikatlashtirish organlari (MSO), bosh uslubiy markazlari (BUM) bilan sertifikatlashtirish protseduralari bo'yicha bir jinsli mahsulotni sertifikatlashtirish tizimlari doirasida hamkorlik qiladi;
- sertifikatlashtirshi qoidalariga rioya qilish davlat nazoratini amalga oshiradi va ular sertifikatlashtirilgan mahsulot ustidan inspeksiya nazorati o'rnatadi;
- hududda sertifikatlashtirilgan mahsulot reestrini Yuritadi;
- «O'zdavstandart» topshirig'i bilan sertifikatlashtirish bo'yicha hududiy organlar va sinov laboratoriya (markaz)larni sertifikatlashtirish bo'yicha komissiyalarni tashkil qiladi va ularning ishida ishtrok etadi, ularntg faoliyati ustidan inspeksiya nazoratini amalga oshiradi.

Sertifikatlashtirish va nazorat qilish vazifalarini amalga oshirish uchun MSSXMLar umumiy qoidaga asosan O'z RST 5.2, O'z RST 5.3 va O'z RST 5.4 ga binoan akkreditatsiyadan o'tishi kerak. Akkreditatsiyadan keyin SMSXM sinov turlari va sertifikatlashtirilgan mahsulot turlarini akkreditlashning ma'lum sohasida faoliyat ko'rsatish *huquqiga* ega bo'ladi.

Akkreditatsiyadan o'tgan sinov laboratoriyalari (markazlari) O'zR MST da quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

- mahsulotning sertifikatsiya sinovlarini o'tkazish va sinovlar bayonnomalarini berish;
- sertifikatlashtirish tartibida nazarda tutilgan bo'lsa sertifikatlashtirilgan mahsulot namunalarini inspeksiya (nazorat) sinovlarini o'tkazish;
- sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirishda (o'tkazilgan sinovlar to'g'riliqi qismida) qatnashish.

Sinov laboratoriylar (markazlar) sifatida «O'zdavstandart» va uning hududiy organlarining laboratoriyalari, ilmiy-tadqiqiy va konstruktorlik tashkilotlarning sinov markazlari, boshqa turli mulkchilikka mansub laboratoriya va markazlar akkreditlanishi mumkin.

Sifat tizimlari va ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish bo'yicha akkreditlangan organlar quyidagi vazifalarni bajaradilar:

- sifat tizimlarini dastlabki baholashni o'tkazadilar va sertifikatsiya o'tkazish uchun shartnomalar tuzadilar;
- ishlab chiqarishlarni sertifikatlashtirish usullari va sifat tizimlarini tekshirish dasturlarini ishlab chiqadi;
- sifat tizimlari yoki ishlab chiqarish auditini o'tkazadi;
- sifat tizimlari yoki ishlab chiqarishlarga sertifikatlarni chizmaiylashtiradi, beradi yoki tan oladi;
- sertifikatlashtirilgan sifat tizimlari va ishlab chiqarshilar ustidan inspeksiya nazoratini amalga oshiradilar;
- sertifikatlashtirish natijalari haqida ma'lumot beradilar.

**Sertifikatlashtirishning iqtisodiy jihatlari.** Sertifikatlashtirish tizimini yaratish o'zi birdan-bir maqsad emasdir. Uning samarasi sertifikatlashtirilgan mahsulot ichki yoki tashqi bozorda sotilgandagina ko'rindi. SHuning uchun mahsulot sertifikatlashtirishini kiritish samarasini baholash mahsulot sotilishidan olingan samara  $S$ , sotishni ta'minlash uchun qilingan xarajatlar  $X$  bilan solishtirilish orqali amalga oshiriladi.

Samara mezoni  $TS$  sifatida samara  $S$  ning xarajatlar  $X$  ga nisbati qo'llanadi:

$$\Pi = \frac{C}{X}$$

Sobiq sovet ittifoqida sertifikatlashtirish odatda tashqi bozorda sotiladigan mahsulot uchun kiritilar edi. Mamlakatning ichki bozorida sotiladigan mahsulot uchun sertifikatlashtirishni kiritish maqsadga muvofiq emas edi, chunki monopolizm va defitsit sharoitlarida sifati past, standartlar talablariga muvofiq bo'limgan mahsulotlar ham xarid qilinar edi.

Bu xususda shuni aytish kerakki, mahsulot sifatini u tashqi bozorda raqobatbardosh bo'ladi darajagacha ko'tarish, uning samarasi oshishiga olib keladi. SHuning uchun bunday mahsulotdan mamlakat ichida foydalanilganda ham u samaraliroq bo'ladi.

## Xulosa

*Sertifikatsiya tizimining eng muhim elementlari sinov laboratoriyalardir. Ular mahsulotni muvofiqlik belgisi bilan tamg’alash huquqini beruvchi sertifikat yoki litsenziya berganda mahsulot sifati darajasi ishonchli baholanishini ta’minlaydi.*

*Sertifikatsiya sinovlarini o’tkazishga da’vogar sinov laboratoriyalari ma’lum mezonlarga mosligi bo’yicha, albatta, akkreditatsiyadan o’tadi. Sertifikatlashtirish paytida mahsulot sifati darajasining ishonchli bahosini olish har bir mamlakat oldida sinov laboratoriyalari milliy tarmoqlarini yaratish masalasini qo’yadi.*

*Sertifikatlashtirishning samarasi sertifikatlashtirshgan ichki yoki tishqi bozorda sotilgandagina ko’rinadi.*

*Mahsulot sifatini u tashqi bozorda raqobatbardosh bo’ladigan darajagacha ko’tarish, uning samarasi oshishiga olib keladi. SHuning uchun bunday mahsulotdan mamlakat ichida foydalanilganda ham u samaraliroq bo’ladi.*

### **2.8. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish ishlarini o’tkazish tartibi**

Sertifikatlashtirish idorasining asosiy yo’nalishi axolini sifatli mahsulotlar bilan ta’minalash maqsadida, Respublikadagi strategik muxit axamiyatga ega bo’lgan korxoanalarda ishlab chiqariladigan va valYuta shartnomalari bo’yicha Respublikaga olib kelinadigan mahsulotlarni sertifikatlashtirishdan iborat.

Sertifikatlashtirish idorasi bo’yicha mutaxassislarning asosiy maqsadi sertifikatlashtirishga taqdim qilingan buYurtma-arizalarni O’zbekiston Respublikasi “Milliy sertifikatlashtirish tizimi”dagi amalda bo’lgan me’yoriy xujjat talablari asosida ko’rib chiqib sifatli bajarishga qaratilgan. Sertifikatlashtirish ishlarini O’zbekiston Respublikasi “Milliy sertifikatlashtirish tizimi”dagi me’yoriy xujjatlar talablari asosida sifatli bajarish uchun idora tomonidan O’z Dst ISO 9001 talablari asosida sifat menejmenti sistemasi xujjatlari ishlab chiqilib, joriy qilingan.

Sertifikatlashtirish idorasi o’z faoliyati yo’nalishida asosan quyidagilar nazarda tutilgan:

- Yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlanishi;
- Sertifikatlashtirish ishlarini o'z muddatlarida, Yuqori sifatlari tarzda maqbul narxlarda amalga oshirish;
- Sertifikatlashtirish idorasi axborotlarni sir saqlash, g'ayrsizlik qoidalariga va sertifikatlashtirish natijalarini haqqoniyligini ta'minlashda bu Yurtmachilarga kafolat berish;
- Buyurtmachilar va boshqa manfaatdor tomonlar talablarini to'la qondirish maqsadida sifat menejmenti tizimini doimiy rivojlantirib borish;

Sertifikatlashtirish idorasi rahbariyati doimiy ravishda sertifikatlashtirish ishlari natijalari va sifat soxasidagi faoliyatini tahlil qilish, hamda sifat tizimlarini boshqarish bo'yicha mas'ul xisoblanadi.

## **MAHSULOTLARNI UZLUKSIZ ISHLAB CHIQARISHDA SERTIFIKATLASHTIRISH ISHLARINI O'TKAZISH TARTIBI**

- Mijoz o'rnatilgan tartibda Sertifikatlashtirish Idorasiga bu Yurtma-ariza taqdim qiladi;
- Sertifikatlashtirish Idorasi (SI) arizani ko'rib chiqib qaror qabul qiladi;
- S.I mutaxassisi topshirilgan xujjatlarni taxlilini o'tkazadi;
- O'rnatilgan tartibda mutaxassis mijoz ishtrokida ishlab chiqarish, tayyor mahsulotni saqlash sharoitlari o'rganib chiqadi;
- Texnologik jarayonda qo'llaniladigan o'lchov vositalarining xolati ko'zdan kechiriladi;
- Tayyor mahsulotni to'pidan mijoz ishtrokida M.X talablari mutaxassis namunalar tanlaydi va namunalar tanlash va identifikasiya dalolatnomasi tuziladi;
- Tanlangan namunalar sinov laboratoriyasiga topshiriladi;
- Mijoz va S.I o'rtasida o'tkaziladigan sertifikatlashtirish ishlari bo'yicha shartnomaga tuziladi;
- Sinovdan o'tkazilgan va meyoriy xujjatlar talablariga javob beradigan mahsulotga, ishlab chiqarish uchun muvofiqlik seritfikati rasmiy lashtiriladi;

- Sertifikatlashtirish ishlarini to'lovi o'tkazilgandan so'ng, muvofiqlik sertifikati mijozga beriladi.

## **Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi qoshidagi sertifikatlashtirish idorasining faoliyat sohasi**

Sertifikatlashtirish idorasini, faoliyatni olib borish uchun “O'zstandart” agentligidan akkreditatsiyadan o'tkazilgan bo'lib, №UZ.AMT. MAI. 164 attestati taqdim qilingan. Uning akkreditatsiyalash doiarsiga quyidagi mahsulotlarni serifikatlashtirish kiradi:

- Elektrotexnika mahsulotlari (Texnologik jixozlari);
- Avtomobil vositalari va ularning extiyot qismlari;
- Oziq-ovqat mahsulotlari;
- Neft va gaz mahsulotlari;
- Gusenitsali texnikalar;
- O'lchash vositalari;
- Kimyo mahsulotlari;
- Polimer mahsulotlari;
- Mineral o'g'itlar;
- Xalq iste'mol mahsulotlari va boshqalar.

## **Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi qoshidagi sertifikatlashtirish idorasi mahsulotlarni sertifikatlashtirish va sinovlarini olib borish maqsadida:**

Viloyatlardagi 17 ta xududiy sinov va sertifikatalashtirish markazlarining sertifikatlashtirish idoralari va akkreditlangan sinov laboratoriyalari;

Respublika sifat tizimlarini joriy qilish bo'limi;

16 tadan ortiq turli yo'nalishlar bo'yicha akkreditlangan sinov laboratoriyalari, hamda

**CHET EL KOMPANIYALARI:**

“GRUNDFOS-EXPORT”  
“LIEBHERR-EXPORT AG”  
“KOMATSU”  
“HEWLETT PACKART”  
“OTOYOL SANAYI A.S”  
“TEREX – GERMANY GMBH”  
“TEREX – EQUIPMENT Ltd”  
“Purolite International Ltd”  
“Crass Ventures Ltd”  
“GRUNDFOS PUMPEN VERTRIEB GMBH” bilan hamkorlikda ish olib boradi.  
ООО “Videoskop”

**Respublika sinov va sertifikatlashtirish markazi bojxona terminallari  
qoshidagi sertifikatlashtirish idorasi**

Respublika markazi qoshidagi sertifikatlashtirish idorasi  
“O’zstandart” agentligi tizimiga kiradi.

Tadbirkorlarga qulaylik yaratish va ularning vaqtini tejash maqsadida,  
Toshkent shaxrida joylashgan oltita bojxona terminallarida

- Aeroport
- Aktsiz
- Attorlik
- Ark-buloq
- Safari
- Sergeli

Sertifikatlashtirish bo’limlari mavjud bo’lib, malakali mutaxassislar  
tomonidan tadbirkorlarga namunali xizmat ko’rsatib kelinmoqda.

**Faoliyat soxasi**

Sertifikatlashtirish idorasi faoliyatini olib borish uchun akkreditatsiyadan  
o’tgan bo’lib, uning akkreditatsiya doirasiga quyidagi mahsulotlarni  
sertifikatlashtirish kiradi:

- Elektrotexnika mahsulotlari (Texnologik jixozlar);
- Avtomobil vositalari va uning extiyot qismlari;
- Mebel' mahsulotlari;
- Engil sanoat mahsulotlari;
- Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotalari;
- ParfYumeriya va kosmetika, sanitariya, gigiena vositalari, idishlar;
- Bolalar o'yinchoqlari, velosipedlar;
- Neft mahsulotlari;
- Gusenitsali texnikalar;
- O'lchash vositali;
- Qog'oz mahsulotlari;
- Polimer mahsulotlari;
- Qurilish mahsulotlari;
- Mineral o'g'itlar;
- Tekstil mahsulotlari;
- Xalq iste'mol mahsulotlari va boshqalar.

Sertifikatlashtirish idorasi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 25 martdagи №140-sonli "Davlat daromadiga o'tkaziladigan mol-mulkni olib qo'yish, sotish yoki yo'q qilib tashlash tartibi to'g'risida"gi Nizomi talablarini bajarish maqsadida:

- Prokuratura qoshidagi soliq va valYutaga oid jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti;
- Davlat bojxona qo'mitalari;
- Davlat soliq inspeksiyalari;
- Ichki ishlar boshqarmalari tomonidan davlat daromadiga olib qo'yilgan mahsulotlarni ekspertizadan o'tkazib xulosa rasmiylashtirib beradi.

### **Mahsulotni to'pi bo'yicha sertifikatlashtirish ishlarini tartibi**

- Mijoz o'rnatilgan tartibda deklaratsiya – ariza topshiradi;

- Sertifikatlashtirish organi (SO) deklaratsiya arizani ko'rib chiqib qaror chiqaradi;
- O'rnatilgan tartibda mutaxassis identifikasiyani o'tkazib mahsulotni to'pidan mijozni ishtrokida namunalar tanlaydi va namunalar tanlash dalolatnomasini tuzadi;
- Tanlangan namunalar sinov laboratoriyasiga topshiriladi;
- Mijoz va S.O o'rtasida o'tkaziladigan sertifikatlashtirish ishlari bo'yicha shartnomma tuziladi;
- Sinovdan o'tkazilgan va meyoriy xujjatlar talablariga javob bergen mahsulotni to'piga muvofiqlik serifikat rasmiylashtiriladi;
- Sertifikatlashtirish ishlarini to'lovi o'tkazilgandan so'ng, muvofiqlik sertifikati mijozga beriladi.

### **Mahsulotni sertifikatlashtirish uchun taqdim etiladigan xujjatlar**

- Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga normativ xujjat nusxasi (u mavjud bo'lganda);
  - Mahsulotni markirovka qilish namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);
  - O'zbekiston Respublikasi bojaxona xududiga etib kelganligi to'g'risidagi belgi qo'yilgan tovarning ilova xujjati (tovar-transport Yuk xati, invoys, schyot-faktura) nusxasi.

### **CHet el muvofiqlik sertifikatlarini e'tirof etish tartibi**

- Mijoz o'rnatilgan tartibda deklaratsiya – ariza topshiradi;
- Sertifikatlashtirish organi (SO) deklaratsiya arizani ko'rib chiqib qaror chiqaradi;
- O'rnatilgan tartibda SO mutaxassisi mijoz ishtrokida mahsulotni to'pini identifikasiyasini o'tkazadi;
- O'tkazilgan sertifikatlashtirish ishlari uchun mijozga to'lov shartnomasi rasmiylashtiriladi;

- Olingan xujjatlar va materiallarni taxlil qilish, shuningdek mahsulotni identifikatsiyalash asosida sertifikatlashtirish organi chet el muvofiqlik sertifikatini e'tirof etish (etmaslik) to'g'risida qaror qabul qiladi;
- Sertifikatlashtirish ishlarini to'lovini o'tkazilgandan so'ng, muvofiqlik seritifikati mijozga beriladi.

### **Chet el muvofiqlik sertifikatlarini e'tirof etish uchun taqdim etiladigan xujjatlar**

- Ishlab chiqarilayotgan mahsulotga normativ xujjat nusxasi (u mavjud bo'lganda);
- Mahsulotni markirovka qilish namunasi (mahsulot to'g'risida axborot);
- O'zbekiston Respublikasi bojxona xududiga etib kelganligi to'g'risidagi belgi qo'yilgan tovarning ilova xujjati (tovar-transport Yuk xati, invoys, schyot-faktura) nusxasi;
- Chet el muvofiqlik sertifikati (chiqaruvchi, bergen sertifikatlashtirish organi yoki notarius tomonidan tasdiqlangan nusxasi).

### **Mahsulotlarni uzlucksiz ishlab chiqarishda sertifikatlashtirish uchun buYurtmachilar tomonidan taqdim etiladigan xujjatlar**

- BuYurtma – ariza;
- Sertifikatlashtirilayotgan mahsulotga tegishli me'yoriy xujjat nusxasi;
- Gigiena sertifikati va sinov bayonomalari nusxasi;
- Mahsulot yorlig'idan nusxa.

**VALYUTA SHARTNOMALARI BO'YICHA MAHSULOTLARNI  
SERTIFIKATLASHTIRISH UCHUN BUYURTMACHILAR TOMONIDAN  
TAQDIM ETILADIGAN XUJJATLAR**

- BuYurtma – ariza;
- Shartnoma nusxasi;
- Sertifikatlashtirilayotgan mahsulotga tegishli me'yoriy xujjat nusxasi;
- Gigiena sertifikati va sinov bayonomalari nusxasi;
- Sifat tizimi sertifikati;
- Mahsulot yorlig'idan nusxa.

**MAHSULOTLARNI SERTIFIKATLASHTIRISH XIZMATLARI  
UCHUN TO'LOV QIYMATLARI (2008)**

	XIZMAT KO'RSATISH TURI	XIZMAT KO'RSATISH UCHUN KETADIGAN VAQTNING 1 SOATI UCHUN TO'LOVI (so'm)
	BuYurtma arizalarini qabul qilish va xujjatlar to'liqligini tekshirish.	4760
	Namuna tanlab olish xizmatlari uchun	4760
	Mahsulot bir xilligini tasdiqlovchi identifikasiya dalolatnomasini rasmiylashtirish uchun	4760
	Ishlab chiqarish sharoitlarini o'rganish xizmatlari uchun	4760
	Muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish uchun (1 dona)	4770

**2.9. Metrologiya va yagona o'lchov tizimi**

O'lhash ma'lumoti Yuqori aniqligini ta'minlash, mamlakatda o'lhash birliligini ta'minlash tizimi va sharoitlarini yaratish, o'lhash vositalarining o'lhash ma'lumotining kafolatli aniqligini beradigan ishlatish muddatlarini aniqlash hamda o'lhash muammosi bilan bog'liq ko'p tashkiliy-me'yoriy va huquqiy masalalarini echish metrologik tizimiga bog'langan.

Metrologik ta'minot — o'lchash ma'lumotini olish va undan foydalanishni ta'minlaydigan tashkiliy-texnikaviy chora tadbirlar majmuasidir.

Mahsulot sifati metrologik ta'minotiga xos masalalar soniga:

- o'lchash, sinash, nazorat qilish paytida baholanishi kerak bo'lgan tavsiflarni tanlash;
- o'lchash, sinash va nazorat qilish jarayonlarini rejalash, o'lchash, sinash va nazorat qilish usullarini ishlab chiqish va metrologik attestatsiyalash;
- o'lchash, sinash va nazorat qilish jarayonlarini tegishi o'lchash vositalari bilan ta'minlash;
- o'lchash vositalarini metrologik to'g'ri holatda ushlab turish;
- o'lchash, sinash va nazorat qilish jarayonlarini bajarish va natijalarini ishlash;
- o'lchash, sinash va nazorat natijalarini olish va foydalanish bilan bog'liq mutaxassislarni tayyorlash va ular malakasini oshirish;
- korxonadagi metrologik ta'minot zamonaviy texnik darajali va Yuqori sifatli mahsulotni ishlab chiqarishga mosligini aniqlash maqsadida loyiha, konstruktorlik va texnologik xujjatlarni metrologik ekspertizasidan o'tkazishlar kiradi.

Metrologik ekspertiza paytida quyidagi asosiy masalalar ko'rildi:

- nazorat paytida o'lchanadigan tavsiflar nomenklaturasini aniqlash;
- tanlangan tavsiflarning optimal (zaruriy) aniqligini joriy qilish;
- o'lchash vositalari tanlanishi to'g'rilingini baholash va o'lchash uslubiyatlariga bo'lgan talablar to'g'rilingini aniqlash;
- unifikatsiya qilingan va avtomatlashtirilgan o'lchash vositalari qo'llanganda o'lchashning berilgan aniqligini ta'minlash;
- o'lchash natijalarini ishlash usullarini aniqlash, o'lcham birliklari to'g'ri qo'llanganligini aniqlash;
- mahsulotni nazorat qilishga yaroqligi nuqtai nazaridan tahlil qilish, ya'ni tavsiflarini o'lchash imkonimiz borligini tahlildan o'tkazish.

Metrologik ekspertiza konstruktorlik xujjatlarni ishlab chiqish va texnologik

jarayonni tayyorlash bosqichlarida metrologik xatolarni bartaraf qilishga imkon beradi. Agar bu xatolar o'tib ketsa va aytib o'tilgan xujjalarga kirib qolsa, o'lchash va nazorat qilishdagi xatoliklardan iqtisodiy talafotlar va yo'qotishlar paydo bo'lishi extimoli oshadi.

Metrologiya sohasidagi xalqaro hamkorlik standartlashtirish sohasidagi hamkorlikdek xalqaro savdoga ko'maklashadi. Xamkorlik natijasida o'zaro hamjihatlikni kafolatlaydigan o'lchashlarga yagona yondashish bunyod qilinadi, o'lchash usullari va vositalarini bir xillashtirish va standartlashtirish amalga oshiriladi, mahsulotni o'lchash, sinash va nazorat qilish natijalarini o'zaro tan olish imkoni paydo bo'ladi.

Zamonaviy etalon majmualarini yaratish va ularni saqlash texnikaviy murakkab va iqtisodiy jihatdan qimmat masala bo'lganligi ham metrologiya sohasidagi keng xalqaro kooperatsiyani talab qiladi. SHunig uchun bu masalani xalqaro hamkorlik asosida echish maqsadga muvofiqdir.

Yagona o'lchov tizimi – bu o'lchovning shunday xolatiki, birliklar albatta qonunlashtirilgan va xalqaro birliklarda o'z ifodasini topgan bo'lishi kerakdir. Har bir o'lchov etalon namunalarida ko'rsatilgan birliklarda va o'lchov o'lchov orasidagi xatolik ko'rsatilgan darajadan oshmasligi lozim bo'ladi.

Yagona o'lchov tizimi to'rt asosiy printsipga asoslangan bo'ladi:


1. Hatija ko'rsatilgan birlikda bo'lishi;
2. O'lchov birligi, o'lchov vositasi, uning ko'rsatkichlari etalon ko'rsatkichlari bilan bir xil bo'lishi lozim;
3. O'lchashdan o'rtacha xatolik aniq bo'lishi lozim;
4. O'lchashdagi xatolik o'rnatilgan darajadan ortmasligi zarur. YUqorida to'rt asosiy printsplarga amal qilmay yagona o'lchov shartlarini bajarib bo'lmaydi.

Yagona o'lchov sistemasini joriy etishda xalqaro ISO – tizimi bo'yicha 9000 – seriyalari talabiga javob berishi kerak bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasida yagona o'lchov tizimini joriy etish bo'yicha xalqaro o'lchov tizimi (SI) joriy etilgan.

Xalqaro meqiyosda yagona o'lchov tizimi "tosh-torozi va o'lchovlar"ga bag'ishlangan 1961 oktyabr oyidagi XI – xalqaro konferentsiyada qabul qilinadi. Xalqaro SI tizimi ettita asosiy birlikni qabul qilgan. Ular: metr, kilogram, sekund, amper, kel'vein, mol', kandela.

Barcha o'lchov vositalari unifikatsiyalangan birlikda bo'lib keraklik standart talablariga javob beradilar. Har bir o'lchov natijasi Yuqori aniqlikda bo'lishi talab qilinadi va ular etalonga mos ravishda ko'rsatgichlar ketma-ketligini aniq qaytara olishi lozim.



#### 2.9.1. - chizma. Etalonlar klassifikatsiyasi.

CHizmada etalonlar klassifikatsiyasi keltirilgan bo'lib barcha etalonlar faqat davlat etalonlari bo'lib xizmat qiladi. Birlamchi etalon davlat etalonini bo'lib xisoblanadi va Yuqori aniqliklidagi natijalarga asoslangan. Ikkilamchi etalon tashkilot va korxonalar uchun nazorat etalonini bo'lib xizmat qiladi. Taqqoslash etalonlari maxsulotlarni etalon bilan taqqoslash lozim bo'lsa dastlabki etalonni kelitirish, tashish kabi muammolari bo'lgan vaqtida ishlatiladi.

Ishchi etalonlar zaruriyat tug'ilgan xolda 1 – 2 – 3 – 4 – razryadlarga ajratiladi. Ishchi etalonlar bevosita ishlab chiqarish korxonalarida va maxsus laboratoriyalarda o'rnatilgan bo'lishi mumkin. O'lchovning aniqlik darajasi dastlabki etalonidan farq qilmasligi ta'minlanadi.

**METROLOGIYA TO'G'RISIDA O'ZBEKISTON**  
**RESPUBLIKASINING QONUNI 28.12.1993 y. N 1004-XII**

Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o'zgartirishlar kiritilgan.

O'zR 26.05.2000 y. 82-II-son Qonuni, O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni.

I Bo'lim. Umumiy qoidalar (1-4-1 moddalar)

II Bo'lim. Fizik o'lcham birliklari, ularni qayta xosil qilish va qo'llash (5-8 moddalar)

III Bo'lim. O'zbekiston Respublikasining metrologiya xizmatlari (9-11 moddalar)

IV Bo'lim. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati (12-19 moddalar)

V Bo'lim. Metrologiya ishlarini moliyaviy ta'minlash (20-21 moddalar)

## **I BO'LIM. UMUMIY QOIDALAR**

1 - modda. Asosiy tushunchalar

2 - modda. Metrologiya to'grisidagi qonun xujjalari

3 - modda. Xalqaro shartnomalar va bitimlar

4 - modda. Metrologiyaga oid faoliyatni davlat tomonidan boshqarish

4-1-modda. O'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga oid normativ hujjatlar

### **1-modda. Asosiy tushunchalar**

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar ishlatalmoqda:

**"metrologiya"** - o'lchovlar, ularning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash usullari va vositalari hamda talab qilinadigan aniqlikka erishish yo'llari haqidagi fan;

**"yagona o'lchov birligi"** - o'lchovlarning natijalari qonunlashtirilgan birliklarda aks ettirilgan va va xatoliklari berilgan ehtimollikda ma'lum bo'lgan o'lchov holati;

**"o'lchov vositasi"** - o'lchovlar uchun foydalilanligan va normalangan metrologik xususiyatga ega bo'lgan texnika vositasi;

**"birlik etaloni"** - fizik o'lcham biriligni boshqa o'lchov vositalariga o'tkazish maqsadida uni qayta hosil qilish va saqlash uchun mo'ljallangan o'lchov vositasi;

**"davlat etalonı"** - vakolat berilgan milliy organning qarori bilan O'zbekiston Respublikasi hududida o'lchov birligining o'lchami sifatida e'tirof etilgan etalon;

**"metrologik xizmatı"** - davlat organlari va Yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari tarmog'i hamda ularning o'lchovlar yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga qaratilgan faoliyati;

**"davlat metrologiya nazorati"** - metrologiya qoidalariga rioya etilishini tekshirish maqsadida davlat metrologiya xizmati organlari amalga oshiradigan faoliyat;

**"o'lchov vositalarini tekshiruvdan o'tkazish"** - o'lchov vositalarining belgilab qo'yilgan texnik talablarga muvofiqligini aniqlash va tasdiqlash maqsadida davlat metrologiya xizmati organlari (vakolat berilgan boshqa organlar, tashkilotlar) tomonidan bajariladigan operatsiyalar majmui;

**"o'lchov vositalarini kalibrlash"** - metrologik jihatlarning haqiqiy qiymatlarini va o'lchov birliklarining qo'llashga yaroqliliginini aniqlash hamda tasdiqlash maqsadida kalibrlash laboratoriysi bajaradigan operatsiyalar majmui;

O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuniga muvofiq o'n birinchi xat boshi chiqarib tashlangan "o'lchov vositalarini yasash (ta'mirlash, sotish, ijraga berish) uchun litsenziya" - davlat metrologiya xizmati tomonidan Yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan, mazkur faoliyat turlari bilan shug'ullanish huquqini guvohlanтирувчи hujjat.

**"o'lchov vositalarini metrologik attestatsiya qilish"** - yagona namunalarda ishlab chiqriladigan (yoki O'zbekiston hududiga yagona namunalarda olib kiriladigan) o'lchov vositalarining xossalari sinchiklab tadqiq etish asosida ular qo'llanish uchun haqqoniyligining metrologiya xizmati tomonidan e'tirof etilishi;

**"metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish"** - o'lchovlarning yagona birligini ta'minlash ishlarini akkreditatsiya qilishni belgilangan sohada o'tkazishga metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalarining vakolatlari ekanligining rasmiy e'tirof etilishi; (O'zR 26.05.2000 y. 82-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

**"o'lchov vositalarini kalibrlash huquqiga ega bo'lishi uchun Yuridik shaxslar metrologiya xizmatini akkreditatsiya qilish"** - Yuridik shaxslar metrologiya xizmatining belgilangan sohada o'lchov vositalarini kalibrashdan o'tkazishga vakolatli ekanligining rasmiy e'tirof etilishi; (O'zR 26.05.2000 y. 82-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi).

**"o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini metrologik attestatsiya qilish"** - o'lchovlarni bajarish uslubiyotining unga qo'yilgan metrologiya talablariga mosligini baholash hamda tasdiqlash maqsadida tadqiqot o'tkazish; (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi), (Oldingi taxririga qarang).

**"o'lchovlarning bajarilish uslubiyoti"** - operatsiyalar va qoidalar majmui bo'lib, ularning bajarilishi hatolari ma'lum bo'lgan o'lchov natijalari olishni ta'minlaydi; (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi), (Oldingi taxririga qarang).

## **2-modda. Metrologiya to'g'risidagi qonun hujjatlari**

Metrologiya to'g'risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va O'zbekiston Respublikasining o'zga qonun hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpog'iston Respublikasida metrologiya sohasidagi munosabatlar Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

## **3-modda. Xalqaro shartnomalar va bitimlar**

Basharti xalqaro shartnomada yoki bitimda O'zbekiston Respublikasining metrologiya to'g'risidagi qonun hujjatlaridagidan o'zgacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma yoki bitim qoidalari qo'llanadi.

## **4-modda. Metrologiyaga oid faoliyatni davlat tonmonidan boshqarish**

Metrologiyaga oid faoliyatni davlat tonmonidan boshqarishni metrologiya bo'yicha milliy organ - O'zbekiston standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi ("O'zstandart" agentligi) amalga oshiradi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi qism).

"O'zstandart" vakolatiga: (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi).

Metrologiya sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshirish, metrologiyaga

oid faoliyatni mintaqalararo va tarmoqlararo muvofiqlashtirish; (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi), (Oldingi taxririga qarang).

Milliy etalonlarni yaratish, tasdiqlash, saqlash va qo'llab-quvvatlash hamda ularning xalqaro darajada solishtirshshini ta'minlash qoidalarini belgilash; (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi), (Oldingi taxririga qarang).

O'lchov vositalari, usullari va natijalariga qo'yiladigan umumiy metrologik talablarni aniqlash;

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini amalga oshirish;

Metrologiya masalalari bo'yicha normativ xujjatlarni, shu jumladan davlatning boshqa boshqaruv organlari bilan hamkorlikda O'zbekiston Respublikasining butun hududida majburiy kuchga ega bo'lgan normativ xujjatlarni qabul qilish;

Metrologiya sohasida ilmiy va muhandis-texnik kadrlar tayyorlash;

O'zbekiston Respublikasining metrologiya sohasidagi xalqaro shartnomalariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

Metrologiya masalalari bo'yicha xalqaro tashkilotlar faoliyatida qatnashish kiradi;

O'zbekiston Respublikasining o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlash tizimi faoliyat olib borishi va rivojlanishini hamda uning xalqaro o'lchov tizimi va boshqa mamlakatlarning o'lchovlar tizimlari bilan uyg'unlashuvini ta'minlash; (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi).

Iste'molchilar huquklarini, fuqarolarning sog'lig'i va xavfsizligini, atrof muhitni hamda davlat manfaatlarini noto'g'ri o'lchov natijalarining salbiy oqibatlaridan muhofaza qilishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirish. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi).

#### **4-1-modda. O'lchovlarning yagona birliqda bo'lishini ta'minlashga oid normativ hujjatlar**

O'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga oid, metrologiya normalari va qoidalarini belgilovchi hamda O'zbekiston Respublikasi hududida

majburiy kuchga ega bo'lgan normativ hujatlarni tasdiqlash va davlat ro'yxatidan o'tkazishni "O'zstandart" agentligi amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasining korxonalarini, tashkilotlari, davlat boshqaruv organlari, Yuridik shaxslar birlashmalari metrologiya sohasidagi davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tatbiq etiladigan doiradan tashqaridagi normalar va qoidalarni belgilaydigan, o'lchovlarning yagona birlikda bo'lishini ta'minlashga oid, "O'zstandart" agentligi tomonidan tasdiqlangan normativ hujatlarni aniqlashtiradigan va ularga zid bo'limgan normativ hujatlarni o'z vakolatlari doirasida ishlab chiqishlari hamda tasdiqlashlari mumkin. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi modda).

## **II BO'LIM. FIZIK O'LCHAM BIRLIKLARI, ULARNI QAYTA HOSIL QILISH VA QO'LLASH**

5 - modda. Fizik o'lcham birliklari

6 - modda. Fizik o'lchamlar birliklarining etalonlari

7 - modda. O'lchov vositalari

8 - modda. O'lchovlarni bajarish uslubiyotlari

### **5-modda. Fizik o'lcham birliklari**

O'zbekiston Respublikasida Xalqaro o'lchamlar tizimi (SI)ning fizik o'lcham birliklarini belgilangan tartibda qo'llashga yo'l qo'yiladi. Fizik o'lcham birliklarining nomi, belgisi, ularni yozish va qo'llash qoidalari "O'zstandart"ning taqdimnomasiga binoan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi qism).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi Xalqaro o'lchamlar tizimiga kiritilmagan o'lchamlarni qo'llashga ruxsat berishi mumkin.

Tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish chog'ida kontrakt shartlariga muvofiq fizik o'lchamlarning o'zga birliklari ham ishlatalishi mumkin.

### **6-modda. Fizik o'lchamlar birliklarining etalonlari**

Fizik o'lchamlarning birliklari etalonlar vositasida saqlanadi va qayta tayyorlanadi.

Etalonlarni yaratish, tasdiqlash, saqlash va qo'llash tartibini "O'zstandart" belgilaydi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi qism).

### **7-modda. O'lchov vositalari**

Foydalanishda bo'lgan o'lchov vositalari o'lchov natijalarining qonunlashtirilgan birliklarda belgilab qo'yilgan aniqlikda bo'lishini ta'minlashi va qo'llash shartlariga mos kelishi lozim.

Texnika vositalarini o'lchov vositalariga mansub deb topish mezonini "O'zstandart" belgilaydi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi qism).

### **8-modda. O'lchovlarni bajarish uslubiyotlari**

O'lchovlarni bajarish uslubiyotlari o'lchov natijalarining xatoliklarini baholashni o'z ichiga olishi va o'lchov o'tkazishning mavjud sharoitlarida belgilab qo'yilgan aniqlikni ta'minlashi lozim. O'lchovlar belgilangan tartibda attestatsiya qilingan o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlariga muvofiq holda amalga oshirilishi lozim. (O'zR 26.05.2000 y. 82-II-son Qonuni taxriridagi gap).

O'lchovlarni bajarish uslubiyotlarini ishlab chiqish va metrologik attestatsiya qilish tartibini "O'zstandart" belgilaydi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi qism), (Oldingi taxririga qarang).

## **III BO'LIM. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING**

### **METROLOGIYA XIZMATLARI**

9 - modda. O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmatining tuzilishi

10 - modda. Davlat metrologiya xizmati

11 - modda. Yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlari

### **9-modda. O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmatining tuzilishi**

O'zbekiston Respublikasi metrologiya xizmati davlat metrologiya xizmatidan va Yuridik shaxslarning metrologiya xizmatlaridan tarkib topadi.

### **10-modda. Davlat metrologiya xizmati**

"O'zstandart" boshchilik qiladigan davlat metrologiya xizmatiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi davlat metrologiya xizmati organlari kiradi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi qism).

Davlat metrologiya xizmati organlari davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini, shuningdek faoliyatning boshqa turlarini amaldagi qonun xujjaliga muvofiq amalga oshiradi.

### **11-modda. YURIDIK SHAXSLARNING METROLOGIYA XIZMATLARI**

YURIDIK SHAXSLARNING METROLOGIYA XIZMATLARI zarurat bo'lgan hollarda o'lchovlarning yagona birligini ta'minlash bo'yicha ishlarni bajarish va metrologiya nazoratini amalga oshirish uchun tuziladi.

YURIDIK SHAXSLAR METROLOGIYA XIZMATLARINING HUQUQ VA BURCHLARI DAVLAT METROLOGIYA XIZMATI ORGANLARI BILAN KELISHIB OLINGAN NIZOMLAR BILAN BELGILANADI.

## **IV BO'LIM. DAVLAT METROLOGIYA TEKSHIRUVI VA NAZORATI**

12 - modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini o'tkazish tartibi

13 - modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati ob'ektlari

14 - modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tadbiq etiladigan doiralar

15 - modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati turlari

16 modda. O'lchov vositalarining turlarini tasdiqlash

17 - modda. O'lchov vositalarini tekshiruvdan o'tkazish

18-modda. O'lchov vositalarini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularning ijerasi bilan shug'ullanish uchun Yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatiga litsenziya berish

18-1-modda. Metrologiya ishlari va xizmatlarini amalga oshirish huquqi bilan ta'minlash uchun Yuridik va jismoniy shaxslarni akkreditatsiya qilish

19 - modda. Metrologiya normalari va qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik

### **12-modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratini o'tkazish tartibi.**

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati davlat metrologiya xizmati

organlari tomonidan metrologiya normalari va qoidalariga rioya etilishini tekshirish maqsadida amalga oshiriladi.

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati metrologiya sohasidagi qonun xujjatlari talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

### **13-modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati ob'ektlari**

Quyidagilar davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratining ob'ektlari hisoblanadi:

etalonlar; o'lchov vositalari; moddalar va materiallar tarkibi hamda xossalarning standart namunalari; axborot-o'lchov tizimlari; o'lchovlarni bajarish uslubiyotlari; metrologiya normalari va qoidalarida nazarda tutilgan o'zga ob'ektlar.

### **14-modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati tatbiq etiladigan doiralar**

Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati:

sog'lijni saqlash, veterinariya, atrof-muhitni muhofaza qilish;  
moddiy boyliklarni va energetika resurslarini hisobga olish;  
savdo-tijorat, bojxona, pochta va soliq operatsiyalarini o'tkazish,  
telekommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatish; (O'zR 26.05.2000 y. 82-II-son  
Qonuni taxriridagi xat boshi)  
zaxarli, engil alanganuvchan, portlovchi va radioaktiv moddalarni saqlash,  
tashish hamda yo'q qilib tashlash;  
davlat mudofaasini ta'minlash;  
mehnat xavfsizligini va transport harakati xavfsizligini ta'minlash;  
sertifikatlanadigan mahsulotning xavfsizligi va sifatini aniqlash;  
geodezik va gidrometeorologik ishlar;  
o'lchov vositalarini davlat sinovidan, tekshiruvdan, kalibrlashdan, ta'mirlash  
va metrologik attestatsiyadan o'tkazish;  
foyDALI qazilmalarni qazib olish;  
milliy va xalqaro sport rekordlarini ro'yxatga olishga nisbatan tatbiq etiladi.  
O'zbekiston Respublikasining normativ hujjatlariga binoan davlat

metrologiya tekshiruvi va nazorati faoliyatning o'zga doiralariga nisbatan ham tatbiq etilishi mumkin.

### **15-modda. Davlat metrologiya tekshiruvi va nazorati turlari**

Davlat metrologiya tekshiruvi quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

o'lchov vositalarining turlarini sinash va tasdiqlash;

o'lchov vositalarini hamda o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini metrologik attestatsiya qilish; (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi), (Oldingi taxririga qarang)

o'lchov vositalarini, shu jumladan etalonlarni tekshiruvdan o'tkazish, kalibrlash;

o'lchov vositalarini hamda o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini sinash, tekshiruvdan o'tkazish, metrologik attestatsiya qilish, o'lchov vositalarini va metrologiya faoliyatning boshqa muayyan turlarini kalibrlash huquqiga ega bo'lishi uchun metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalarini akkreditatsiya qilish;

Yuridik va jismoniy shaxslarning o'lchov vositalarini tayyorlash, realizatsiya qilish, ularning ijerasi bilan shug'ullanishga doir faoliyati litsenziyalanayotganda mazkur shaxslarning belgilangan metrologiya normalari va qoidalariga rioya etishlarini baholash hamda tasdiqlash; (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi), (Oldingi taxririga qarang)

o'lchovlarning bajarilish sifatini va metrologiya faoliyatining boshqa turlarini baholash. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

Davlat metrologiya nazorati:

o'lchov vositalarini tayyorlash, ta'mirlash, ularning ijerasi bilan shug'ullanish, ularni realizatsiya qilish, ularning holati va qo'llanilishi (fizik o'lchamlar birliklari etalonlarini, moddalar va materiallar tarkibi hamda xossalaring standart namunalarini, o'lchov tizimlarini qo'shgan holda);

o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarining qo'llanilishi;

belgilangan metrologiya normalari va qoidalariga rioya etilishi hamda akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlari, markazlari, laboratoriyalari

faoliyati ustidan amalga oshiriladi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi qism), (Oldingi taxririga qarang)

Zarur hollarda "O'zstandart" qaroriga binoan metrologiya tekshiruvi va nazoratning boshqa turlari va shakllari xam belgilanishi mumkin. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi qism), (Oldingi taxririga qarang)

### **16-modda. O'lchov vositalarining turlarini tasdiqlash**

Ushbu Qonunning 14-moddasida ko'rsatilgan doiralarda foydalaniladigan, ishlab chiqarilishi va import bo'yicha chetdan olib kelinishi lozim bo'lgan o'lchov vositalari davlat sinovlaridan (keyinchalik ularning turini tasdiqlash sharti bilan) yoki metrologik attestatsiyadan o'tkazilishi lozim.

O'lchov vositalarining davlat sinovlarini o'tkazish, turini tasdiqlash va Davlat reestriga kiritishni "O'zstandart" amalga oshiradi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi qism)

Tasdiqlangan o'lchov vositalariga yoki ularning foydalanish xujjaligiga ishlab chiqaruvchi Davlat reestri belgisini qo'yishi shart.

Boshqa davlatlarning o'lchov vositalarini sinash va metrologik attestatsiyalash natijalari tuzilagn shartnomalar hamda bitimlarga muvofiq e'tirof etiladi.

### **17-modda. O'lchov vositalarini tekshiruvdan o'tkazish**

Tekshiruvdan o'tkazilishi lozim bo'lgan o'lchov vositalari turkumlarining ro'yxati "O'zstandart" tomonidan tasdiqlanadi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi qism)

YUridik shaxslarning akkreditatsiya qilingan metrologik xizmatlariga o'lchov vostalarini tekshiruvdan o'tkazish huquqi berilishi mumkin.

Boshqa davlatlarda amalga oshirilgan o'lchov vositalarini tekshirish natijalari xalqaro shartnomalar va bitimlar asosida e'tirof etiladi.

### **17-1-modda. O'lchov vositalarini kalibrlash**

(O'zR 26.05.2000 y. 82-II-son Qonuniga muvofiq kiritilgan modda)

Ushbu Qonunning 14-moddasida ko'rsatib o'tilganidan bo'lak sohalarda qo'llaniladigan va majburiy tekshiruvdan o'tkazilmaydigan o'lchov vositalari

ularni ishlab chiqarish, realizatsiya qilish, ishlatish, ijaraga berish, ta'mirlashda va O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda kalibrlashdan o'tkazilishi mumkin.

O'lchov vositalarini kalibrlash huquqi Yuridik shaxslarning akkreditatsiya qilingan metrologiya xizmatlariga berilishi mumkin.

YUridik shaxslarning metrologiya xizmatlarini o'lchov vositalarini kalibrlash huquqiga ega bo'lishi uchun akkreditatsiya qilish tartibi va kalibrlashni o'tkazish tartibi "O'zstandart" tomonidan belgilanadi". (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi qism)

**18-modda. O'lchov vositalarini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularning ijariasi bilan shug'ullanish uchun Yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyatiga litsenziya berish**

Ushbu qonunning 14-moddasida ko'rsatilgan doirada qo'llanilishi mumkin bo'lgan o'lchov vositalarini tayyorlash, realizatsiya qilish va ularning ijariasi bilan shug'ullanish qonun hujjatlariga muvofiq beriladigan litsenziya asosida Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi modda), (Oldingi taxririga qarang)

**18-1-modda. Metrologiya ishlari va xizmatlarini amalga oshirish huquqi bilan ta'minlash uchun Yuridik va jismoniy shaxslarni akkreditatsiya qilish**

Normativ va texnik hujjatlarni metrologik ekspertiza qilish, o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini metrologik attestatsiya qilish, ushbu qonunning 14-moddasida ko'rsatilgan doirada qo'llanilishi va foydalanilishi mumkin bo'lgan o'lchov vositalarini tekshiruvdan o'tkazish, kalibrlash, ta'mirlash, sinash, metrologik attestatsiya qilishni amalga oshirish huquqi bilan ta'minlash uchun Yuridik va jismoniy shaxslarni akkreditatsiya qilish "O'zstandart" agentligi tomonidan belgilangan tartibda amalga oshiriladi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi modda)

**19-modda. Metrologiya normalari va qoidalari buzganlik uchun javobgarlik**

Ushbu Qonunning qoidalari, shuningdek metrologiya normalari va qoidalari

buzilishida aybdor bo'lgan O'zbekiston Respublikasining Yuridik va jismoniy shaxslari, davlat boshqaruv organlari amaldagi qonun hujjaligiga muvofiq javobgar bo'ladilar.

## **V BO'LIM. METROLOGIYA ISHLARINI MOLIYAVIY TA'MINLASH**

20 - modda. Davlat tomonidan albatta moliyaviy ta'minlash

21 - modda. Metrologik ishlar va xizmatlar uchun xaq to'lash

### **20-modda. Davlat tomonidan albatta moliyaviy ta'minlash**

Davlat tomonidan quyidagilar:

metrologiyani rivojlantirish istiqbollarini ishlab chiqish;

metrologiya sohasida rasmiy axborotlar bilan ta'minlash;

metrologiya bo'yicha xalqaro, mintaqaviy tashkilotlarning ishida qatnashish va metrologiya bo'yicha chet el milliy xizmatlari bilan ishlar bajarish;

metrologiya bo'yicha xalqaro, mintaqaviy normalar hamda qoidalarni ishlab chiqish va ishlab chiqishga qatnashish;

metrologiya sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqish;

metrologiya bo'yicha umumdavlat ahamiyatiga molik ilmiy-tadqiqot va o'zga ishlarni o'tkazish;

o'lchovlarning yagona birligini ta'minlashga doir "O'zstandart" agentligi tomonidan tasdiqlanadigan normativ hujjatlarni ishlab chiqish; (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

fizik o'lcham birliklarining etolonlarini va o'ta aniq namunaviy o'lchov vositalarini ishlab chiqish, takomillashtirish, yasash, saqlash, qo'llash, sotib olish va asrash, shuningdek ularning xalqaro darajada solishtirilishini ta'minlash; (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

moddalar va materiallar tarkibi hamda hossalarining standart namunalarini, shuningdek moddalar va materiallarning fizik konstantalari hamda hossalariga oid standart spravka ma'lumotlari ishlab chiqish va joriy etish davlat tizimlarini rivojlantirishga doir ishlar;

davlat metrologiya tekshiruvi va nazoratiga doir ishlar albatta bYudjetdan moliyaviy ta'minlanishi shart. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

## **21-modda. Metrologiya ishlari va xizmatlari uchun haq to'lash**

O'lchov vositalarini sinash, tekshiruvdan o'tkazish, o'lchovlarning bajarilish uslubiyotlarini attestatsiya qilish, normativ va texnik hujjatlarni metrologik ekspertiza qilish, texnik jihatdan asosliligi hamda belgilangan metrologiya normalari va qoidalariga muvofiqligini baholash, o'lchovlarning bajarilish sifatini baholash bo'yicha Yuridik hamda jismoniy shaxslarga ko'rsatilayotgan metrologiya ishlari va xizmatlari uchun, shuningdek metrologiya faoliyatining davlat tomonidan moliyalashtirish sohasiga kirmaydigan turlari uchun manfaatdor shaxslar tomonidan haq tuziladigan shartnomalarning shartlariga muvofiq to'lanadi. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi modda), (Oldingi taxririga qarang)

**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

**I.Karimov**

## **2.10. Iste'molchilar huquqlarini ximoya qilish**

Halqaro meqiyosda iste'molchilar huquqlarini ximoya qilish kuni 1983 yildan boshlab nishonlanadigan bo'ldi. Iste'molchilar huquqini ximoyalash kuni nishonlanishiga asos bo'luvchi Amerika Qo'shma SHatlari prezidenti Djon Kennedy 1961 yil 15 martdagি AQSH kongresida qilgan ma'rzasida iste'molchilarning 4 asosiy huquqlarini ta'kidlab o'tadi. Ular: iste'molchilarning tanlash xuquqlari, iste'molchilar xavsizligini ta'minlash, axbotor erkinligi, o'z fikirlarini bayon etish huquqlari edi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 9 aprel 1985 yildagi kengashida "Iste'molchilar huquqlarini himoyalash tamoillari" xaqida qaror qabul qilinadi va AQSH prezidenti Dj. Kennedy atganlariga quyidagilar qo'shimcha qilinadi: bilim olish, oziq-ovqat mahsulotlaridan qoniqish, uy-joyga ega bo'lish, kiyinish, ichish, sifatli xizmatga va huquqlari paymol bo'lgan taqdirda ularning o'rnini qoplash qo'shimcha xolida tavsiya etildi va bu xaqda BMT qaror qabul qildi.

Rossiya federatsiyasida “Iste’molchilarning huquqlarini ximoya qilish” to’g’risidagi qonun 1992 yilda qabul qilinadi va 1994 yil 15 mart kuni “Iste’molchilar xuquqlarini ximoya qilish” kuni bayram sifatida nishonlanishi belgilanadi.

O’zbekiston Respublikasi “Iste’molchilarning xuquqlarini ximoya qilish to’g’risida”gi qonun 1996 yil 26 aprelda qabul qilinadi. Ushbu qonunga 2002 yil 5 aprelda 364-II – sonli, 2003 yil 25 aprel 482-II – sonli O’zbekiston Respublikasi qonuni asosida qo’shimchalar kiritiladi.

O’zbekiston Respublikasi “Iste’molchilarning xuquqlarini ximoya qilish to’g’risida”gi qonun har tomonlama mukammal ishlab chiqilgan va 30 ta moddaning o’z ichiga oladi. Qonunda qo’llaniladigan barcha asosiy tushunchalar aniq, tushunarli va halqaro normalarga to’la javob beradigan holda o’z ifodasini topgan.

## **“ISTE’MOLCHILARNING XUQUQLARINI HIMOYA QILISH O’G’RISIDA”GI QONUN (26.04.1996 y)**

Mazkur Qonunga quyidagilarga muvofiq o’zgartirishlar kiritilgan

O’zR 05.04.2002 y. 364-II-son qonuni, O’zR 25.04.2003 y. 482-II-son qonuni

### **1-modda. Ushbu Qonunda qo’llaniladigan asosiy tushunchalar**

Ushbu Qonunda quyidagi tushunchalar qo’llaniladi:

iste’molchi - foyda chiqarib olish bilan bog’liq bo’lmagan holda shaxsiy iste’mol yoki boshqa ma’satlarda tovar sotib oluvchi, ish, xizmatga buYurtma beruvchi yoxud shu niyatda bo’lgan fuqaro (jismoniy shaxs); (O’zR 05.04.2002 y. 364-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

ishlab chiqaruvchi - iste’molchiga realizatsiya qilish uchun tovar ishlab chiqaradigan korxona, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko’rsatuvchi tadbirkor; (O’zR 05.04.2002 y. 364-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

ijrochi - maishiy xizmat, uy-joy-kommunal, ta’mirlash-qurilish, transport xizmati va xizmat ko’rsatishning boshqa sohalarida shartnoma bo’yicha iste’molchi uchun ishlar bajaradigan yoki xizmatlar ko’rsatadigan korxona,

tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor; (O'zR 05.04.2002 y. 364-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

sotuvchi - oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha iste'molchiga tovar realizatsiya qiladigan korxona, tashkilot, muassasa yoki yakka tartibda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkor; (O'zR 05.04.2002 y. 364-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

shartnoma - tovarni olish-sotishni amalga oshirishda, ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatishda sifat, miqdor, muddat, narx va boshqa shartlar to'g'risida iste'molchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o'rtasidagi og'zaki yoki yozma kelishuv;

tovar - ishlab chiqaruvchi faoliyatining iste'molchiga shartnoma bo'yicha sotish uchun mo'ljallangan mahsuli, shu jumladan import mahsuloti;

normativ hujjatlar - standartlar, ularga tenglashtirilgan boshqa hujjatlar (qurilish normalari va qoidalari, dori-darmonlar xususidagi davlat farmokopeyasi hamda muvafaqiat farmokopeya qoidalari va boshqalar), texnik shartlar, texnik tavsiflar, retseptura va tovar (ish, xizmat) sifatiga va xavfsizligiga nisbatan belgilangan talablarni o'z ichiga oluvchi boshqa hujjatlar;

tovar (ish, xizmat)ning xavfsizligi - tovarni iste'mol qilish, undan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilishning, shuningdek ish yoki xizmat natijalaridan foydalanishning odatdagi sharoitlarida iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga va atrof muhitga zarar etkazilishi ehtimoli bilan bog'liq xavf-xatarning yo'qligi;

muvofiglik sertifikati - sertifikatlangan mahsulotning belgilangan talablarga muvofigligini tasdiqlovchi hujjat;

tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni - tovar (ish, xizmat)ning normativ hujjatlarning majburiy talablariga, shartnoma shartlariga yoxud tovar (ish, xizmat)ning sifatiga odatda qo'yiladigan talablarga nomuvofiqligi;

tovar (ish, xizmat)ning jiddiy nuqsoni - tovar (ish, xizmat)dan belgilangan maqsadda foydalanib bo'lmaydigan qilib qo'yadigan yoxud bartaraf etish uchun ko'p mehnat va vaqt sarflash talab qiladigan kamchilik;

kafolat muddati - tovardan (xizmatdan) foydalanishning (oylar hisobidagi)

normativ muddati yoki tovar (xizmat)ning muayyan vazifani (necha soatda, nechta ish jarayonida, qancha kilometr masofani bosib o'tib va h.k) bajarish vaqt tarzida belgilangan muddati bo'lib, bu muddat ichida ishlab chiqaruvchi (ijrochi), basharti tovarni ishlatish (xizmatdan foydalanish) qoidalariга rioxanah etilgan bo'lsa, tovarning (xizmatning) sifatiga nisbatan normativ hujjatlarda nazarda tutilgan talablar bajarilishini kafolatlaydi va ta'minlaydi;

xizmat muddati - tovardan foydalanishning belgilangan muddati bo'lib, u tamom bo'lgach, tovarning texnik holatidan qat'i nazar, undan foydalanish to'xtatilishi lozim;

yaroqlilik (saqlash) muddati - muayyan davr bo'lib, bu davrda tovar foydalanishga yaroqli bo'ladi va u tamom bo'lgach, tovar odamlar hayoti hamda sog'lig'i uchun xavf tug'dirishi mumkin;

kassa cheki - tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to'langanligini tasdiqlaydigan, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to'langan sana va kassa apparatining nomeri ko'rsatilgan hujjat;

tovar cheki - tovarning sotib olinganligini yoki ish (xizmat)ning haqi to'langanligini tasdiqlaydigan, tovar (ish, xizmat)ning bahosi, haq to'langan sana hamda sotuvchining nomi va joylashgan manzili haqidagi ma'lumot ko'rsatilgan hujjat.

## **2-modda. Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlari**

Iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'hrisidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan va boshqa qonun hujjatlaridan iboratdir.

Qoraqalpohiston Respublikasida iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish Qoraqalpog'iston Respublikasi qonun hujjatlari bilan ham tartibga solinadi.

Qonun hujjatlari ushbu Qonunda belgilangan iste'molchilarining huquqlarini cheklab qo'yishi, ularni himoya qilishning kafolatlarini kamaytirishi mumkin emas.

## **3-modda. Xalqaro shartnomalar va bitimlar**

Agar O'zbekiston Respublikasi ishtirok etgan xalqaro shartnomalar yoki bitimda

iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnomaga yoki bitim qoidalari qo'llaniladi.

#### **4-modda. Iste'molchilarning asosiy huquqlari**

Iste'molchilar quyidagi huquqlarga ega:

tovar (ish, xizmat) haqida, shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) haqida to'g'ri va to'liq ma'lumot olish;

tovar (ish, xizmat)ni erkin tanlash va uning tegishli darajada sifatli bo'lishi;

tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo'lishi; hayoti, sog'lig'i va mol-mulki uchun xavfli nuqsoni bo'lган tovar (ish, xizmat), shuningdek ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning g'ayriqonuniy harakati (harakatsizligi) tufayli etkazilgan moddiy ziyon, ma'naviy zararning to'liq hajmda qoplanishi;

buzilgan huquqlari yoki qonun bilan muhofaza etiladigan manfaatlari himoya qilinishini so'rab sudga, boshqa vakolatli davlat organlariga murojaat etish;

iste'molchilarning jamoat birlashmalarini tuzish.

Iste'molchilarning ijtimoiy himoyaga muhtojlar toifasiga kiritilgan ayrim guruhlari uchun qonun hujjatlari bilan savdo, maishiy xizmat va xizmat ko'rsatishning boshqa turlari bo'yicha imtiyozlar va afzalliklar belgilanishi mumkin.

#### **5-modda. Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi), savdo va xizmat ko'rsatish qoidalari to'g'risidagi ma'lumot**

Ishlab chiqaruvchi o'z korxonasining nomi va joylashgan (Yuridik) manzili haqida iste'molchini xabardor qilishi shart. Bunday ma'lumot ishlab chiqarish markasi yoki tovar belgisida ko'rsatilgan bo'lishi yoxud boshqa usulda taqdim etilishi lozim.

Sotuvchi (ijrochi) o'z tashkilotining firma nomi, uning joylashgan (Yuridik) manzili va ish tartibini iste'molchiga ma'lum qilishi shart. Bunday ma'lumot lavhada aks ettirilishi lozim.

Ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan ma'lumot savdo va xizmat ko'rsatish muvaqqat binolar, yarmarkalar, ko'chma do'konchalar orqali

amalga oshirilgan yoki savdo va xizmat ko'rsatish sotuvchi (ijrochi)ning doimiy joylashgan manzilidan tashqarida amalga oshirilgan boshqa hollarda ham iste'molchilar e'tiboriga etkazilishi kerak.

Sotuvchi (ijrochi) iste'molchiga tovarlar savdosi, maishiy va boshqa turdag'i xizmat ko'rsatishning qoidalari to'g'risida to'liq ma'lumot berishi shart.

#### **6-modda. Tovar (ish, xizmat)lar to'g'risidagi ma'lumot**

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchiga o'zi realizatsiya qilayotgan tovar (ish, xizmat)lar haqida o'z vaqtida zarur, to'g'ri va tushunarli ma'lumot berishi shart.

Tovar (ish, xizmat) haqidagi ma'lumotda quyidagilar ko'rsatilishi shart:

tovar (ish, xizmat) majburiy talablariga muvofiq kelishi shart bo'lgan normativ hujjatning nomi;

tovar (ish, xizmat)ning asosiy iste'mol xususiyatlari, shu jumladan o'ziga xos xususiyatlari ro'yxati;

bahosi va sotib olish shartlari;

ayrim turdag'i tovarlarning ishlab chiqarilgan sanasi;

ishlab chiqaruvchi (ijrochi)ning kafillik majburiyatları;

tovardan samarali va xavfsiz foydalanish qoidalari hamda shartlari;

tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati va ushbu muddat tugaganidan keyin iste'molchi nima ishlar qilishi zarurligi, shuningdek bunday ishlarni bajarmaslik natijasida kelib chiqishi mumkin bo'lgan oqibatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;

ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning nomi va mulkchilik shakli, ro'yxatga olish va litsenziya guvohnomasining nomeri;

ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)ning hamda ular iste'molchidan da'vo qabul qilishga vakolat bergen, shuningdek ta'mirlash ishlarini bajaradigan va texnikaviy xizmat ko'rsatadigan korxonalarining manzillari;

tovarlarni saqlash, xavfsiz utilizatsiya qilish usullari hamda qoidalari;

teatr-kontsert tadbirdari o'tkazilayotganda fonogrammadan foydalaniishi to'g'risidagi axborot. (O'zR 05.04.2002 y. 364-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

Sertifikatlanishi shart bo'lgan tovar haqida iste'molchiga uning

sertifikatlanganligi to'g'risida ma'lumot taqdim etilishi lozim.

Tovar (ish, xizmat) haqidagi zarur axborotning yo'qligi bunday tovar (ish, xizmat)ni realizatsiya qilish ma'lumot berilgunga qadar tegishli davlat boshqaruvi organining ko'rsatmasi bo'yicha to'xtatib turilishiga sabab bo'ladi.

### **7-modda. Tovar (ish, xizmat) haqida noto'g'ri ma'lumot berilgan taqdirda iste'molchining huquqlari**

Agar tovar (ish, xizmat) haqida noto'g'ri yoki etarli darajada to'liq bo'limgan ma'lumot berilganligi:

zarur iste'mol xossaliga ega bo'limgan tovar (ish, xizmat) sotib olinishiga sabab bo'lsa, iste'molchi shartnomani bekor qilishga va o'ziga etkazilgan zararning qoplanishini talab qilishga haqlidir;

sotib olingan tovar (ish, xizmat)dan ko'zlangan maqsadda foydalana olmaslikka sabab bo'lsa, iste'molchi tegishli ma'lumot oqilona qisqa (ko'pi bilan uch kunlik) muddatda berilishini talab qilishga haqlidir. Agar ma'lumot aytilgan muddatda berilmasa, iste'molchi shartnomani bekor qilib, zararning qoplanishini talab qilishga haqlidir;

iste'molchining hayotiga, sog'lig'iga yoxud mol-mulkiga zarar etkazilishiga sabab bo'lsa, u ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) oldiga qonun hujjalarda nazarda tutilgan talablarni qo'yishga haqlidir.

Iste'molchining tovar (ish, xizmat) haqidagi noto'g'ri yoki etarli darajada to'liq bo'limgan ma'lumot tufayli etkazilgan zararni qoplash to'g'risidagi talablari sotib olingan tovar (ish, xizmat)ning xossalari va jihatlari haqida iste'molchi maxsus bilimga ega emas degan taxminga asoslanib qarab chiqiladi.

Noto'g'ri reklama oqibatida sotib olingan tovar (ish, xizmat) tufayli iste'molchiga etkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim.

### **8-modda. Iste'molchining savdo va boshqa xizmat ko'rsatish turlari sohasida shartnoma tuzish hamda sotib olinayotgan tovar (ish, xizmat) sifatini tekshirish huquqi**

Iste'molchi shartnoma tuzish yo'li bilan tovarni (ish, xizmatni) erkin sotib

olish huquqiga ega bo'lib, bu shartnomaga ko'ra sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) iste'molchiga muayyan miqdordagi va maqbul sifatli tovarni mulk qilib topshirish (ish bajarish, xizmat ko'rsatish) majburiyatini, iste'molchi esa, shartlashilgan pulni to'lash majburiyatini o'z zimmalariga oladilar.

Narxnama bilan qo'yilgan tovarlar hamda tovar (ish, xizmat)lar haqida keluvchilar e'tiboriga havola etiladigan ma'lumot tegishli shartnomani tuzish uchun taklif deb hisoblanadi.

Tomonlar o'rtasida shartnomada narsasi, miqdor, narx va boshqa muhim shartlar to'g'risida kelishuvga erishilsa, iste'molchi bilan ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) o'rtasida shartnomada tuzilgan deb hisoblanadi.

Tuzilgan zahoti bajariladigan shartnomada, qoida tariqasida, og'zaki shaklda tuziladi, qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan hollar bundan mustasno. Tuzilgan vaqtdan boshqa paytda (oldindan beriladigan bu Yurtmalar bo'yicha, jo'natma savdoda va boshqa hollarda) bajariladigan shartnomada yozma shaklda tuziladi.

Iste'molchi sotib olingan tovar (ish, xizmat) sifatini, butligini, vazni va narxini tekshirish huquqiga ega, sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) esa, nazorat-o'lchov asboblarini, narxga doir hujjatlarni taqdim etishi, tovarni ishlatib ko'rsatishi, undan xavfsiz va to'g'ri foydalanishni o'rgatishi, zarurat bo'lsa, tovarni ekspertizaga Yuborishi shart.

## **9-modda. Oldi-sotdi shartnomalarining ayrim turlari to'g'risidagi qoidalar**

Oldi-sotdi shartnomalarining ayrim turlari to'g'risidagi qoidalar, shuningdek ayrim turdag'i tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tasdiqlanadi. (O'zR 05.04.2002 y. 364-II-son Qonuni taxriridagi modda matni)

## **10-modda. Tovar (ish, xizmat)lar uchun haq to'lash shakli hamda tartibi**

Tovar (ish, xizmat)lar uchun haq to'lash shakli hamda tartibi iste'molchi bilan sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) o'rtasidagi kelishuvga binoan belgilanadi.

Tovarlarni kreditga sotish O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan tasdiqlanadigan tovarlarni kreditga sotish qoidalari bilan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

Oldi-sotdi amalga oshirilganda iste'molchiga kassa yoki tovar cheki beriladi. Tovarni kassa yoki tovar chekini bermasdan sotish taqiqlanadi.

### **11-modda. Ishlab chiqaruvchi (ijrochi)ning kafillik majburiyatları**

Uzoq muddat foydalaniladigan barcha turdag'i tovarlar va xizmatlarga ishlab chiqaruvchi (ijrochi) kafolat muddati belgilashi lozim. Kafolat muddati tovar iste'molchiga sotilgan yoki xizmat ko'rsatilgan kundan boshlab hisoblanadi. Agar tovar sotilgan kunni aniqlashning imkonni bo'lmasa, bu muddat tovar ishlab chiqarilgan kundan boshlab hisoblanadi.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi) kafolat muddati mobaynida tovar (xizmat)ning, shu jumladan butlovchi buYumlarning normal ishlashini (qo'llanilishini, ulardan foydalanilishini) ta'minlashi shart.

Butlovchi buYumlarning kafolat muddati, agar qonun hujjatlarida boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, asosiy buYumning kafolat muddatidan kam bo'lmasligi lozim.

Kafolat muddati tovar (xizmat)ning pasportida yoki tovarni sotish yoxud xizmat ko'rsatish paytida tovar bilan birgalikda iste'molchiga beriladigan boshqa hujjatda ko'rsatiladi.

Ishlab chiqaruvchi tovardan kafolat muddati va xizmat muddati mobaynida foydalanish imkoniyatini ta'minlashi, tovarning ta'mirlanishini va unga texnik xizmat ko'rsatilishini tashkil etishi, tovarni ishlab chiqarish muddati mobaynida hamda u ishlab chiqarishdan olib tashlanganidan keyin tovarning xizmat muddati mobaynida, bunday muddat bo'limgan taqdirda esa, tovar ishlab chiqarishdan olib tashlangan paytdan e'tiboran o'n yil mobaynida etarli hajmda va turda ehtiyoq qismlari ishlab chiqarishi hamda savdo va ta'mirlash tashkilotlariga etkazib berishi shart.

Dori-darmon, oziq-ovqat va maishiy kimyo tovarlarida ular ishlab chiqarilgan sana va yaroqlilik muddati hamda saqlash shartlari ko'rsatilgan bo'lishi lozim.

Sotuvchilarning yaroqlilik muddati ko'rsatilmagan yoki bu muddati o'tib ketgan tovarlarni qabul qilishi va realizatsiya qilishi man etiladi.

## **12-modda. Iste'molchining tovar (ish, xizmat) xavfsiz bo'lishiga talab qo'yish huquqi**

Iste'molchi o'zi sotib olgan tovar (ish, xizmat) sanitariya-gigiena, shu jumladan radiologiya, epidemiyaga qarshi talablarga va amaldagi boshqa normalar hamda qoidalarga rioya etgan holda ishlab chiqarilgan yoki bajarilgan bo'lishiga va uning hayoti, sog'lig'i, atrof muhit uchun xavfsiz bo'lishiga, shuningdek uning mol-mulkiga zarar etkazmasligiga kafolat berilishini talab qilish huquqiga ega.

Tovar (ish, xizmat)ning iste'molchilar hayoti, sog'lig'i, mol-mulki va atrof muhit uchun xavfsiz bo'lishiga doir talablar qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tovar (ish, xizmat)ning xizmat muddati yoki yaroqlilik muddati mobaynida, agar bunday muddat belgilanmagan bo'lsa, tovar iste'molchiga sotilgan (ish bajarilgan) kundan e'tiboran o'n yil mobaynida uning xavfsiz bo'lishini ta'minlashi shart.

Iste'molchilarning hayoti, sog'lig'i, mol-mulki hamda atrof muhit uchun xavf tug'diruvchi tovar ishlab chiqarganlik (ish bajarganlik, xizmat ko'rsatganlik) uchun qonun hujjatlariga muvofiq:

ishlab chiqaruvchi (ijrochi);

normativ hujjatlarni tasdiqlagan organ;

muvofiqlik sertifikati bergen organ;

sog'lijni saqlash, tabiatni muhofaza qilish, veterinariya xizmati organlari yoki xavfli tovar (ish, xizmat)ni ishlab chiqarish yoxud realizatsiya qilishga ruxsat bergen boshqa organlar javobgar bo'ladi.

Tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo'lishi ta'minlanmaganligi oqibatida iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga etkazilgan zarar ushbu Qonunning 20-moddasiga muvofiq qoplanishi lozim.

Agar tovar (ish, xizmat)dan xavfsiz foydalanish yoki uni shu tarzda tashish va saqlash uchun maxsus qoidalarga rioya etish zarur bo'lsa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi) bunday qoidalarni ishlab chiqishi, sotuvchi (ijrochi) esa, ularni

iste'molchilar e'tiboriga etkazishi shart.

Agar tovardan foydalanish, uni saqlash, tashish yoki utilizatsiya qilish, ish (xizmat) natijalari iste'molchining hayoti, sog'lig'i, mol-mulkiga yoki atrof muhitga zarar etkazayotganligi yoxud zarar etkazishi mumkinligi aniqlansa, ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) zarar keltiruvchi sabablar bartaraf etilgunga qadar ularni ishlab chiqarishni (bajarishni, uni realizatsiya qilishni) darhol to'xtatishi, muomaladan chiqarish va iste'molchilardan qaytarib olish choralarini ko'rishi shart.

Zararning sabablarini bartaraf etish mumkin bo'limgan taqdirda, ishlab chiqaruvchi (ijrochi) bunday tovarni ishlab chiqarishdan olib tashlashi, ishni bajarishni va xizmat ko'rsatishni to'xtatishi shart, shu bilan birga oziq-ovqat mahsuloti sotuvchi yoki ishlab chiqaruvchi tomonidan albatta utilizatsiya qilinishi kerak. Bu majburiyatlar ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tomonidan bajarilmagan taqdirda tovarni ishlab chiqarishdan olib tashlash, ishni bajarishni va xizmat ko'rsatishni to'xtatib qo'yish, muomaladan chiqarish va iste'molchilardan qaytarib olish tovar (ish, xizmat)ning xavfsiz bo'lishi va sifati ustidan nazorat qiluvchi davlat boshqaruvi organlarining ko'rsatmasi bilan amalga oshiriladi.

Iste'molchining hayoti, sog'lig'i va mol-mulkiga hamda atrof muhit uchun xavfli bo'lган tovarlarning partiyalarini muomaladan chiqarish, ishlarni bajarishni va xizmatlar ko'rsatishni taqiqlab qo'yish tartibi O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilanadi.

Tovarni qaytarib olish, ishni bajarishni va xizmat ko'rsatishni taqiqlab qo'yish munosabati bilan iste'molchiga etkazilgan zarar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) tomonidan to'liq hajmda qoplanishi lozim.

Agar ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) xavfli xossalarga ega bo'lган tovarni qaytarib olish Yuzasidan barcha zarur choralarini ko'rgan bo'lsa, u iste'molchi mazkur tovardan foydalanishni davom ettiraverishi tufayli etkazilgan zarar uchun javobgarlikdan ozod qilinadi.

### **13-modda. Iste'molchiga nuqsonli tovar sotilganda uning huquqlari**

Nuqsonli tovar sotilgan iste'molchi, agar bu hol shartnoma tuzish paytida

aytib o'tilmagan bo'lsa, o'z xohishiga qarab quyidagilardan birini talab qilishga haqli:

tovarni ayni shunday markali (modelli, artikulli) maqbul sifatli tovarga almashtirib berish;

tovarni boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib, uning xarid narxini tegishincha qayta hisob-kitob qilish;

tovarning nuqsonlarini bepul bartaraf etish yoki iste'molchining yoxud uchinchi shaxsning nuqsonlarni bartaraf etishga qilgan xarajatlarini qoplash;

xarid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirish;

shartnomani bekor qilib, ko'rilgan zararni qoplash.

Agar nuqsonlar:

tovarning kafolat muddati yoxud yaroqlilik muddati mobaynida;

kafolat muddati va yaroqlilik muddati belgilanmagan tovarlar bo'yicha olti oy mobaynida;

ko'chmas mulk iste'molchiga o'tkazilgan kundan e'tiboran ikki yil mobaynida, agar shartnomada bundan uzoqroq muddat nazarda tutilmagan bo'lsa;

mavsumiy tovarlar uchun O'zbekiston Respublikasi Hukumati tomonidan belgilangan muddat mobaynida aniqlangan bo'lsa, iste'molchi mazkur huquqlarini ro'yobga chiqarishi mumkin.

Iste'molchi o'ziga sotilgan, to'plamlar, garniturlar, komplektlar va komplekslarning mustaqil tarkibiy qismi bo'lган va mustaqil narxga ega bo'lган buYumlarda nuqsonlar borligini aniqlagan taqdirda, butun to'plam, garnitur, komplekt va kompleksga nisbatan ham, ularning nuqsonlari bor mustaqil tarkibiy qismlariga nisbatan ham ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan talablarni qo'yishga haqlidir.

Ushbu moddaning birinchi qismida bayon etilgan talablarni iste'molchi sotuvchiga qo'yadi.

Iste'molchining talablari u kassa yoki tovar chekini, kafolat muddati belgilangan tovarlar bo'yicha esa, tegishlicha rasmiylashtirilgan texnik pasport yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa hujjatni taqdim etgan taqdirda ko'rib chiqiladi.

Iste'molchi texnik pasportni yo'qotib qo'ygan taqdirda, uni qayta tiklash qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi.

Tovarda aniqlangan nuqsonlar ishlab chiqaruvchi tomonidan bartaraf etiladi. Ishlab chiqaruvchi bilan sotuvchining o'zaro munosabatlari shartnomaga bilan tartibga solinadi.

#### **14-modda. Nuqsonli tovarni almashtirib berish tartibi**

Iste'molchi tovarning ishlab chiqarilishiga, tuzilishiga, tarkibiga doir kamchiliklarni yoki boshqa nuqsonlarni aniqlagan taqdirda sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) uni ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga etti kunlik muddatda, tovar sifatini qo'shimcha ravishda tekshirish zarur bo'lganida esa, iste'molchi talab qo'ygan paytdan e'tiboran yigirma kun ichida almashtirib berishi shart.

Ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar bo'lмаган taqdirda, iste'molchining almashtirib berish xususidagi talabi da'vo qilingan paytdan e'tiboran bir oy ichida qondirilishi kerak. Cho'l va olis joylarda, tovarlar vaqtivaqti bilan olib boriladigan joylarda iste'molchining bunday talabi ushbu joylarga navbatdagi tovar etkazib berish uchun ketadigan muddat ichida, lekin ikki oydan kechiktirmay qondirilishi lozim.

Ana shu muddatlarning o'tkazib Yuborilgan har bir kuni uchun sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchiga almashtirilgan tovarni berish bilan bir vaqtida tovar bahosining bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to'laydi.

Iste'molchining roziligi bilan sotuvchi nuqsonli tovarni boshqa markali (modelli, artikulli) shunday tovarga almashtirib berib, xarid narxini tegishinchaligiga qayta hisob-kitob qilishi shart.

#### **15-modda. Tovar nuqsonlarini bepul bartaraf etish tartibi**

Tovarda kafolat muddatida topilgan nuqsonlarni sotuvchi iste'molchi tegishli talab qo'ygan paytdan e'tiboran yigirma kun ichida, ishlab chiqaruvchi esa, o'n kun ichida bepul bartaraf etishi lozim.

Iste'molchi kafolat muddati tugaganidan keyin tovarning nuqsonlarini bepul bartaraf etish to'g'risida ishlab chiqaruvchiga talab qo'yishga haqli. Bunday talab,

basharti tovarda ishlab chiqaruvchining aybi bilan yo'1 qo'yilgan jiddiy nuqsonlar aniqlangan bo'lsa, belgilangan xizmat muddati mobaynida, agar xizmat muddati belgilanmagan bo'lsa, o'n yil mobaynida qo'yilishi mumkin.

Uzoq muddat davomida foydalaniladigan tovarni ta'mirlashga ketadigan vaqtda foydalanib turish uchun iste'molchining talabiga binoan nuqsonli tovar qaytarib berilganidan keyin uch kun ichida unga ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovar berib turiladi (sotuvchining hisobidan uning o'zi yoki vakili eltib beradi). Buning uchun ishlab chiqaruvchi sotuvchi bilan birgalikda shartnomaga asosida tovarlarning almashuv fondini nazarda tutishlari shart. Mazkur talablar tatbiq etilmaydigan uzoq muddat davomida foydalaniladigan tovarlar ro'yxatini O'zbekiston Respublikasi Hukumati belgilaydi.

Tovardagi nuqsonlarni bartaraf etish xususida talab qo'yilgan taqdirda, undan foydalanishning kafolat muddati iste'molchining tovardan foydalana olmagan davrga teng muddatga uzaytiriladi. Mazkur muddat iste'molchi nuqsonlarni bartaraf etish talabi bilan murojaat etgan kundan e'tiboran hisoblana boshlaydi.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchining ta'mirlashga ketadigan vaqtda foydalanish uchun shunday tovarni berib turish haqidagi talabini bajarish kechiktirilgan har bir kun uchun, shuningdek nuqsonlarni bartaraf etishning shartnomadan kelib chiqadigan muddatlaridan ortiq kechiktirilgan har bir kun uchun tovar narxining bir foizi miqdorida iste'molchiga neustoyka (penya) to'laydi.

### **16-modda. Iste'molchining nuqsonli tovarning xarid narxin nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirishni yoki shartnomani bekor qilishni talab qilish huquqi**

Agar sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) iste'molchining tovari almashtirib berish yoki undagi nuqsonlarni bartaraf etish haqidagi talablarini bajarmagan bo'lsa, iste'molchi tovarning xarid narxini nuqsonga mutanosib ravishda kamaytirishni yoki shartnomani bekor qilib, etkazilgan ziyon va ma'naviy zararni ushbu Qonunning 20 va 22-moddalariga muvofiq qoplashni talab qilishga haqli.

### **17-modda. Iste'molchiga nuqsonli tovar sotilgan taqdirda u bilan hisob-**

## **kitob qilish**

Nuqsonli tovar ayni shunday markali (modelli, artikulli) tovarga almashtirib berilgan vaqtda tovarning narxi o'zgargan bo'lsa, qayta hisob-kitob qilinmaydi.

Nuqsonli tovar boshqa markali (modelli, artikulli) tovarga almashtirib berilayotganda, agar almashtirilishi kerak bo'lган tovar narxi uning o'rniga berilayotgan tovar narxidan past bo'lsa, iste'molchi narxlardagi farqni qo'shimcha ravishda to'lashi lozim, almashtirilishi kerak bo'lган tovar narxi uning o'rniga berilayotgan tovar narxidan Yuqori bo'lsa, iste'molchiga narxlardagi farq qaytariladi. Bunday hisob-kitob chog'ida almashtirilishi kerak bo'lган tovar narxi oshgan taqdirda, uning talab qo'yilgan paytdagi narxi, narxi pasaygan taqdirda esa, xarid qilingan paytdagi narxi qo'llaniladi.

SHartnoma bekor qilinayotganda tovar narxi oshgan bo'lsa, iste'molchi bilan hisob-kitob tovarning tegishli talab qo'yilgan paytdagi qiymatiga qarab, narxi pasaygan taqdirda esa, xarid qilingan paytdagi qiymatiga qarab amalga oshiriladi.

Tovar iste'molchilarga kreditga sotilgan bo'lsa, shartnoma bekor qilingan taqdirda, pul summasi tovar qaytarilayotgan paytga qadar uzilgan kredit miqdorida qaytarib beriladi, shuningdek kredit bergenlik haqi to'lanadi.

Hajmi katta yoki vazni besh kilogrammdan ziyod tovarni ta'mirlash, narxini tushirish, almashtirish uchun eltish va iste'molchiga qaytarib keltirib berish sotuvchining (ishlab chiqaruvchining) kuchi bilan va uning hisobidan amalga oshiriladi. Ushbu majburiyat bajarilmagan taqdirda tovarni eltish va qaytarib olib kelish iste'molchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bunda iste'molchining tovarni eltish va qaytarib olib ketish bilan bog'liq xarajatlarini sotuvchi (ishlab chiqaruvchi) qoplashi shart.

## **18-modda. Iste'molchining maqbul sifatli tovarni almashtirib olish huquqi**

Iste'molchi maqbul sifatli nooziq-ovqat tovarini xarid qilgan kunidan e'tiboran o'n kun ichida ushbu tovar sotib olingan joydagi sotuvchidan uni ayni shunday tovarga almashtirib olishga, bunday tovar sotuvda bo'lmasa, pulini qaytarib olishga haqli.

Almashtirib olish tartibi va almashtirib berilmaydigan tovarlar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Hukumati tasdiqlaydigan qoidalar bilan belgilanadi.

## **19-modda. Ishni bajarish, xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnoma**

### **shartlari buzilgan taqdirda iste'molchining huquqlari**

Ijrochi ayrim turdag'i ishlarni bajarish (xizmatlar ko'rsatish) qoidalarida yoki shartnomada belgilangan muddatda, hajmda va sifatda ishni bajarishi (xizmat ko'rsatishi) shart.

Ishni bajarish (xizmat ko'rsatish) muddati ish bajarilishi (xizmat ko'rsatilishi) lozim bo'lган sanaga (davrga), shuningdek ijrochi ishni bajarishga (xizmat ko'rsatishga) kirishishi lozim bo'lган sanaga (davrga) qarab belgilanishi mumkin. Agar ish bajarish, xizmat ko'rsatish shartnomaning amal qilish muddati davomida qismlarga bo'lib-bo'lib ado etiladigan bo'lsa (vaqtli matbuotni etkazib berish, texnik xizmat ko'rsatish va boshqalar), ishlar bajarish (xizmatlar ko'rsatish)ning bosqichma-bosqich muddatlari (davrлari) nazarda tutilishi kerak.

Agar ijrochi shartnomani ijo etishga o'z vaqtida kirishmasa yoki shartnomaning belgilangan muddatda bajarilmasligi ayon bo'lib qolsa, iste'molchi ishni bajarish, xizmat ko'rsatish to'g'risidagi shartnomadan voz kechishga va etkazilgan zararning qoplanishini talab qilishga haqli.

Agar ijrochi shartnoma shartlarini ish (xizmat)ni yomonlashtirgan darajada jiddiy buzgan bo'lsa, yoxud ishda (xizmatda) boshqa jiddiy nuqsonlarga yo'l qo'ygan bo'lsa, iste'molchi o'z xohishiga ko'ra nuqsonlar bepul bartaraf etilishini, bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat) bahosi nuqsonlarga mutanosib ravishda kamaytirilishini, xuddi shunday sifatli shu xildagi materialdan boshqa buyum bepul tayyorlab berilishini yoxud ishning takroran bajarilishini yoinki shartnoma bekor qilinib, ko'rilgan zarar to'liq qoplanishini talab qilishga haqli.

Iste'molchi ushbu moddaning to'rtinchi qismida ko'rsatilgan huquqlarni:

ishni (xizmatni) qabul qilib olish vaqtida yoki uning bajarilishi jarayonida nuqsonlar aniqlangan taqdirda;

kafolat muddati davomida, kafolat muddati bo'lмаган taqdirda esa, ish (xizmat) qabul qilib olingan kundan e'tiboran olti oy davomida;

imorat yoki boshqa ko'chmas mulkda nuqsonlar aniqlangan kundan e'tiboran ikki yil davomida ro'yobga chiqarishi mumkin.

Ish bajarish (xizmat ko'rsatish) jarayonida aniqlangan nuqsonlarni bartaraf etish muddatlari shartnomada belgilab qo'yiladi. Bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat)dagi nuqsonlar, agar shartnomada bir muncha qisqaroq muddat belgilanmagan bo'lsa, iste'molchi talab qilgan kundan e'tiboran yigirma kun ichida ijrochi tomonidan bartaraf etilishi kerak. Nuqsonlar belgilangan muddatda bartaraf etilmagan, shuningdek ish bajarishni (xizmat ko'rsatishni) boshlash va tugallash kechiktirilgan taqdirda, ijrochi iste'molchiga har bir kechiktirilgan kun, soat (agar muddat soatlarda belgilangan bo'lsa) uchun ish (xizmat) qiymatining yoki buYurtma qiymatining (agar uning qiymati alohida belgilanmagan bo'lsa) bir foizi miqdorida neustoyka (penya) to'laydi.

Iste'molchi undirib olgan neustoyka (penya) summasi ish bajarish (xizmat ko'rsatish)ning alohida turi bahosidan yoki buYurtmaning umumiy bahosidan ortiq bo'lishi mumkin emas.

Bajarilgan ishdagi nuqsonlarni bartaraf etish kechiktirilganligi uchun ijrochi to'lagan neustoyka (penya) qoplanishi lozim bo'lgan zarar hisobiga kirmaydi.

Ijrochining majburiyatni umuman yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun neustoyka (penya) to'lashi va zararni qoplashi uni majburiyatni asl holida bajarishdan ozod etmaydi.

Iste'molchidan qabul qilib olingan ashyo (material) yo'qolgan, ishdan chiqqan, unga putur etgan taqdirda yoki iste'molchining materialidan foydalanib bajarilgan ishda jiddiy nuqsonlar bo'lsa yoki u buzib bajarilgan taqdirda ijrochi iste'molchiga aynan o'xhash sifatli ashyni qaytarishi (o'zining aynan o'xhash sifatli materialidan ish bajarishi yoki xizmat ko'rsatishi), buning imkoniyati bo'lmasa taqdirda esa, ashyoning (materialning) talab qo'yilgan paytdagi qiymatini ikki baravar qilib to'lashi shart.

Ijrochi tomonidan ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun qabul qilib olinayotgan ashyo (material) qiymati shartnoma tuzish paytida tomonlarning kelishuviga muvofiq belgilanadi.

Ishda (xizmatda) jiddiy nuqsonlar mavjud bo'lganida yoki shartnoma talablari jiddiy buzilganida, shuningdek ashyo (material) yo'qolgan, ishdan chiqqan, unga putur etgan taqdirda iste'molchi bilan hisob-kitob ishning (xizmatning) yoki materialning shartnomani bekor qilish paytidagi oshgan narxini hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

Sifatsiz bajarilgan ish (ko'rsatilgan xizmat) tufayli iste'molchiga etkazilgan zarar uchun ijrochi ushbu Qonunning 20, 22, 27, 29-moddalariga muvofiq javobgar bo'ladi.

Ishlar bajarish va xizmatlar ko'rsatish to'g'risida tuzilgan shartnomalar bo'yicha iste'molchilar bilan ijrochi o'rta sidagi munosabatlarning o'z mohiyatiga ko'ra ushbu moddaga mos kelmaydigan hususiyatlari, shuningdek shartnomalarning umuman yoki lozim darajada ijro etilmaganligi tufayli kelib chiqadigan oqibatlar bunday shartnomalarning alohida turlari to'g'risida qonun hujjatlarida belgilab qo'yiladigan qoidalar bilan aniqlanadi.

## **20-modda. Tovar (ish, xizmat)ning nuqsonlari tufayli etkazilgan zarar uchun mulkiy javobgarlik**

Tovar (ish, xizmat)ning tuzilishiga, ishlab chiqarilishiga, tarkibiga bog'liq bo'lgan va boshqa nuqsonlari, shuningdek iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkining xavfsizligini ta'min eta olmaydigan materiallar, uskunalar, asbob-anjomlar, moslamalar yoki boshqa vositalar qo'llanilishi oqibatida iste'molchining hayotiga, sog'lig'i yoki mol-mulkiga etkazilgan zarar sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) tomonidan qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) bilan shartnoma munosabatlariiga kirishgan-kirishmaganidan qat'i nazar, har qanday iste'molchi tovar (ish, xizmat)ning nuqsoni tufayli etkazilgan zarar qoplanishini talab qilish huquqiga ega.

Iste'molchining hayoti, sog'lig'i yoki mol-mulkiga etkazilgan zarar, agar u normativ hujjatlarda nazarda tutilgan tovarning xizmat (yaroqlilik) muddati mobaynida, bunday muddat belgilanmagan taqdirda esa, tovar ishlab chiqarilgan (ish, xizmat qabul qilingan) paytdan e'tiboran o'n yil mobaynida Yuzaga kelgan

bo'lsa, qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ishlab chiqaruvchi, ijrochi) zarar bartaraf qilib bo'lmaydigan kuch yoki foydalanish, saqlash yoxud tashishning belgilangan qoidalari iste'molchi tomonidan buzilishi tufayli etkazilganligini isbotlasa, u javobgarlikdan ozod qilinadi.

## **21-modda. SHartnomaning iste'molchi huquqlarini cheklab qo'yadigan shartlari haqiqiy emasligi**

SHartnomaning iste'molchi huquqlarini cheklab qo'yadigan va qonun hujjatlariga zid bo'lgan talablari haqiqiy emas deb hisoblanadi. Agar ularni qo'llanish natijasida iste'molchiga zarar etkazilgan bo'lsa, bu zarar ishlab chiqaruvchi (sotuvchi, ijrochi) tomonidan qoplanishi lozim.

Sotuvchi (ijrochi) iste'molchini haq evaziga qo'shimcha tovarlar sotib olishga yoki qo'shimcha xizmatlardan foydalanishga qistashga haqli emas.

## **22-modda. Ma'naviy zarar uchun haq to'lash**

Iste'molchining huquqlari buzilishi tufayli unga etkazilgan ma'naviy zarar uchun uni etkazgan shaxs, basharti u aybdor bo'lsa, haq to'lashi lozim. Ma'naviy zarar uchun to'lanadigan haq miqdorini sud belgilaydi.

Ma'naviy zarar uchun haq to'lash mulkiy ziyon va iste'molchi ko'rghan zararning o'rni qoplanishidan qat'i nazar, amalga oshiriladi.

## **23-modda. Iste'molchilar huquqlarining davlat tomonidan himoya qilinishini ta'minlash**

Davlat iste'molchilarning tovar(ish, xizmat) sotib olish va undan foydalanish chog'idagi huquqlari hamda qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlari himoya qilinishini kafolatlaydi.

Iste'molchilarning huquqlari davlat tomonidan himoya qilinishini davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shuningdek sudlar ta'minlaydilar.

Quyidagilar iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish uchun maxsus vakolat berilgan davlat organlaridir: O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi; O'zbekiston

standartlashtirish, metrologiya va sertifikatlashtirish agentligi (bundan buyon matnda "O'zstandart" agentligi deb Yuritiladi); O'zbekiston Respublikasi Sog'lioni saqlash vazirligi; O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi; O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi; iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini o'z vakolatlari doirasida nazorat qiluvchi boshqa davlat boshqaruvi organlari. (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi qism), (Oldingi taxririga qarang)

#### **24-modda. Mahalliy hokimiyat organlari tomonidan iste'molchilar huquqlarining himoya qilinishi**

Iste'molchilar huquqlari himoya qilinishi uchun mahalliy hokimiyat organlari: iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish sohasidagi qonun hujjatlari bajarilishini tashkil etadilar;

iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish vakolati berilgan davlat organlari va iste'molchilarining jamoat birlashmalari bilan hamkorlik qiladilar;

iste'molchilarining shikoyatlari, arizalari va takliflarini ko'rib chiqadilar;

iste'molchilarining (iste'molchilar nomuayyan doirasining) huquqlarini himoya qilib sudlarga murojaat etadilar;

o'z huquqlari doirasida boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

#### **25-modda. O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda uning hududiy organlari vakolatlari**

(O'zR 05.04.2002 y. 364-II-son Qonuni taxriridagi modda nomi)

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda uning hududiy organlari iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish maqsadida: (O'zR 05.04.2002 y. 364-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshiradilar;

iste'molchilarining huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini

qo'llanish masalalari Yuzasidan rasmiy tushuntirishlar beradilar;

iste'molchilarning huquqlarini buzayotgan kamchiliklarni bartaraf etish to'g'risida ishlab chiqaruvchilarga (ijrochilarga, sotuvchilarga) ko'rsatmalar yo'llaydilar;

iste'molchilarning (iste'molchilar nomuayyan doirasining) huquqlarini himoya qilib, sudga murojaat etishga haqlidir;

qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshiradilar.

## **26-modda. Tovarlar (ishlar, xizmatlar) xavfsiz bo'lismeni va ularning sifatini nazorat qiluvchi davlat boshqaruvi organlarining vakolatlari**

Tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lismeni va ularning sifatini ta'minlash maqsadida "O'zstandart" agentligi, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo'mitasi hamda tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishi va sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi boshqa davlat boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida: (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lismiga va ularning sifatiga doir majburiy talablarni belgilaydilar hamda bu talablarga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradilar;

tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lismiga va ularning sifatiga doir talablar buzilishini bartaraf etish, past sifatli tovarlarni ishlab chiqarishdan olib tashlash, chiqarish va realizatsiya qilishni to'xtatish (ishlar bajarilishini, xizmatlar ko'rsatilishini to'xtatish), ularni iste'molchilardan qaytarib olish to'g'risida ishlab chiqaruvchilarga (ijrochilarga, sotuvchilarga) ko'rsatmalar

yo'llaydilar, shuningdek bu haqda iste'molchilarni xabardor qiladilar;

ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi)lar tovarlar (ishlar, xizmatlar) xavfsiz bo'lishi va ularning sifatiga doir talablarni buzganlari taqdirda ularning ustidan sudlarda da'vo qo'zg'atadilar.

Tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishi va ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlari faoliyatini O'zbekiston

Respublikasi Hukumati muvofiqlashtirib boradi.

## **27-modda. Iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik**

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgar bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamda uning hududiy organlari, agar ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) iste'molchilar huquqlarining buzilishini bartaraf etish to'g'risidagi ko'rsatmalarini bajarishdan bo'yin tovlasa yoki o'z vaqtida bajarmasa, unga jarima solishga haqli. (O'zR 05.04.2002 y. 364-II-son Qonuni taxriridagi qism)

"O'zstandart" agentligi va ushbu Qonun 26-moddasining birinchi qismida ko'rsatilgan davlat boshqaruving boshqa organlari: (O'zR 25.04.2003 y. 482-II-son Qonuni taxriridagi xat boshi)

tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) majburiy sertifikatlash qoidalari ishlab chiqaruvchi (ijrochi) tomonidan buzilsa;

o'zlarining ko'rsatmalarini ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) bajarishdan bo'yin tovlasa, o'z vaqtida yoki lozim darajada bajarmasa;

normativ hujjat talablariga javob bermaydigan tovar (ish, xizmat) tufayli iste'molchilarga zarar etkazilsa, jarimalar solishga haqlidir.

Jarima miqdori va uni undirish tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi. Jarima so'zsiz undirib olinadi.

Jarima solish ishlab chiqaruvchini (ijrochini, sotuvchini) yo'l qo'yilgan qonunbuzarliklarni bartaraf qilish majburiyatidan ozod etmaydi. (O'zR 05.04.2002 y. 364-II-son Qonuni taxriridagi qism)

O'zR 05.04.2002 y. 364-II-son Qonuniga muvofiq beshinchi, oltinchi va ettinchi qismlari tegishinchalik oltinchi, ettinchi va sakkizinchi qismlar deb hisoblansin

Ishlab chiqaruvchi (ijrochi, sotuvchi) davlat boshqaruvi organining ko'rsatmasini to'liq yoki qisman haqiqiy emas deb topish yoxud jarima solish

haqidagi qarorni bekor qilish yoki o'zgartirish to'g'risidagi ariza bilan sudga murojaat etishga haqlidir.

Ariza berish, agar sud ko'rsatmalarning yoki jarima solish haqidagi qarorning ijro etilishini to'xtatib turish to'g'risida ajrim chiqarmagan bo'lsa, uni sudda ko'rib chiqish davrida bu hujjatlarning bajarilishini to'xtatib qo'ymaydi.

Tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishi haqidagi talablarga javob bermaydigan tovar (ish, xizmat)lar tufayli iste'molchilarga zarar etkazilsa, tovarlar (ishlar, xizmatlar) xavfsiz bo'lishi va ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat boshqaruvi organlarining mansabdor shaxslari qonun hujjatlariga muvofiq javobgar bo'ladilar.

### **28-modda. Moliyaviy xizmatlar sohasida iste'molchilarning huquqlarini himoya qilish**

Moliyaviy xizmatlar ko'rsatadigan ijrochi o'zining tugatilishi yoki bankrot bo'lishi ehtimolini nazarda tutgan holda iste'molchilarning talablarini qondirish maqsadida o'z javobgarligini sug'urta qildirishi shart.

Moliyaviy xizmatlar ijrochisi iste'molchiga etkazilgan zarar uchun o'zining javobgarligi to'g'risida sug'urta shartnomasi borligi haqida iste'molchiga axborot berishi shart.

### **29-modda. Iste'molchilarning huquqlarini sud orqali himoya qilish**

Iste'molchining huquqlari buzilgan taqdirda, u sudga murojaat qilishga haqlidir. Da'volar, agar qonunlarda boshqacha qoida belgilanmagan bo'lsa, javobgar, iste'molchi joylashgan erdag'i yoki zarar etkazilgan joydag'i sudga taqdim etiladi.

Iste'molchilar o'z huquqlarining buzilishi bilan bog'liq da'volar bo'yicha, shuningdek tovar (ish, xizmat)lar xavfsiz bo'lishi va ularning sifati ustidan nazoratni amalga oshiruvchi davlat organlari, iste'molchilarning jamoat birlashmalari iste'molchining (iste'molchilar nomuayyan doirasining) manfaatlarini ko'zlab qo'zg'atiladigan da'volar bo'yicha davlat boji to'lashdan ozod qilinadilar.

### **30-modda. Iste'molchilarning jamoat birlashmalari**

Iste'molchilar o'z huquqlari va manfaatlarini himoya qilish maqsadida ixtiyoriy ravishda iste'molchilar birlashmalarini tuzishlari mumkin.

Iste'molchilarning birlashmalari o'z faoliyatini qonun hujjaligiga muvofiq amalga oshiruvchi jamoat birlashmalaridir.

Xozirgi kunda, sir emas butun dunyoda iste'molchilar xuquqlari turli darajada poymol etilishi davom etmoqda. Iste'molchilar xuquqlarini poymol bo'lishiga qarshi barcha rivojlangan davlatlarda "Iste'molchilarning xuquqlarini ximoya qilish" federatsiyalari tuzilgan.

Bu borada eng masuliyatlik ishni standartlashtirish tashkilotlari amalga oshirayapdi.

Albatta, sizga talabga javob bermaydigan maxsulot sotilgan bo'lsa Yu, sotuvchi yoki etkazib beruvchi sizning talabingizga (etirozingizga) ijobjiy javob bermasa, unday xollarda huquq targ'ibot, jamoat tashkilotlari yoki advokatura idoralariga murojaat qilishingiz mumkin, ular esa faqat qonungaamal qilgan xolda ish ko'radilar. Siz esa "Iste'molchilarning xuquqlarini ximoya qilish to'g'risida"gi qonunni yaxshi bilishingiz kerak bo'ladi. Qonunni yaxshi bilish muammoni echimini topishda katta kuch xisoblanadi.

### **O'z-o'zini nazorat qilish uchun savol va topshirshqlar**

1. Mahsulot sifati nima va uni qanday baholanadi?
2. Sifat qanday ko'rsatkichlar bilan aniqlanadi?
3. Sifat ko'rsatkichlarini aniqlash usullari?
4. Raqobatning qanday turlari mavjud?
5. Raqobatbardoshlik nima va u qanday anitslanadi?
6. Raqobatbardoshlikni boshqarishga yondashishining qanday jihatlarini bilasiz?
7. Raqobatbardoshlikning qanday ko'rsatkichlarini bilasiz?
8. Sifatni oshirishning asosiy yo'naliishlari?
9. Standartlashtirishning mahsulot sifatiga qiladigan ta'siri haqida gapirib bering. Ilgarilab va majmuuy standartlashtirish nima?
10. Sifatning metrologik ta'minoti nimadan iborat?

11. Mahsulotning hayotiy tsikli bosqichlari va uning sifati bir-biri bilan qanday bog'langan?
12. Mahsulot sifatini boshqarish jarayoni qanday operatsiyalar (harakatlardan) iborat?
13. Mahsulot sifatini boshqarishning qanday mezonlarini bilasiz?
14. Sifatni boshqarishning asosiy shaklini tushuntirib bering.
15. Mahsulot sifatining integral kursatkichi nima?
16. Sifatning optimal darajasi nima?
17. Mahsulot sifatini boshqarishning majmuiy tizimi haqida gapirib bering.
18. Rivojlangan mamlakatlarda mahsulot sifatini boshqarish tizimlari nimaga asoslangan?
19. Yaponiyaning mahsulot sifatini boshqarish tizimlari haqida gapirib bering.
20. Mahsulot sifatini boshqarishning qanday statistik usullarini bilasiz? Ularning qanday afzallikkleri va kamchiliklari mavjud.
21. Iste'molchilar huquqlarini ximoyalash qonuni nechta moddadan iborat?
22. Standartlashtirish deb nimaga aytildi?
23. Standartlar mahsulot sifatiga qanday ta'sir qiladi?
24. Standartlarning Yuqori sifatini ta'minlash uchun qanday majburiy tamoyillarni bajarish lozim ?
25. Standartlashtirishning nazariy asosi nima?
26. Afzal sonlarning qatorlari qanday talablarga javob berishi kerak?
27. Afzal sonlar qatorlarini tashkil qiluvchi progressiyalar xususiyatlari haqida gapirib bering.
28. Qaysi hollarda afzal sonlardan chetga chiqishga yo'l quyiladi?
29. Afzal sonlarning tanlangan qatorlari qanday hosil qilinadi?
30. Qaysi hollarda afzal sonlarning hosila qatorlari qo'llanadi?
31. Sifatni boshqarish tizimlari asosi nima?
32. Davlat standartlari oldida mahsulotni ishlab chiqish, sotish va aylanish, iste'mol qilish va foydalanish bosqichlarida kanday masalalar qo'yiladi?

33. Majmuiy standartlashtirish haqida gapirib bering.
  34. Nima unun va qanday standartlashtirish ishlab chiqarishning samaradorligiga ta'sir qiladi?
  35. Standartlashtirishning samaradorligi qanday aniqlanadi?
  36. Nima uchun standartlarni ishlab chiqishda varianlilik zarur?
  37. Standartlashtirishdan olinadigan integral samara nima?
  38. Innovatsion loyhaning turli variantlarini taqqoslashda qanday ko'rsatkichlar qo'llanadi?
  39. Sertifikatlashtirish deb nimaga aytildi?
  40. Muvofiqlikning qanday turlari qabul qilingan?
  41. O'z-o'zini sertifikatlashtirish nima va u uchinchi tomon sertifikatlashtirishidan nima bilan farqlanadi?
  42. Mahsulot standartlar talablariga muvofiqligi nima bilan tasdiqlanadi?
  43. Sertifikatlashtirish nimani kafolatlaydi?
  44. Uchtchi tomon sertifikatlashtirishi misollarini keltiring.
45. Qanday sertifikatlashtirish organlarini bilasiz?
46. Sertifikatlashtirish organining vazifalari nimalardan iborat?
  47. Sertifikatlashtirish tizimlari qaerlarda yaratilishi mumkin?
  48. Uchinchi tomon sertifikatlashtirishi tizimlari tarkibiga qaysi organlar kiradi?
  49. Sertifikatlashtirishning asosiy maqsadi nima va undan qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?
  50. Sertifikatlashtirish bo'yicha qanday xalqaro tashkilotlar mavjud?
  51. SERTIKO nima?
  52. Sanoati rivojlangan mamlakatlardagi sertifikatlash.
  53. Rivojlanayotgan mamlakatlardagi sertifikatlashtirish haqida nimalarni bilasiz?
  54. O'zbekiston Respublikasidagi sertifikatlashtirish markazlari.
  55. Sertifikatsiya sinovlari qaerda o'tkaziladi?
  56. Sinov laboratoriyalarini akkreditlash uchun qanday talablar qo'yiladi?

57. Turli mamlakatlarda sinov laboratoriylarini akkreditlash xosiyatlari nimada?

58. Iqtisodiyot nuqtai nazaridan sertifikatlashtirish nima beradi?

## **MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH BO'YICHA ATAMALAR QISQACHA LUG'ATI**

**Bitim** — ikki tomon o'rtaida boyliklar bilan tijoriy almashinish: bitimlar pulli yoki barter buladi.

**Bozor** — tovarlarning real va potentsial sotuvchi va xaridorlari majmui xarakat qiladigan almashinish soxasi; tovarlarni sotish bilan borliq almashinish soxasidagi iqtisodiy munosabatlar majmui.

**Bozorni segmentlash** — xaridorlar, bozorlarni xaridorlar undovi va boshqa o'ziga xos xususiyatlarga qarab, aloxida guruh, qism (segment) larga ajratish.

**Bozor segmenti** — marketingning undovchi rag'batlantirishiga bir xil javob beradigan xaridorlar majmui.

**BuYurtma** — ma'lum tovar (xizmat) ni xarid qilish xaqida jiddiy niyat bildirilgan va sotib olish uchun barcha zaruriy talablar bayon qilingan xujat.

**Vositachilar** — tovarlarni transportlash, saqlash, sotish va boshqa vositachilik xizmatlarini bajaruvchi aloxida shaxslar yoki tashkilotlar.

**Demping** — tovarlarni o'rtacha bozor narxidan sezilarli darajada pastroq, ayrim xrollarda tannarxidan xam pastroq narxga sotish.

**Diversifikasiya** — tovar assortimentini almashtirish, firmaning asosiy ishlab chiqarishi bilan bog'liq bo'limgan soxalarga kirishi.

**Diler** — savdogar, iste'molchi va ishlab chiqaruvchi o'rtaidagi vositachi; o'z hisobidan bitimlar tuzadigan birja savdogari.

**Investor** — bo'sh pul mablag'lariga ega va ularni qimmatbaho qog'ozlarni sotib olishga tayyor tashkilot, shaxslar.

**Ishlab chiqarish va sotish imkonlarining taxlili** — uylangan tovar va marketing strategiyasi firma maqsadlariga muvofiqligini aniqlab beradigan sotish, xarajat va foydaning mo’ljallangan nazorat ko’rsatkichlarining tahlili.

**Ishlab chiqaruvchi** — sotish uchun mahsulot yoki xizmat ishlab chiqaruvchi firma.

**Kvota** — ma’lum turdagи tovarlarni mamlakatga olib kirishga (import) yoki mamlakatdan olib chiqishga (eksport) ruxsat etilgan miqdoriy chegarasi.

**Kotirovka** — tovar birjalarida narxlarni ro’yxatga olish hamda birja tovarlarining narxi.

**Litsenziya** — davlat organlari tomonidan ma’lum xo’jalik faoliyati ko’rsatish uchun berilgan ruxsatnomasi: tovarni mamlakatga olib kelish yoki mamlakatdan olib chiqish xuquqini beradigan; patentlar bilan ximoyalangan ixtirolardan, texnologiyalardan, tovar markalaridan foydalanish xuquqini beradigan.

**Marka** — sotuvchi tovarlari yoki xizmatlarini raqib tovarlari yoki xizmatlaridan ajratib olish maqsadida ularni tanib olishga mo’ljallangan nom, atama, belgi, timsol, chizma yoki ular majmui.

**Marka belgisi (emblema)** — markaning tanib olsa bo’ladigan, lekin talaffuz qilib bo’lmaydigan qismi (timsol, tasvir).

**Mahsulotning hayotiy tsikli** — buYum niyat qilingandan u ishlab chiqarish va sotuvdan olib tashlanishigacha bo’lgan muddat. Marketingda tsiklning quyidagi bosqichlari ko’riladi: 1) vujudga kelishi (ishlab chiqish, loyixalash, eksperimentlar); 2) o’sish (buYumning bozorda paydo bo’lishi, talabni shakllantirish); 3) etuklik (turkumli ishlab chiqarish, keng sotish); 4) bozor to’yinishi; 5) sotuv va buYum ishlab chiqarishning so’nishi.

**Mehnat bozori** — mehnat haqi yoki tovarlar evaziga o’z ish kuchini taklif qilmoqchi bo’lgan odamlar majmui.

**Mijozlar** — firma mijozlarining tuzilmasi.

**Milliy bozor** — mazkur mamlakatning ichki bazorlari majmui.

**Moda** — faoliyatning mazkur muxitida, ayni vaqtda eng ommaviy yoki keng tarqalgan uslub.

**Moliya bozori** — inson va tashkilotlarga qarzga olish, pul YIG'ISH va ularning saqlanishini kafolatlaydigan imkoniyatlarni takdim etadigan bozor.

**Monopolistik faoliyat** — xo'jalik sub'ektlari, hokimiyat va boshqaruvenin organlarining raqobatga Yul qo'ymaslikka va bu xarakatlari bilan iste'molchilar manfaatlarini buzadigan qonunga xilof harakatlari.

**Nazorat qilinmaydigan (boshqarilmaydigan) omillar** — firma faoliyatiga ta'sir qiladigan va uning tomonidan boshqarilmaydigan marketing muhitining omillari.

**Nazorat qilinuvchi (boshqariluvchi) omillar** — marketing muhitining firma rahbariyati va marketing xodimlari tomonidan boqariladigan (nazorat qilinadigan) omillari.

**Narx** — tovarni olish uchun xaridor to'lashi zarur bo'lgan pul summasi.

**Narxga qushimcha** — xaridorning alohida talablariga muvofiq belgilanadigan narxga qo'shimcha.

**Nou-xau** — xujjatlar shaklida chizmaiylashtirilgan, lekin patentlanmagan texnikaviy, tijorat, iqtisodiy va boshqa bilimlar, tajriba, ko'nikmalar majmui.

**Noelastik talab** — narxida bir oz o'zgarishlar bo'lishiga qaramasdan domiy bo'lishlik tendentsiyasiga ega talab.

**Pablisiti** — mazkur tashkilot va uning tovarlari xaqida axborotni tarqatish bilan bog'liq ish aloqalari, reklama, taqsimlash kanallarida tovarlarni surish shakli.

**Raqib** — mazkur bozorda o'xshash tovarni sotayotgan firma yoki alohida shaxs.

**Raqobat** (keng ma'noda) — qandaydir soxada bir maqsadga erishishga manfaatdor bo'lgan aloxida shaxslar (raqiblar) orasidagi musobaqa.

**Reklama** — g'oya, tovar, xizmatlarni ma'lum investor nomidan taqdim etish va ilgari surishning har qanday to'lovli shakli.

**Reklamatsiya (da'vo)** — majburiyatlar nomuvofiq bajarilishi munosabati bilan berilgan arznomasi.

**Sotishning tahlili** — marketing strategiyasi yaroqligini baholash maqsadida sotish haqida ma'lumotlarning batafsil tahlili.

**Sotishni rag'batlantirish** — tovar yoki xizmatni xarid qilish yoki sotishni rag'batlantirishning qisqa muddatli undov choralari.

**Standartlashtirish** — mavjud yoki bo'lajak masalalarga nisbatan umuman va ko'p marta tatbiq etiladigan talablarni belgilash orqali ma'lum sohada eng maqbul darajada tartiblashtirishga yo'naltirilgan ilmiy-texnikaviy faoliyat.

**Tovar** — bozorda sotiladigan mahsulot, oldi-sotdi ob'ekti; sotish sohasiga (bozorga) kelgan mahsulot yoki xizmat, iste'molga almashinish, oldi-sotdi orqali kelgan insonning qandaydir ehtiyojini qondirishga mo'ljallangan mehnat mahsuloti.

**Tovar assortimenti** — vazifasi, narxlar ko'lami yoki boshqa xususiyatlari o'xshashligi bo'yicha bir-birlari bilan uzviy bog'langan tovarlar guruxi.

**Tovar belgisi** — huquqiy himoya bilan ta'minlangan marka yoki uning qismi.

**Tovar birjalari** — vazifasi, sifati bir jinsli standart sifat ko'rsatkichlari (namunalar) bo'yicha partiyalar bilan sotiladigan ommaviy tovarlarning doim faoliyat ko'rsatadigan bozorlari.

**Tovar bozori** — ishlab chiqarish yoki iste'mol xususiyatlari o'xshash (poyabzal bozori, avtomobil bozori, xom ashyo bozori) aniq tovarlar bozori.

**Tovar harakati** — ishlab chiqaruvchining omboridan xaridorga mahsulot to'siqsiz etib borishini ta'minlash. Tovarni **oldinga surish** yoki **sotishni rag'batlantirish** — tovar ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga etib borishiga ko'maklashuvchi faoliyat.

**To'lashga qodir talab** — tovarni mazkur narxda xaridor sotib olishga qodir va to'lashga tayyor talab; bozorda hosil bo'lgan narxlarda talabi mayjud tovar miqdori.

**Ulgurji savdo** — qayta sotish yoki kasbiy foydalanish maqsadida tovarlarni oladiganlarga sotish bo'yicha har qanday faoliyat.

**Uslub** — insonning qandaydir faoliyatida ifodaning zamonaviy shakli.

**Xarajat** — korxona, tashkilotlarning mahsulotni ishlab chiqarish va sotish, xizmat qilish uchun qilgan pul hisobida ifodalangan sarflari majmui.

**Xarajatlar tahlili** — ishlab chiqarish va sotishga qilinadigan xarajatlarni qisqartirish imkonini aniqlaydigan tahlil.

**Xaridor bozori** — bozorda mavjud talabdan taklif ko'prok, bo'lgandagi vaziyat.

**Xizmat** - biror narsaga ega bo'lishga olib kelmaydigan chora-tadbir; sezilmas foyda.

**CHakana savdo** — bevosita oxirgi iste'molchilarga shaxsiy notijorat maqsadlarda foydalanish uchun sotish bo'yicha har qanday faoliyat.

**Embargo** — biror tovarni import qilishni taqiqlash.

### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Karimov I.A. "2008 yilda Respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2009 yilda iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning eng muhim ustivor vazifalari to'g'risida". Toshkent 2009. 14 fevral. "Xalq so'zi" gazetasi.
2. Karimov I.A. "Inson manfaatlarini ta'minlash – barcha islohat va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir". Toshkent 2008. 12 fevral. "Xalq so'zi".
3. Karimov I.A. "Mamlakatimiz taraqqiyoti va xalqimizning hayot darajasini Yuksaltirish – barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohatlarimizning pirovard maqsadi". Toshkent 2007.
4. Mishin V.M. Upravlenie kachestvom. M. YUNITI – DANA 2008. 463.
5. Moskvin V.A. Upravlenie kachestvom v biznese. Moskva "Finansы i statistika" 2006. 380.
6. Kane M.M., Ivanov B.V., Koreshkov V.N., Sxirtladze A.G. Sistemy, metody i instrumenty menejmenta kachestva. Izdatel'stvo PITER 2008. 560.
7. Magamedov M.D., Rybin A.V. Upravlenie kachestvom v otrazlyax pishevoy promyshlennosti. Moskva 2006. 190.
8. CHuplin A.I. Upravlenie kachestvom. Moskva «Doshkov i K» 2006. 156.
9. Blank I.A. Torgovyy menejment. Sankt – Peterburg. 2004. 740.
10. Kuznetsov B.T. Strategcheskiy menejment. M. YUNITI – DANA.2007. 623.

11. Lipsits I.V. TSenoobrazovanie. Moskva 2008. 527.
12. Axmedov B.M., Abasov A.A. Mejdunarodnye standarty po sistemam upravlenie kachestvom – sovremennoe sostoyanie i tendentsii razvitiya. “STANDART” 2008. №3. 11-15.
13. Qosimov I. Standartlashtirish sifat va raqobatbardoshlik. “STANDART” 2007. №2. 5-7.
14. Xakimov O.SH., Abdullaev T.A. Etalonы i ix mesto v obespechenii edinstva izmereniy. “STANDART” 2007. №2. 13-17.
15. YUldashev A.X. Sertifikatlashtirish jarayonlarini takomillashtirish – tadbirkorlarga yana bir qulaylik. “STANDART” 2005. №1. 11-13.
16. Tadjibekova I.E. Standartizatsiya i marketing selskoxozyaystvennoy produktsii. “STANDART” 2006. №1. 12-14.
17. Tolipov B.B. Standartlashtirish va uning moxiyatlari. “STANDART” 2006. №1. 11-12.
18. SHerbakov V. Kto zaščitit prava potrebitely. Jurnal «Standart i kachestva». 2008. №3. 8-10.
19. SHerbakov V. Evropa stremitsya «Nazad k kachestvu». «Standart i kachestva» 2008. №7. 6-8.
20. Belobragin V. Vosxojdenie k vershinam kachestva. «Standart i kachestva» 2008. №4. 78-83.
21. Belevskiy A. «Sistema kachestva kak osnova deyatel'nosti predpriyatiy rиšchevoj otrasi». «Standart i kachestva» 2008. №5. 66-67.
22. SHurin K., Prima YA. Rol' potrebitelya v upravlenii kachestvom produktsii. «Standart i kachestva» 2008. №1. 68-73.
23. Bajanov YU. Menejment kachestvo v massovom proizvodstve. «Standart i kachestva» 2008. №7. 64-66.
24. Kravchenko K. Menejment kachestvo i korporativnoe upravlenie. «Standart i kachestva» 2008. №3. 84-87.
25. Versan V. Menejment kachestvo. «Standart i kachestva» 2008. №5. 56-59.

26. Bul'dovich S. i dr. Ot vysokogo kachestva produktsii – k vysokomu kachestvu jizni. «Standart i kachestva» 2008. №3. 72-75.
27. Tezis dokladov. O 31 om Yubileynom zasedanii mejgosudarstvennogo soveta po standartizatsii, metrologii i sertifikatsii (M.G.S). Toshkent 2008. 20 noyabr'.
28. Yuldashev A. Standartizatsiya osnova voploscheniya idey i innovatsii. «Mir kachestvo» 2008. №9-10.
29. O'zbekiston Respublikasi qonuni 26.04.1996 y. “Iste'molchilarni xuquqini ximoya qilish to'g'risida”. Stanovlenie KMR Uzbekistan. O merax po vnedreniyu na predpriyatiyax sistem upravlenie kachestvom, sootvetstvuYushix mejdunarodnym standartom. 2005,22,02, №73.
30. Postanovlenie KMR Uzbekistan. O dopol'nitel'nyx merax po vnedreniyu na predpriyatiyax upravlenie kachestvom sootvetstvuYushix mejdunarodnym standartam. 2006,29,08, №183.
31. O'zbekistan Respublikasi qonuni «Tovar va xizmatlarni sertifikatlashtirish»
32. O'zbekistan Respublikasi qonuni “Oziq-ovqat mahsulotlari sifati va xavfsizligi”
33. O'zbekistan Respublikasi qonuni “O'simliklar karantini to'g'risida”
34. O'zbekistan Respublikasi qonuni “Iste'molchilar huquqini ximoya qilish to'g'risida”
35. Vazirlar Mahkamasi qarori “Tavarlarni sertifikatlashtirish jarayonini soddalashtirishning qo'shimcha tadbirlar to'g'risida”.
36. Vazirlar Mahkamasi qarori “Korxonalarda xalqaro standartlarga mos bo'lgan sifatni boshqarish tizimini joriy qilish to'g'risida”
37. “Mahsulotlarin sertifikatlash tartibi” №1458 18.03.2005 y.

## MUNDARIJA

## **I - BOB. MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH FANINING**

### **MAZMUNI VA MOXIYATI**

1.1. Sifat tushunchasi.....	5
1.2. Mahsulot sifati va uni boshqarish.....	8
1.3. Sifat va raqobatbardoshlik.....	31
1.4. Mahsulot sifatini boshqarishda xorij tajribalari.....	44
1.5. Sifat darajasini aniqlash usullari.....	55

## **II - BOB. STANDARTLASHTIRISH VA MAHSULOT SIFATI**

2.1. Standartlashtirishning ilmiy asoslari va tamoyillari.....	59
2.2. Standartlashtirishning mahsulot sifatini boshqarishdagi o’rni.....	63
2.3. Xalqaro standartlar (I.S.O. – 9000 : 2000).....	84
2.4. Mahsulotni sertifikatlashtirish.....	86
2.5. Sertifikatlashtirishning tashqi savdo sharoitlariga ta’siri.....	92
2.6. Milliy sertifikatlashtirish tizimlari.....	101
2.7. Milliy sinov markazlari tarmoqlarini tashkil qilish.....	111
2.8. Mahsulotlarni sertifikatlashtirish ishlarini o’tkazish tartibi.....	122
2.9. Metrologiya va yagona o’lchov tizimi.....	130
2.10. Iste’molchilar huquqlarini ximoya qilish.....	149
Mahsulot sifatini boshqarish bo'yicha atamalar qisqacha lug'ati.....	180

### **Содержание**

Введение.....	3
---------------	---

## I-Глава. Содержание и значение предмета управление качеством продукции

1.1. Понятие качество.....	5
1.2. Качество продукции и их управление.....	8
1.3. Качество и конкуренция.....	31
1.4. Зарубежный опыт управления качеством продукции.....	44
1.5. Методы определения степени качества.....	55

## II-Глава. Стандартизация и качество продукции

2.1. Научные основы и принципы стандартизации.....	59
2.2. Место стандартизации в управлении качеством продукции.....	63
2.3. Международные стандарты ( ISO – 9000: 2000 ).....	84
2.4. Сертификация продукции.....	86
2.5. Место сертификации в условиях внешней торговли.....	92
2.6. Система национальной сертификации.....	101
2.7. Организация национальных отраслевых испытательных центров.....	111
2.8. Правила проведения сертификации.....	122
2.9. Единая система измерения и метрология.....	130
2.10. Защита прав потребителей.....	149
Краткий глоссарий по управлению качеством продукции.....	180

## Contents

Introduction .....	3
<b>I- Unit. The Subject matter of production quality management.</b>	
1.1 The conception of quality.....	5
1.2 Production quality and management.....	8
1.3 Quality and competitiveness.....	31
1.4 Foreign experiences in production quality management.....	44
1.5 Determination the degree of quality.....	55
<b>II- Unit Standardization and production quality.</b>	
2.1 Scientific basis o principles and standardizations .....	59
2.2 The role standardization on production quality management.....	63
2.3 International Standards (I.S.O-9000:2000).....	84
2.4 Product certification .....	86
2.5 The influence of certification in Foreign trade.....	92
2.6 National certification systems.....	101
2.7 To organize the national trail centers.....	111
2.8 The procedure certification of productions.....	122
2.9 Metrology and a single measure system.....	130
2.10 To protect the consumer rights.....	149
A Short list of terms of production quality management.....	180



